		aktivlangan ko‘mir, talk. O‘rab oluvchi vositalar. Ta’siri va qo‘llanilishi: kraxmal (bug‘doy, kartoshka, makkajo‘xori kraxmallari), shilimshiqlar (zig‘ir urug‘lari, salep tuganaklari). Ta’sirlantiruvchi vositalar. Ta’siri va qo‘llanilishi: Mentol, ammiak eritmasi, xantal (gorchichniklar). Dori moddalarning qo‘llanilishi, retsept yozish, signaturasini tahlil qilish.			
7.3	**Efferent innervatsiyaga ta’sir qiladigan moddalar**	Efferent innervatsiya haqida tushuncha. Xolinergik sinapslarga ta’sir qiladigan moddalar, tasnifi, xossalari, qo‘llanilishi, nojo‘ya ta’siri va oldini olish choralari. M-xolinomimetik moddalar: pilokarpin gidroxlorid, aseklidin. N-xolinomimetik moddalar: sititon, lobelin gidroxlorid. Sitizin, tabeks, anabazin va lobelin alkaloidlaridan chekishga qarshi foydalanish. Antixolinesteraza moddalari: prozerin, galantamin gidroxlorid. Fizostigmin salitsilat ta’siri va qo‘llanilishi. Organik birikmalarning toksik ta’siri, ular bilan zaharlanish va davolash usullari. M-xolinoblokada qiladigan moddalar: atropin sulfat, skopalamin gidrobromid, platifilin gidrotartrat. Atropin sulfatning ko‘zga va silliq mushaklarga ta’siri, undan zaharlanganda birinchi yordam ko’rsatish. N-xolinoblokada qiladigan moddalar: benzogeksoniy, pentamin, kvateron. Kuraresimon vositalar: ditilin, paramion, tubokurarin xlorid, diplasin. Umumiy ta’rifi, qo‘llanilishi. Adrenergik sinapslarga ta’sir qiladigan moddalar, tasnifi, xossalari, qo‘llanilishi, nojo‘ya ta’siri va oldini olish choralari. Adrenomimetiklar: adrenalin, noradrenalin, efedrin, mezaton, naftizin, izadrin, salbutamol. Adrenoblokatorlar: labetalol, rezerpin, oktadin, fentolamin, anaprilin, oksprenolol. Simpatolitiklar: oktadin, rezerpin, raunatin, metildofa: qo‘llanilishi va salbiy ta’siri va ularga retsept yozish.	6	A-6	3
7.4	**Markaziy asab sistemasiga ta’sir qiladigan vositalar**	Markaziy asab sistemasiga ta’sir qiladigan vositalar tasnifi. Narkoz uchun ishlatiladigan moddalar. Narkoz bosqichlari, davri va narkozdan keyingi asoratlar, tez yordam choralari. Ingalyatsion narkoz vositalari: uchuvchan suyuqliklar (efir, ftorotan, metoksifluran). Gazsimon narkotik moddalar (azot (II) oqsid, siklopropan). Noingalyatsion narkoz moddalari, guruhlari, ingalyatsion narkoz moddalaridan farqlari, qo‘llanilishi va yuborish yo‘llari: geksenal, natriy tiopental, natriy oksibutirat. Etil spirti, xossalari va qo‘llanilishi. Spirt bilan o‘tkir va surunkali zaharlanish va tez yordam choralari. Uxlatadigan vositalar, tasnifi, qo‘llanilishi, nojo‘ya ta’siri. Uxlatadigan dorilardan o‘tkir zaharlanish va bunday xollarda	6	A-6	3

		ko‘rsatiladigan birinchi yordam. Talvasaga qarshi moddalar, tasnifi. Epilepsiyaga qarshi vositalar: fenobarbital, xlorakon, xloralgidrat, benzonal, difenin, geksamidin, etosuksimid. Parkinsonizmga qarshi vositalar: levodopa, midantan, siklodol xossalari va qo‘llanilishi. Analgeziya qiladigan vositalar, tasnifi, xossalari, qo‘llanilishi, nojo‘ya ta’siri, oldini olish va tez yordam choralari, qiyosiy tavsnifi. Narkotik analgetiklar: morfin gidroxlorid, omnopon, promedol, fentanil. Narkotik analgetiklar bilan o‘tkir zaharlanish. Narkotik analgetiklarning antagonistlari (nalorfin gidroxlorid, nalokson). Narkotik bo‘lmagan analgetiklar, guruhlari: asetilsalitsilat kislota, analgin, buta-dion, parasetamol, fenasetin, ibuprofen, indometasin, voltaren va boshqalar. Narkotik va nonarkotik analgetiklarga retsept yozish. Psixotrop vositalar: umumiy ta’rifi, tasnifi, xossalari, qo‘llanilishi, nojo‘ya ta’siri, oldini olish va tez yordam choralari. Antipsixotik va tinchlantiruvchi qiyosiy tavsifi. Neyroleptiklar: aminazin, etaperazin, galoperidol, triftazin, rezerpin. Trankvilizatorlar: xlordiazepoksid, seduksen (diazepam), tazepam, fenazepam, amizil va trioksazin chiqarilish shakli, dozasi va retsept yozish. Sedativ vositalar: bromidlar, valeriana va uning unumlari (korvalol, valokardin nastoykasi), arslonquyruq nastoykasi. Antidepressantlar: imizin, amitriptilin, nialamid, pirazidol. Psixostimulyatorlar: kofein, fenamin, sidnokarb, etimizol, meridil, bemitil. Nootrop vositalar umumiy ta’rifi, tasnifi, xossalari, qo‘llanilishi: nootropil – pirasetam, ensefabol, aminalon, serebrozilin. Analeptiklarning umumiy ta’rifi, tasnifi, xossalari, qo‘llanilishi: kofein benzoat natriy, kordiamin, kamfora, sulfokamfokain, bemegridning MNS ga ta’siri. Kofein va kamforaning yurak-qon tomirlariga ta’siri, kamforaning mahalliy ta’siri, dorilarning qo‘llanilishi. Umumiy tonusni oshiruvchi (adaptogenlar): eleuterokokk, jenshen, aloe, pantokrin, shishasimon tana, solkoseril, FIBS, apilak, propolis). Miyada qon aylanishini stimullovchi: kavinton, sinnarizin qo‘llanilishi, nojo‘ya ta’siri, oldini olish va tez yordam choralari.			
7.5	**Nafas a’zolari funksiyasiga ta’sir qiladigan vositalar**	Nafas stimulyatorlari umumiy ta’rifi, tasnifi, xossalari, qo‘llanilishi: kordiamin, kofein benzoat natriy, etimizol, lobelin gidroxlorid, sititon, bemegrid. Yo‘talga qarshi vositalar umumiy ta’rifi, tasnifi, xossalari, qo‘llanilishi: kodein fosfat, etilmorfin gidroxlorid, libeksin, tusupreks. Balg‘am qo‘chiradigan vositalar umumiy ta’rifi, tasnifi, xossalari, qo‘llanilishi: termopsis o‘tidan damlama va qaynatma, natriy	4	N-2 A-2	2

		gidrokarbonat, pektussin, tripsin, terpingidrat, kaliy yodid qo‘llanilishi, nojo‘ya ta’siri, oldini olish ,retsept yozish. Bronxolitik vositalar umumiy ta’rifi, bronxospazm haqida tushuncha, vositalaring asosiy guruhlari, xossalari, qo‘llanilishi: izadrin, salbutamol, berotek, adrenalin gidroxlorid, efedrin gidroxlorid, atropin sulfat, eufillin. O‘pka shishi haqida tushuncha va tez yordam choralari.			
7.6	**Yurak-qon tomir sistemasiga ta’sir qiladigan va siydik haydovchi vositalar.**	Kardiotonik vositalar . Yurak glikozidlari. Umumiy tasnifi va qo‘llanilishi, xossalari, nojo‘ya ta’siri va oldini olish choralari: digitoksin, digoksin, selanid, gulizardak ekstrakti, strofantin, korglikon, marvaridgul nastoykasi. Yurak glikozidlariga retsept yozish. Aritmiyaga qarshi vositalar, tasnifi, qo‘llanilishi, xossalari: xinidin sulfat, novokainamid, ksikain, anaprilin, verapamil, aymolin, izadrin. Kaliy preparatlari: kaliy xlorid, kaliy orotat, asparkam. Aritmiyaga qarshi vositalarga retsept yozish. Toj tomirlar yetishmovchiligida qo‘llanadigan vositalar. Ishemiya haqida tushuncha. Vositalar tasnifi, xossalari va qo‘llanilishi: nitrong, nitrogliserin, trinitrolong, validol, sustak, preduktal, erinit, kurantil, verapamil, korinfar, kordaron, no-shpa. Miokard infarktiga olib keluvchi sabablar va tez yordam choralari. Gipotenziv vositalar. Gipertoniya kasalligi haqida tushuncha. Gipotenziv vositalar tasnifi, xossalari va qo‘llanilishi: klofelin, metildofa, kapoten, rezerpin, anaprilin, papaverin, dibazol, magniy sulfat, oktadin, norvask, benzogeksoniy. Gipertoniya krizida tez yordam choralari. Gipertenziv vositalar haqida tushuncha va ularning xossalari, qo‘llanilishi. Diuretik vositalar ta’rifi, tasnifi, xossalari, qo‘llanilishi, nojo‘ya ta’siri va oldini olish choralari: dixlotiazid, furosemid, spironolakton, mannit, mochevina, triamteren. Gipotenziv, gipertenziv va diuretik vositalarning chiqarilish shakli, dozasi va ularga retsept yozish.	6	N-2 A-4	3
7.7	**Hazm a’zolari sistemasiga ta’sir qiladigan vositalar**	Ishtahaga ta’sir qiladigan vositalar ta’rifi, tasnifi, qo‘llanilishi: qalampir nastoykasi, ermon nastoykasi, ziravorlar, fepranon, dezopimon. Me’da shirasi sekretsiyasiga ta’sir qiladigan vositalar ta’rifi va tasnifi. Gastrit kasalligi haqida tushuncha. Me’da shirasi sekretsiyasi pasayganda qo‘llanadigan vositalar: suyultirilgan xlorid kislota, pepsin, tabiiy me’da shirasi, festal. Me’da shirasi sekretsiyasi oshganda qo‘llanadigan vositalar: atropin sulfat, beladonna ekstrakti, magniy oqsidi, almagel, alyumag, omez qo‘llanilishi, dozasi va ularga retsept yozish. O‘t xaydaydigan vositalar umumiy ta’rifi, tasnifi, qo‘llanilishi: degidroxolat kislota, oksafenamid, alloxol, xolosas, xolenzim, Liv.52, atropin sulfat, papaverin gidroxlorid, magniy sulfat.	4	N-2 A-2	2

		Me’da osti bezining tashqi sekretor funksiyasi buzilganda qo‘llaniladigan vositalar xossalari va qo‘llanilishi: pankreatin, kontrikal, trasilol. Qustiradigan va qusishga qarshi vositalar tasnifi, qo‘llanilishi: apomorfin gidroxlorid, rux, mis sulfat, «Aeron», etaperazin, skopolamin, galoperidol, serukal, metoklopramid, termopsis preparatlari. Surgi vositalari ta’rifi, tasnifi, xossalari, qo‘llanilishi va nojo‘ya ta’siri: magniy sulfat, natriy sulfat, kanakunjut moyi, regulaks, gutalaks, fenolftalein, rovoch ildizi kukuni, itjumurt ekstrakti, sano bargi damlamasi, senadeksin. Diareyaga qarshi moddalar (xolestiramin, loperamid, smekta, faollashtirilgan ko‘mir).			
7.8	**Miometriy tonusiga ta’sir qiladigan vositalar**	Miometriyni ritmik va toniq qisqartiruvchi vositalar. Tug‘ruq faoliyatini stimulyatsiya qilishda qo‘llanadigan vositalar. Bachadondan qon ketganda qo‘llanadigan vositalar. Bachadon tonusiga ta’sir qiluvchi vositalar: oksitosin, ergometrin maleat, vitamin E, kotarnin gidroxlorid, pituitrin, progesteron, prepedil. (Uterotonik moddalar: qoramig‘ alkoloidlari). Dori vositalariga retsept yozish	2	N-2	1
7.9	**Qon sistemasiga ta’sir qiladigan vositalar**	Kamqonlik kasalligi va uning turlari. Temir preparatlarining qo‘llanilishi, sianokobalamin va vitaminlarning qo‘llanilishi. Eritropoezga ta’sir qiladigan vositalar: qaytarilgan temir, ferropleks, ferrum lek, maltofer, tardiferon, gemostimulin, folat kislota, sianokobalamin, sirepar, ferkoven. Leykopoezga ta’sir etuvchi vositalar: natriy nukleinat, pentoksil, neypogen, filgrastim, metilurasil, vitamin B_6. Qon ivishini oshiradigan vositalar – koagulyantlar: vikasol, trombin, kalsiy xlorid, kalsiy glyukonat. Fibrinoliz ingibitorlari: aminokapronat kislota, kontrikal. Qon ivishiga to‘sqinlik qiladigan vositalar (antikoagulyantlar): geparin, neodikumarin, fenilin, sinkumar, fibrinolizin, streptoliaza. Umumiy xususiyatlari va qo‘llanilishi. Fibrinoliz haqida tushuncha. Qon sistemasiga ta’sir qiladigan preparatlarining chiqarilish shakli, dozasini yodlash, retsept yozish.	4	A-4	2
7.10	**Moddalar almashinuvi jarayoniga ta’sir qiladigan vositalar**	Gormon preparatlari, sintetik o‘rinbosarlari va antagonistlari haqida tushuncha. Gipofiz oldingi bo‘lagi gormon preparatlari: kortikotropin, somatotropin. Gipofiz orqa bo‘lagi gormon preparatlari: oksitosin, pituitrin, vazopressin, adiurekrin. Qalqonsimon bez gormon preparatlari: tireoidin, merkazolil, diyodtirozin, triyotironin. Qalqonsimon oldi bezi gormon preparatlari: kalsitonin, paratireodin. Dori vositalariga retsept yozish. Gormon preparatlari, sintetik o‘rinbosarlari va antagonistlari haqida tushuncha. Gipofiz oldingi bo‘lagi gormon preparatlari: kortikotropin, somatotropin. Gipofiz orqa bo‘lagi gormon preparatlari: oksitosin, pituitrin, vazopressin, adiurekrin. Qalqonsimon bez gormon preparatlari: tireoidin, merkazolil,	8	A-8	4

		diyodtirozin, triyotironin. Qalqonsimon oldi bezi gormon preparatlari: kalsitonin, paratireodin. Dori vositalariga retsept yozish Me'da osti va buyrak usti bezi gormon preparatlari. Me'da osti bezi gormon preparatlari: insulin in'yeksiya uchun, protamin rux insulin, semilente, xumulin, lente, lantus. Sintetik gipoglikemik vositalar: butamid, bukarbon, maninil, glibutid, metformin, diabeton. Buyrak usti bezi gormon preparatlari. Glyukokortikoidlar: gidrokortizon asetat, kortizon asetat, prednizolon, deksometazon, oksikort, sinalar, lorinden, triamsinolon. Glyukokortikoidlarning moddalar almashinuviga, yallig'lanishga va allergiyaga qarshi ta'siri, nojo'ya ta'siri. Mineralokortikoidlar xossalari va qo'llanilishi: dezoksikortikosteron asetat. Dori vositalariga retsept yozish. Ayol va erkak jinsiy gormonlari preparatlari. Anabolik steroidlar. Ayol jinsiy gormon preparatlari ta'siri, qo'llanilishi. Estrogenlar: sinestrol, dietilstilbestrol, follikulin, estron. Gestagenlar: progesteron, pregnin, turinal, oksiprogesteron. Kontraseptiv vositalar: rigevidon, diane, non-ovlon, marvelon. Kontrasepsiya haqida tushuncha, vositalarni chiqarilish shakllari va qo'llash qoidalari. Erkak jinsiy gormon preparatlari ta'siri va qo'llanilishi: testosteron propionat, metiltestosteron, testenat. Androgenlarning organizmga ta'siri, qo'llanishga qo'rsatmalar. Anabolik steroidlar: metandrostenolon, fenobolin, retabolil vositalarni chiqarilish shakllari va qo'llash qoidalari. Vitamin preparatlari. Suvda eriydigan vitaminlar. Vitaminlarning guruhlari va ahamiyati. Gipovitaminoz va avitaminoz haqida tushuncha. Suvda eriydigan vitaminlar: tiamin bromid, riboflavin, piridoksin gidroxlorid, nikotinat kislota, sianokobalamin, folat kislota, askorbinat kislota. Yog'da eriydigan vitaminlar: retinol asetat, ergokalsiferol, vikasol, tokoferol. Ishqoriy va ishqoriy-yer metallarining tuzlari va glyukozaning ahamiyati, qo'llanilishi: natriy xlorid, kaliy xlorid, kalsiy xlorid, magniy sulfat, Ringer-Lokk eritmasi, poliglyukin, glyukoza. Dori vositalariga retsept yozish			
7.11	**Blastomalarga qarshi vositalar. Immun jarayonlariga ta'sir etuvchi, allergiyaga va yallig'lanishga**	Blastomalar haqida tushuncha. Blastomalarga qarshi vositalarning tasnifi va ta'sir turlari, nojo'ya ta'sirlari. Blastomalarga qarshi preparatlarning terapevtik dozalari, qo'llanilishi, ulardan zaharlanish belgilari, zaharlanishlarda yordam choralari, preparatlarga retsept yozish. Immun jarayoniga ta'sir qiladigan vositalar. Dorilarning ta'siri, xususiyatlari, qo'llanilishi, salbiy ta'sirini o'rganish. Immun jarayoniga ta'sir qiladigan vositalar. Immunostimullovchi: Bronxo-	4	A-4	2

	qarshi vositalar	munal, timogen, timolin, arbidol. Immunomodulyatorlar: Interferon qo‘llanilishi, retsept yozish. Antigistamin vositalar. Dorilarning ta’siri, xususiyatlari, qo‘llanilishi, nojo‘ya ta’siri: dimedrol, diprazin, tavegil, suprastin, fenkarol, intal. Dori vositalariga retsept yozishni bilish. Yallig‘lanishga qarshi vositalar tasnifi, xossalari, qo‘llanilishi, nojo‘ya ta’siri. Nosteroid vositalar: asetilsalisilat kislota, indometasin, ibuprofen, butadion, diklofenak-natriy, naproksen, ortofen, nimesil, ketonal, meloksikam. Steroid vositalar: gidrokortizon, prednizolon, triamsinolon, deksometazon. Dori vositalariga retsept yozish.			
8	**Dori moddalaridan o‘tkir zaharlanishda davo choralari**	Zaharlanishlarda asosiy davolash prinsiplari. Dori moddalarining qonga so‘rilishiga yo‘l qo‘ymasliq. Antagonistlarni qo‘llash. Zaharli moddalarning organizmdan chiqib ketishini tezlashtirish. Dori moddalaridan o‘tkir zaharlanishlarda tez yordam choralari va simptomatik davolash tadbirlari.	2	N-2	1
	Jami		**72**	**NA**	**36**

3.O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo’lishi lozim.

4.Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Prezident asarlari:

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” Toshkent – “O‘zbekiston” 2020 y.
2. Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.Toshkent – “O’zbekiston” 2019 y
3. Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y
4. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y

Asosiy adabiyotlar:

1. Salixujayev Z. “Dori vositalari qo’llanmasi” Toshkent, 2015 yil.
2. Toshmuxamedova F.Sh., Aliyev X.U., Nizomov R.Z. “Umumiy farmakologiya va retseptura”. Toshkent, Ilm ziyo, 2017 yil.
3. Sayfuddin Faxriddin o‘g‘li “Umumiy retseptura”. Toshkent, Medisina, 2006 yil.
4. Adilov M., Musayeva N., Ganixodjayeva S. “Farmakologiya s osnovami reseptury”, Toshkent, 2007 yil.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. “Spravochnik Vidal”. Toshkent, 2008 yil

2. Sayfuddin Faxriddin o‘g‘li “Dorishunoslik farmakologiya va klinik farmakologiya asoslari”. Toshkent, 2006 yil.
3. “Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish”. Toshkent, Ibn Sino nashriyoti, 2003 yil
4. “Xavfsiz immunizasiya” dasturi bo‘yicha pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma. 2014 (YuNISEF)..
5. Yod tanqisligini oldini olish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni ” . 2007 yil.

Internet saytlar:

1. www.histolchuvashia.com
2. www.ziyo.net
3. www.google.com
4. www.youtube.com

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

JAMIYAT SOG‘LIQNI SAQLASH VA TIBBIY STATISTIKA

fanidan

O’QUV DASTURI

Kvalifikatsiya nomi: **Tibbiy profilaktika ishi feldsheri**

O‘quv rejadagi tartib raqami: **1.09**

Ajratilgan soat: **96**

Toshkent – 2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi: 1-Respublika Abu Ali Ibn Sino Jamoat salomatligi texnikumi Jamiyat sog‘liqni saqlash va tibbiy statistika fani o`qituvchisi, yetakchi o‘qituvchi: To‘laganova N.M.

Taqrizchilar:

Ichki taqrizchi: 1-Respublika Abu Ali Ibn Sino Jamoat salomatligi texnikumi Jamiyat sog‘liqni saqlash va tibbiy statistika fani o`qituvchisi: Raximova M.R.

Tashqi taqrizchi: TMA, “Jamoat salomatligi, sog`liqni saqlashni tashkil qilish, boshqarish” kafedrasi dotsenti: Karimboyev Sh.D.

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining Nomi	**Jamiyat sog‘lig‘ini saqlash va tibbiy statistika.**
Ajratilgan Soat	**96**
Mavzular soni	**16**
Dasturning maqsadi	Jamiyat sog‘lig‘ini saqlash va tibbiy statistika bilan bir qatorda sog‘liqni saqlash sohasida islohotlar, fanning nazariy, amaliy va uslubiy masalalarni o‘rgatish. Aholini salomatligi ko‘rsatkichlari va muhim ijtimoiy – tibbiy muammolar yechimini topish. Shahar qishloq aholisiga onalar hamda bolalarga tibbiy va sanitariya – epidemiologiya xizmatini tashkil etishni o‘rgatish.
O‘zlashtirish (o‘qitish) Natijalari	Sog‘liqni saqlash tizimi iqtisodiyoti, rejalashtirish, boshqarish va sanitariya maorifi ishlarini amalga oshirish yo‘llarini o‘rgatadi.
Bilim	– Sog‘liqni saqlash tizimi: asosiy tushunchalar, sog‘liqni saqlash muassasalarining nomenklaturasi; – jamiyat salomatligini saqlash va uni o‘rganish usullari; – aholini turmush sharoiti va turmush tarzi; – aholi salomatligiga ta’sir etuvchi omillar; – demografik jarayonlarning tibbiy ijtimoiy ahamiyati; – tibbiy statistika – biostatistika asoslari va uning asosiy vazifalari; – aholiga tibbiy xizmatni va sanitariya – epidemiologiya hizmatini tashkil etishning asosiy tamoyillari; – mehnat qobiliyatini ekspertiza qilish, kasallik va nogironlik tushunchalari.
Ko‘nikma	– Aholi salomatligi, davolash profilaktika va sanitariya – epidemiologiya muassasalari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlash; – sanitariya – statistik tadqiqot usullarini qo‘llash; – aholi salomatligini belgilovchi ko‘rsatkichlarni o‘rganish va tahlil etish; – statistik tadqiqotlarni tashkil etish; – statistik ma’lumotlardan kelib chiqqan tarzda natijalarni tahlil qilish.
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan modullar nomi	“Umumiy gigiena va ekologiya”, “Tibbiyotda axborot texnologiyalari”, “Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya”, “Valeologiya” , “Hamshiralik ishi”, “Klinik epidemiologiya”, “Jamoada hamshiralik ishi”, “Terapiyada hamshiralik ishi”, “Gerontologiyada hamshiralik ishi”, “Pediatriyada hamshiralik ishi”, “Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi”, “Asab kasalliklarida hamshiralik ishi”, “Psixiatriya va narkologiyada hamshiralik ishi”, “Teri – tanosil kasalliklarida hamshiralik ishi”, “Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi”, “Favqulotda holatlar tibbiyoti”, “Yuqumli kasalliklar va infeksion nazorat”,
O‘qitishni	N – Nazariy

tashkiliy shakli	A – Amaliy
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy, oraliq, yakuniy nazorat baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol - javob, munozara, test, vaziyatli masalalar yechish, amaliy topshiriqni bajarish, ko‘nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

2. O‘quv dasturining mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzularning qisqacha mazmuni	Umumiy yuklama	Jami	Mustaqil ta’ lim
1.	**Jamiyat sog‘lig‘ini saqlash ishi va tibbiy statistika fani, uning maqsadi, vazifalari va ahamiyati**	– O‘zbekiston jamiyat sog‘lig‘ini saqlash fanini rivojlanishi; – muxitni organizmga ta’siri; – O‘zbekiston aholisi sog‘lig‘ini belgilovchi omillar; – teshirish usullari; – O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining asosiy tamoyillari; – ijtimoiy sug‘urtalash va ijtimoiy ta’minot; – tibbiy xodimlarning ma’naviy qiyofasi; – o‘zbekiston sog‘liqni saqlash muassasalarining tuzilishi va vazifalari; – chet el mamlakatlarida sog‘liqni saqlash ishlarining tashkil qilinishi; – Jaxon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST); – O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash ishi.	6	4	2
2.	**Statistik tekshirish usullari**	– Statistik tekshirish usullarini o‘rta tibbiyot xodimi ishida qo‘llash; – statistik tekshirish bosqichlari; – nisbiy darajalar, grafik tasvir; – o‘rtacha miqdorlar, dinamik qatorlar; – kompyuterlardan foydalanish.	9	6	3
3.	**Aholini sog‘lig‘i ko‘rsatkichlari va muhim ijtimoiy – tibbiy**	– Demografik ko‘rsatkichlar; – aholining jismoniy rivojlanishi; – aholining kasallanishi va muhim ijtimoiy – tibbiy muammolari.	6	4	2

	muammolar				
4.	**Shahar aholisi va sanoat korxonalari ishchilariga tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil qilish.** **Poliklinika ishini tashkil qilish**	– Dispanser kuzatuvi usullari; – ro‘yxatxona; – uchastka shifokorlari va o‘rta tibbiy xodimlarning poliklinikada amalga oshiradigan ishlari; – bemorlarga uyda yordam ko‘rsatish; – bemorlarni mehnat qobiliyatiga bog‘liq bo‘lgan masalalar ekspertizasi; – poliklinikaning sanitariya – profilaktik ishi.	9	6	3
5.	**Shahar shifoxonasini ishini tashkil qilish**	– O‘rta malakali tibbiyot xodilari ishini uyushtirish; – bemorlarni shifoxonaga qabul qilish va chaqirish tartibi; – statsionarda davolash – muhofaza rejimi; – bemorlarni parhez taomlar bilan ovqatlanishini uyushtirish.	9	6	3
6.	**Poliklinikada hamda shifoxona ishi ko‘rsatkichlari va hisobot**	– Tez tibbiy yordamni uyushtirish; – dispanserlar ishini tashkil qilish; – stomatologiya xizmatini tashkil qilish; – sanoat korxonalari ishchi – xizmatchilariga tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil qilish; – sexlarda sog‘liqni saqlash punktlari tashkil qilish va ularning ish tamoyillari.	12	8	4
7.	**Onalar va bolalar sog‘lig‘ini muxofaza qilishni tashkil etish**	– Onalar va bolalar sog‘lig‘ini muxofaza qilishning muhim muammolari; – abort; – chala tug‘ish; – perinatal o‘lim.	3	2	1
8.	**Akusherlik va ginekologik yordamni uyushtirish**	– Xotin – qizlar maslaxatxonasi; – sanitariya maorifi ishlari; – tug‘ruqxona statsionari; – tug‘ruqxona ishlari ko‘rsatkichlari.	9	6	3
9.	**Bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil qilish**	– Bolalar poliklinikasi; – bolalar shifoxonasi (statsionari); – shahar bolalar shifoxonasi va poliklinikasining faoliyati ko‘rsatkichlari; – maktabgacha bo‘lgan bolalar muassasalarida tibbiy xizmatni uyushtirish; – go‘daklar uyi; – akusherlik – terapevtik – pediatrlik majmuasi (ATPM).	12	8	4
10.	**Sanitariya – epidemiologiya hizmatini uyushtirish**	– Sanitariya – epidemiologiya xizmati tizimi; – sanitariya – epidemiologiya nazorat markazi; – sanitariya – gigiena bo‘limi; – epidemiyaga qarshi bo‘lim; – SENM sanitariya shifokori yordamchisining vazifalari;	9	6	3

		– SENM rejasi; – SENM faoliyati ko‘rsatkichlari.			
11.	**Qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko‘rsatishni uyushtirish. Tibbiy xizmat ko‘rsatish bosqichlari**	– Feldsher – akusherlik punkti (FAP); – qishloq uchastka kasalxonasi (QUK); – qishloq shifokorlik ambulatoriyalari; – qishloq shifokorlik punkti; – zonal konsultativ poliklinikasi; – hamshira parvarishi shifoxonasi (bo‘limi); – davolash – profilaktika ishlarini uyushtirish; – qishloq aholisini dispanser nazoratiga olish; – homilador ayollarga va bolalarga davolash – profilaktika yordamini uyushtirish; – sanitariya – profilaktika ishlarini uyushtirish; – sanitariya feldsheri va uning vazifalari; – qishloq xo‘jaligidagi mavsumiy ish davrida tibbiy xizmatni uyushtirish.	12	8	4
12.	**Tuman markaziy shifoxonasi**	– Akusherlik majmuyi; – tuman markaziy shifoxonasi poliklinikasi; – tez tibbiy yordam muassasalari. – tuman yuqumli kasalliklar shifoxonasi; – tuman teri – tanosil kasalliklari dispanseri; – tuman silga qarshi dispanseri; – tuman sanitariya – epidemiologiya nazorat markazi.	18	12	6
13.	**Sog‘liqni saqlash tizimi iqtisodiyoti, rejalashtirilishi, uni mablag‘ bilan ta’minlash va boshqarish. Sog‘liqni saqlash tizimini rejalashtirish va mablag‘ bilan ta’minlash. Sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish**	– Sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti; – sog‘liqni saqlash ishi tejamkorligini tahlil qilish usuli; – sog‘liqni saqlashning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish usuli; – sog‘liqni saqlash tizimini rejalashtirish usuli; – sog‘liqni saqlash tizimini moddiy jixatdan ta’minlash; – sog‘liqni saqlash tizimini boshqarishning ahamiyati; – tibbiyot xodimlarining mehnatini ilmiy asosda tashkil etish.	12	8	4
14.	**Sanitariya maorifi. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot etish.**	– Sanitariya maorifining asosiy vazifalari; – sanitariya maorifi muassasalari; – sanitariya maorifi ishlarining usullari va vositalari; – aholi guruhi inobatga olingan holda sanitariya maorifi ishlarini tashkil etish.	12	8	4
15.	**Salomatlik instituti va markazlari**	– Salomatlik instituti va markazlari	6	4	2
Jami:			**14**	**96**	**48**

	4		

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol – javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

Prezident asarlari

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” Toshkent – “O‘zbekiston” 2020 y.
2. Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.Toshkent – “O’zbekiston” 2019 y
3. Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y
4. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y

Asosiy adabiyotlar:

1. A.T.Nikboev “Jamiyat sog‘lig‘ini saqlash va tibbiyot statistikasi”. Toshkent, “Ilm Ziyo”, 2005 yil.
2. Irgashev Sh.B. “Valeologiya”. Toshkent 2015 yil.
3. Zokirova K.O‘, Toxtamatova D.O‘ «Hamshiralik ishi asoslari». Toshkent, 2019 yil.
4. H.I.Shukurov, S.Q.Qanoatov Jamoada hamshiralik ishi, Toshkent, 2010 yil.
5. Inomov K.S. «Hamshiralik ishi asoslari». Toshkent, O‘zbekiston milliy nashriyoti, 2007 yil.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Ziyaeva M.F. Xodjasheva M.D.“Kattalarda (terapevtik kasalliklar va klinik tekshiruvlar)da hamshiralik parvarishi” “Voris - nashriyot” Tashkent 2017 yil.
2. N. Allayorov. “Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik parvarishi” Toshkent 2016 yil.
3. Irgashev Sh.B. “Meditsinskaya valeologiya”. Toshkent 2012 yil.
4. Ziyaeva M.F. Xodjasheva M.D. “Sestrinskiy uxod za vzroslqmi (terapevtichiskie zabolevanie i klinicheskie obsledovanie” Toshkent “Ilm Ziyo” nashriyoti, 2015 yil.
5. Ziyaeva M.F. Xodjasheva M.D. “Kattalarda hamshiralik parvarishi” Toshkent “Voris” nashriyoti, 2014 yil.
6. O.T.Alyaviya, Sh.K.Qodirov, A.A.Nishonova “Fiziologiya” darslik, Toshkent 2018 yil.
7. O.T.Alyaviya, Sh.K.Qodirov, A.N.Qodirov “Normal fiziologiya” darslik, Toshkent 2007 yil.
8. Zokirova K.O‘, Toxtamatova D.O‘ «Hamshiralik ishi asoslari». Toshkent, 2019 yil.
9. H.I.Shukurov, S.Q.Qanoatov Jamoada hamshiralik ishi, Toshkent, 2010 yil.
10. Inomov K.S. «Hamshiralik ishi asoslari». Toshkent, O‘zbekiston milliy nashriyoti, 2007 yil.
11. Ziyaeva M.F. Xodjasheva M.D. “Kattalarda (terapevtik kasalliklar va klinik tekshiruvlar)da hamshiralik parvarishi” “Voris - nashriyot” Tashkent 2017 yil.
12. F.I.Salomova, Sh.T.Iskandarova, L.K.Abdukadirova, Sadullaeva X.A., Sharipova S.A, Axmadalieva N.O., Xasanova M.I. “Gigiena. Tibbiy ekologiya”. Darslik. Toshkent. RIO - TMA, 2019 yil.

13. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va “Sog`liqni saqlash Vazirligining” buyruq va uslubiy tavsiyanomalari.

Internet saytlari:

www.medlook.ru
www.medbok.ru
www.medicum.ru
www.medtext.ru
www.medkniga.ru
www.bilim.uz;
www.gov.uz;
www.sestra.ru
www.med.uz.
www.lex.uz.
www.medical.ru.
www.minzdrav.uz.
www.tma.uz.
www.tashpmi.uz.
www.ziyonet.uz.
www.wikipedia.uz.
http://bibliotekar.ru

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

KASBIY FAOLIYATNING HUQUQIY ASOSLARI VA BIOETIKA

fanidan

O’QUV DASTURI

Kvalifikatsiya nomi: **Tibbiy profilaktika ishi feldsheri**

O‘quv rejadagi tartib raqami: **1.10**

Ajratilgan soat: **48**

Toshkent – 2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi:

Z.K.Nuraliyeva	1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o`qituvchisi

Taqrizchi:

N.Ismoilova	Chilonzor tumani Beshcninor MFY xotin qizlar faoli ,yurist – pedagog

1. O‘quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	**Kasbiy faoliyatning huquqiy asoslari va bioetika**
Ajratilgan soat	**48**
Mavzular soni	**19**
Dasturning maqsadi	O‘quvchilarni O‘zbekiston Respublikasi mehnat va bandlik sohasidagi huquqiy siyosat mohiyatini tushunib yetishga ko‘maklashish, mehnat qonunchiligining asosiy tushunchalari va qoidalari bilan tanishtirish. O‘quvchida mehnat huquqi haqida mustahkam bilimlar, barqaror ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	O‘quvchi: – mehnat huquqiy munosabati darajasida huquqiy muammolarni tahlil qilish va hal qilishni bilib oladi; – mehnat huquqiga oid bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining asosiy qoidalarini o‘rganadi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Hukumat qarorlari, boshqa idoraviy normativ huquqiy hujjatlarni yuritishni bilib oladi; – amaliy vazifalarni qonunchilik-me’yoriy hujjatlarni qo‘llagan holda hal etish va mehnat huquqi subekti va obyektlarini aniqlashni o‘rganadi; – mehnat shartnomasi tuzishni o‘zgartirishni va bekor qilish, ish vaqti, dam olish vaqti va yillik mehnat ta’tillirini berishni o‘rganadi; – mehnatga haq to‘lash, mehnat intizom tushunchasini va mehnat muhofazasini himoya qilishni bilib oladi.
Bilim	– Mehnat huquqining predmeti, uslubi, tizimi va asosiy vazifalari. – Mehnat huquqining asosiy tamoyillari va manbalari. – Mehnatga oid munosabatlar subyektlari. Xodimlar va ish beruvchilarning vakilligi. – Mehnatga oid huquqiy munosabatlar. – Jamoa shartnomasi. – Jamoa kelishuvi – Aholini ish bilan ta’minlash. – Mehnat shartnomasi (kontrakt)ning tushunchasi, mazmuni, taraflari va tuzishtartibi. – Mehnat shartnomasini o‘zgartirish. – Mehnat shartnomasining bekor bo‘lishi tushunchasi va tasnifi. – Ish vaqti. – Dam olish vaqti va mehnat ta’tillari. – Mehnatga haq to‘lash. – Kafolatli to‘lovlar va kompensasiya to‘lovlari. – Mehnat intizomi. – Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi. – Mehnatni muhofaza qilish. – Ayrim toifa xodimlarga beriladigan qo‘shimcha kafolat va imtiyozlar. – Mehnat nizolari va ularni hal qilish tartibi.

Ko‘nikma	– O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyaning ahamiyati haqida ko‘nikmaga yega bo‘ladilar – Mehnatga oid munosabatlar tushunchasi va turlari. – Mehnatga oid huquqiy munosabatlarning xususiyatlari, belgilari, mazmuni, obyekti va subyekti haqida ko‘nikma xosil qiladi – Jamoa shartnomasi tushunchasi, ahamiyati va asosiy maqsadi, me’yoriy va maxsus shartlari. Jamoa shartnomalarini tuzish tartibi va bosqichlari haqida ko‘nikmaga ega bo‘ladilar – Jamoa kelishuvlarining mazmuni, tuzish tartibi, shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning javobgarligini o‘rganadilar – O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonuni va aholini ishga joylashtirishning asosiy tamoyillari haqida ko‘nikmaga ega bo‘ladilar – Mehnat shartnomasi (kontrakti)ning tushunchasi va taraflari,mazmuni, zaruriy va qo‘shimcha shartlari, mehnat shartnomasinig turlari haqida ko‘nikmaga ega bo‘ladilar – Mehnat huquqi bo‘yicha ish vaqti tushunchasini bilib oladilar – Fuqarolarning dam olishlarining qonuniy kafolatlari haqida ko‘nikmaga ega bo‘ladilar – Mehnatga haq to‘lash tushunchasi va uning umumiy tavsifi haqida ko‘nikmaga ega bo‘ladilar – vazifalarini bajarayotgan vaqtida beriladigan kafolatlar, 18 yoshgacha bo‘lgan xodimlarga beriladigan kafolatli to‘lovlar haqida ko‘nikmaga ega bo‘ladilar – Mehnat huquqi bo‘yicha mehnat intizomi tushunchasi to‘g‘risidagi Ustav va Nizomlari haqida ko‘nikmaga ega bo‘ladilar – Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi tushunchasi va shartlari haqida ko‘nikmaga ega bo‘ladilar – Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi va uning ahamiyati. Xodimlarning mehnatini har tomonlama muhofaza qilish va sog‘lig‘ini saqlash davlatning konstitusiyaviy burchi haqida ko‘nikmaga ega bo‘ladilar – Ayollar mehnatini muhofaza qilish masalalari haqida ko‘nikmaga ega bo‘ladilar – Mehnat nizolari tushunchasi va uning klassifikasiyasi haqida ko‘nikmaga ega bo‘ladilar.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘lik bo‘lgan fanning nomi	Barcha maxsus fanlar
O‘qitishning tashkiliy shakli	N – nazariy ta’lim; A – amaliy ta’lim.
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib

O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol-javob,munozara,test, amaliy topshiriqni bajarish.

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘ qitishning tashkiliy shakli	Mustakilta’ lim
1	**Mehnat huquqining predmeti va bioetikaning asosiy vazifalari.**	Mehnat, uningjamiyatdagi o‘rni va mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishning zarurligi Bioetika tushunchasi . Mehnat huquqining tushunchasi va predmeti. Mehnatga oid munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa munosabatlar. Mehnat huquqining uslubi va vazifalari. Mehnat huquqining boshqa huquq sohalaridan, xususan fuqarolik, qishloq xo‘jalik, ma’muriy va boshqa huquqiy fanlardan farqi. Mehnat huquqining tizimi.	2	2N	
2	**Mehnat huquqining asosiy tamoyillari va manbalari.**	Mehnat huquqining asosiy tamoyillari tushunchasi. Mehnat bozirini va aholini ish bilan ta’minlashni huquqqiy jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat siyosatini ifodalovchi tamoyillar. Mehnatning shartlarini belgilash sohasidagi boshqaruv asosini belgilovchi tamoyillar. Xodimlar mehnatining qo‘llanilishini belgilovchi tamoyillar. Xodimlar mehnat huquqlarini himoya qilishni ifoda etuvchi tamoyillar. Mehnat xuquqi manbalari tushunchasi, tasnifi. Konsitutsiya –O‘zbekiston Respublikasi mehnat huquqining yetakchi manbai sifatida. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyaning ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, hukumat qarorlari mehnat huquqi manbai sifatida.	2	2N	2
3	**Mehnatga oid huquqiy munosabatlar va bioetika ta`limoti .**	Mehnatga oid munosabatlar tushunchasi va klassifikasiyasi. Mehnatga oid huquqiy munosabatlar va bioetika ta`limoti Mehnatga oid munosabatlar subyektlarining turlari. Mehnat huquqiy–muomala layoqati, mehnat huquqi subyektlarining yuridik statusi. Mehnat huquqi subyektlari sifatida xodimlar. Xodimlarning mehnat qilish huquqi va mehnat qilish huquqi subyektligi mezonlari. Ish beruvchilar mehnat huquqining subyekti sifatida. Ish beruvchilarning asosiy huquq va majburiyatlari. Ayrim fuqarolar ish beruvchi sifatida. Ish beruvchi vakilligi, xodimlar vakillik organlari. Kasaba uyushmalari va mehnat jamoasi xodimlar vakillik organi sifatida. Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatalari	2	2N	2

		kichik va xususiy tadbirkorlik sifatida. Xodimlar vakillik organlari faoliyatida qatnashayotgan xodimlar uchun qo‘shimcha kafolatlar.			
4	**Mehnatga oid huquqiy munosabatlar**	Mehnatga oid huquqiy munosabatlar tushunchasi. Mehnat sohasida jamoat munosabatlarining vujudga kelish asoslari. Mehnatga oid huquqiy munosabatlarning xususiyatlari. Mehnatga oid huquqiy munosabatlarning asosiy belgilari, mazmuni. Mehnatga oid huquqiy munosabatlarning obyekti va subyekti. Mehnatga oid huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o‘zgartirish va bekor qilish asoslari.	2	2N	
5	**Jamoa shartnomasi.**	Jamoa shartnomasi tushunchasi, ahamiyati va asosiy maqsadi. Jamoa shartnomasi tuzishning tamoyillari. Jamoa shartnomasining mazmuni. Jamoa shartnomasining me’yoriy va maxsus shartlari. Jamoa shartnomalarini tuzish tartibi va bosqichlari.	2	2A	2
6	**Jamoa kelishuvi.**	Jamoa kelishuvlarining mazmuni. Jamoa kelishuvlarini tuzish tartibi. Jamoa shartnomasi va jamoa kelishuvining bajarilishini ta’minlash usullari. Jamoa shartnomasi va kelishuvlari shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning javobgarligi.	2	2A	
7	**Maxsus qism.** **Aholini ish bilan ta’minlash**	Fuqarolarni ish bilan ta’minlanish konstitusiyaviy huquqlari va uning kafolatlari. O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatning hamda mehnat sohasida kamsitishning ta’qiqlanishi, O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonuni va aholini ishga joylashtirishning asosiy tamoyillari. Ishga joylashtiruvchi organlar, ularning vazifalari, huquqiy statusi. Fuqarolarni ish axtaruvchi (qidiruvchi) sifatida ro‘yxatga olish tartibi. Ishsiz shaxs va uning huquqiy maqomi.	2	2N	
8	**Mehnat shartnomasi (kontrakt) tushunchasi, mazmuni, taraflari va tuzish tartibi.** **.**	Mehnat shartnomasi (kontrakti) tushunchasi va taraflari. Uning boshqa turdosh fuqarolik huquqiy shartnomalardan farqi. Mehnat shartnomasining xalq xo‘jaligidagi huquqiy ahamiyati. Mehnat shartnomasiningmazmuni. Mehnat shartnomasinig turlari: a) o‘rindoshlik bo‘yicha ishlar haqidagi mehnat shartnomasi; b) konkurs asosida ishga qabul qilishda tuziladigan mehnat shartnomasi; c) korxona rahbari bilan tuziladigan mehnat shartnomasi; d) kasanachilar (uy xodimlari) bilan tuziladigan mehnat shartnomasi;	2	2N	

		ye) haqi to‘lanadigan jamoat ishlariga qabul qilish. f) korxonalar uchun belgilangan minimal ish joylari (kvota) hisobidan ishga qabul qilish.			
9	**Mehnat shartnomasini o‘zgartirish.**	Mehnat shartnomasi (kontrakti)ni o‘zgartirish. Mehnat shartnomasi (kontrakti) shartlarini belgilash va o‘zgartirishning umumiy qoidalari. Ish beruvchining tashabbusi bilan xodim roziligisiz mehnat shartnomasi (kontrakti)ni o‘zgartirish. Xodim talabiga binoan mehnat shartnomasi (kontrakti)ni o‘zgartirish. Ish joyini o‘zgartirish (qo‘zg‘atish). Boshqa doimiy va vaqtincha ishga o‘tkazish tushunchasi va turlari. Mehnat shartnomasi (kontrakti)ni o‘zgartirishni rasmiylashtirish.	2	2N	
10	**Mehnat shartnomasining bekor bo‘lishi tushunchasi va tasnifi.**	Mehnat shartnomasi (kontrakti)ni bekor qilish asoslarining umumiy tavsifi. Xodimning tashabbusi bilan mehnat shartnomasi (kontrakti)ni bekor qilish. Xodimning tashabbusi bilan mehnat shartnomasi (kontrakti) ni bekor qilishda belgilangan ogohlantirish muddati, uni belgilashdan ko‘zlangan maqsad va bu muddatni qisqartirishga yo‘l qo‘yiladigan holatlar. Mehnat shartnomasi (kontrakti)ni ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asoslari. Ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasi (kontrakti)ni bekor qilishni kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari bilan kelishib olish.	2	2N	
11	**Ish vaqti.**	Mehnat huquqi bo‘yicha ish vaqti tushunchasi. Ish vaqtining huquqiy me’yorlari. Ish kuni, ish smenasi, ish haftasining normal va qisqartirilgan muddatlari, to‘liqsiz ish vaqti. Ish smenasi grafigi, o‘zgaruvchan ish grafiklari, ishlarni tashkillashtirish, uslubi. Ish vaqti rejimi tushunchasi va uni belgilash tartibi. Ish vaqtini hisobga olish vauning turlari. Ish vaqtidan tashqari ishlar, unga jalb qilish hollari va tartibi.	2	2A	2
12	**Dam olish vaqti va mehnat ta’tillari.**	Fuqarolarning dam olishlarining qonuniy kafolatlari. Dam olish vaqti, uni huquqiy jihatdan tartibga solish. Dam olish vaqti turlari (ish kuni davomidagi tanaffuslar, kundalik dam olish vaqti. Dam olish kunlari. Bayram kunlari. Ta’tillar). Dam olish va bayram kunlarida xodimlarni ish vaqtidan tashqari ishlarga jalb qilish asoslari va tartibi. Xodimlarning mehnat ta’tili olish huquqi Ta’tillarni berish vaqti, navbati va tartibi. Ta’tilni uzaytirish yoki uni boshqa muddatga ko‘chirish. Ta’tilni qismlarga bo‘lish va ta’tildan chaqirib olish tartibi. Ta’tillar uchun haq to‘lash tartibi. Ijtimoiy ta’tillar. Ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta’tillar.	4	4A	2
13	**Mehnatga haq to‘lash**	Mehnatga haq to‘lash tushunchasi va uning umumiy tavsifi. Mehnat haqini huquqiy tartibga solish uslublari. Mehnatga haq to‘lashni qonun hujjatlari va lokal normativ hujjatlar bilan tartibga solish. Mehnat haqi tarkibi. O‘rtacha oylik ish	2	2N	2

		haqini hisoblab chiqarish. Mehnat haqini to‘lash tartibi. Ish haqini to‘lash vaqti, joyi va muddati. Mehnat haqidan ushlab qolish. Normal ish vaqtidan chetga chiqqan holda bajarilgan ishlar uchun haq to‘lash. Ish vaqtidan tashqari ishlar, dam olish va bayram kunlaridagi ishlar uchun haq to‘lash. Tungi vaqtdagi ish uchun haq to‘lash.			
14	**Kafolatli to‘lovlar va kompensasiya to‘lovlari.**	Kafolatli to‘lovlar tushunchasi. Davlat yoki jamoat vazifalarini bajarayotgan vaqtida beriladigan kafolatlar. Ish beruvchi va mehnat jamoasi manfaatlariga doir vazifalarni bajarish vaqtida beriladigan kafolatlar. Jamiyat manfaatlariga doir harakatlar qilganda beriladigan kafolatlar. 18 yoshgacha bo‘lgan xodimlarga beriladigan kafolatli to‘lovlar. O‘rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish tartibi. Kompensasiya to‘lovlari, ularning turlari. Xizmat komandirovkasi davrida, ko‘chib yurish bilan bog‘liq ishlarda harajatlarni to‘lash. Xodimga tegishli mol – mulkdan foydalanganlik uchun xarajatlarni to‘lash.	2	2N	2
15	**Mehnat intizomi ,tibbiyot xodimlarining burchlari va vazifalari .**	Mehnat huquqi bo‘yicha mehnat intizomi tushunchasi. Mehnat intizomini ta’minlash usullari. Xodimlar va ma’muriyatning vazifalari. Ichki mehnat tartibi qoidalarini huquqiy jihatdan tartibga solish. Ayrim toifadagi xodimlarning intizom to‘g‘risidagi Ustav va Nizomlari. Xodim va ish beruvchining asosiy burchlari. Mehnat uchun rag‘batlantirish. Intizomiy nojo‘ya harakat va uni tashkiletuvchi elementlar.Mehnat intizomini buzganlik uchun boshqa huquqiy jazo choralari.	4	4A	2
16	**Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi.**	Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi tushunchasi va shartlari. Mehnat qonunchiligidagi moddiy javobgarlikning fuqarolik qonunchiligidagi mulkiy javobgarlikdan farqi. Mehnat shartnomasining bir tarafi boshqa tarafga etkazgan zararini qoplash majburiyati tushunchasi. Ish beruvchiga yetkazilgan zarar uchun xodimning moddiy javobgarligi tushunchasi. Moddiy javobgarlik turlari. Xodimning cheklangan moddiy javobgarligi chegarasi. Xodimning moddiy javobgarligini istisno etuvchi holatlar. Zararni undirish tartibi. Zararni sud tomonidan undirilishi. Korxonaga uning rahbari tomonidan etkazilgan zararning to‘lanishi. Zararni undirish haqidagi qaror ustidan shikoyat qilish huquqi.	2	2N	2
17	**Mehnatni muhofaza qilish**	Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi va uningahamiyati. Xodimlarning mehnatini har tomonlama muhofaza qilish va sog‘lig‘ini saqlash davlatning konstitusiyaviy burchidir. Mehnatni muhofaza qilish institutining mazmuni. Mehnatni	4	4A	2

		muhofaza qilishning tashkiliy–huquqiy shakllari: mehnatni muhofaza qilishni rejalashtirish va Moliyalashtirish tadbirlari. Mehnatni muhofaza qilish normalari va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Mehat muhofazasiga doir qonunlarni buzganlik uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi.			
18	**Ayrim toifa xodimlarga beriladigan** **qo‘shimcha kafolat va imtiyozlar.**	Ayollar mehnatini muhofaza qilish masalalari. Ayollar mehnatini qo‘llash ta’qiqlanadigan ishlar. Ayollar ko‘tarishlari va tashishlari mumkin bo‘lgan yuk normalari. Yosh bolasi bor ayollar mehnatini maxsus tashkil etish. Homilador va bolasi bor ayollar mehnatini maxsus tashkil etish. Homilador va yosh bolasi bor ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishdagi kafolatlar. Yoshlar mehnatini muhofaza qilish. Yoshga to‘lmagan shaxslar mehnatidan foydalanish ta’qiqlanadigan ishlar. Yoshlar ko‘tarishi mumkin bo‘lgan yuk normalari. Yoshlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish. Yoshlarga mehnat huquqi sohasidagi imtiyozlar. Ayrim oliy o‘quv yurtlarida maxsus sirtqi bo‘limlarda ishni ta’lim bilan qo‘shib olib borayotgan xodimlar uchun imtiyozlar.	4	2N 2A	2
19	**Mehnat nizolari va ularni hal qilish** **tartibi.**	Mehnat nizolari tushunchasi vauning klassifikasiyasi. Mehnat nizolarining kelib chiqish sabablari. Mehnat nizolarini ko‘ruvchi organlar. Mehnat nizolarining taalluqliligi. Xodimlarning huquq va erkinliklarini qonuniy mustahkamlashda sud va huquqni muhofaza qilish organlarining roli. Mehnat nizolari komissiyasini tuzish va bu komissiyaningvakolatlari. Yakka mehnat nizolarini mehnat nizolari komissiyasida ko‘rib hal qilish. Mehnat nizolarini suda ko‘rishning xususiyatlari. Mehnat nizosini tumanlararo (shahar) fuqarolik sudiga o‘tkazish va mehnat nizolari komissiyasi qarori ustidan shikoyat qilish.	4	4A	2
		Jami:	**48**	**N A**	**24**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

4. Tavsiya etilgan adabiyotlar va saytlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.
2. Shavkat Mirziyoyev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.
3. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”Toshkent – “O‘zbekiston”-2016.
4. Shavkat Mirziyoyev“Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”Toshkent – “O‘zbekiston”-2017.
5. Shavkat Mirziyoyev“Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”Toshkent – “O‘zbekiston”-2017.
6. Shavkat Mirziyoyev“Buyuk kelajagimizni mard va olijanobhalqimiz bilan birga quramiz”Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.
7. Shavkat Mirziyoyev“Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”Toshkent – “O‘zbekiston”-2019.
8. Inoyatov A. A. O‘zbekiston Respublikasining mehnat huquqi. Darslik. “Iqtisod va huquq dunyosi” nashriyot. T.,2012.
9. Tursunov Yu. Mehnat huquqi . Darslik . T.,“MOLIYa”, 2015.
10. Tursunov Yu, Usmanova M, Rahimova Yu. Mehnat huquqi. Darslik. T, TDYuI, 2016. 253-bet
11. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga sharxlar. T.,TDYuI, 2018.
12. Usmanova M. A. Mehnat shartomasi. O‘quv qo‘llanma. T.,TDYuI. 2019. Tursunov Yu. Xalqaro mehnathuquqi. Darslik. T.,TDYuI, 2010. 253 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.,O‘zbekiston. 2008. 40-bet

3. O‘zbekiston Respublikasining Mehnatkodeksi. T.,“NORMA”, 2010 271-bet

4. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi qonuni.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”gi qonuni. 2003 yil 29 avgust

Internet saytlar

1. Sayt “Profsoyuznayaucheba”: neyantsev @ z66. ru. http: G`G` bcaG`uzG`prot.

2. law @ ext. dvg. ru. “Konferentsiyapotrudovomupravu”.

3. www. Mintrud. ru. “Obzorzarabotnoyplati”.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

VALEOLOGIYA

fanidan

O’QUV DASTURI

Kvalifikatsiya nomi: **Tibbiy profilaktika ishi feldsheri**

O‘quv rejadagi tartib rakami: **1.11**

Ajratilgan soat: **48**

Toshkent – 2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi:

M.R.Raximova - 1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o‘qituvchisi

Taqrizchi:

S.A.Zuparova - 1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o‘qituvchisi

1. O‘quv dasturi umumiy talablari

DASTUR NOMI	**VALEOLOGIYA**
AJRATILGAN SOAT	**48**
MAVZULAR SONI	**15**
DASTURNING MAQSADI	Valeologiyaning turli xil-tibbiy, tabiiy, biologik, ijtimoiy, iqtisodiy,
O‘ZLASHTIRISH (O‘QITISH) NATIJALARI	– Valeologiya haqida tushuncha va valeologiya fanining usullarini; – Odam organizmini ichki imkoniyatlarini oshirish yo‘llari; – Aholi sog‘lig‘ini mustahkamlash va kasalliklarni oldini olish asoslarini o‘zlashtiriladi. – Salomatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan ijobiy xayot tarzini shakllantiriladi. - Profilaktik tibbiyotning muammolari, salomatlikni asrash va mustahkamlash masalalarini aniqlashni o‘rganiladi.
BILIM	– Valeologiya integrativ fan sifatida mavjud barcha fanlarning yutuqlaridan inson salomatligi uchun ulardan foydalanishlik (anatomiya, fiziologiya, gistologiya, embriologiya, biologiya, bioximiya, biofizika, psixologiya, gigiyena, ekologiya vaboshqalar). – O‘zligini anglashlikning ilmiy asosda tushuntirishlik va uning valeologik ahamiyatini ta’kidlash. – Inson organizmining birqancha a’zolar va tizimlar (sistemalar)dan iborat ekanligi hamda ularning bir butunligi va o‘zaro-uzviy bogliqligining valeologik ahamiyatini tushuntirish. – Turli xil yuqumli va boshqa kasallikpardan saqlanishlikka undash. – Narkomaniya va toksikomaniyaning organizmga salbiy ta’sir etishligi va umr zavoli ekanliklarini (narkotik va psixotron moddalar, alkogolli ichimliklar iste’mol qilishlik, chekish va boshqalarning salbiy ta’sirlari) tushuntirish. – OITS (SPID) va OITV (VICh) – infeksiyaning o‘ta zararli ekanligi va uning profilaktikasiga undash. -Yod, temir va boshqa mikroelementlar tanqisligi natijasida turli xil kasalliklarning kelib chiqishini oldini olishlikka da’vat etishlik. Rak, tuberkulyoz, diabet, semirishlik, -infarkt, insult, turli xildagi infeksion kasalliklar, jinsiy a’zo va teri kasalliklari, skleroz, jinsiy ojizlik va boshqalarni oldini olishlik
	– Ruhiy va jismoniy tarbiyalarni o‘ta barvaqg boshlashlikning valeologik ahamiyatini tushuntirish. – Har bir shaxs, eng avvalo, o‘z salomatligining mustahkamligi ustida qayg‘urishi va shu kabilarga da’vat etishlikdan iboratdir.

Ko‘nikma	– Salomatlik miqdorini o‘rganish; – Individual sog‘lomlashtirish dasturlarini amaliyotga tadbiq etish; – Aholi orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish; – Aholiga ta’sir ko‘rsatishning individual, guruh va populyatsion darajalari aniq mexanizmlar va organizmning rezervlarini aniqlash; – Aholi bilan ish olib borishda maqsadli guruhlar, tamoyillar, standartlar va algoritmlardan foydalanish mexanizmlari yoritib berish; – Antistress dasturlarni yaratish; – Profilaktik tibbiyotning muammolari, salomatlikni asrash va mustahkamlash masalalarini aniqlash.
O‘quv rejasiga muvofiq o’zaro bog‘liq bo‘lgan fanning nomi	“Hamshiralik ishi”, “Gerontologiyada hamshiralik ishi”, “Pediatriyada hamshiralik ishi”, “Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi”, “Jamoada hamshiralik ishi”
O‘qitishning tashkiliy shakli	N –nazariy ta’lim; A-amaliy ta’lim
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning	Yozma, og‘zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq

2.O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	jami	O‘ qitishini tashkiliy	Mustaqil ta’ lim
1	**Valeologiya asoslari,tarixi Valeologiya fanini boshqa ilmiy sohalar ichida tutgan o‘rni.**	Valeologiya fani va uning vazifalari, rivojlanish bosqichlari, tibbiyotda tutgan o‘rni. Valeologiya fanida qo‘llaniladigan usullar. Salomatlik va sog‘lom turmush tarzi tushunchasi va ahamiyati. Valeologiya tasnifi. Turmush tarzi, hayot tarzi tushunchalari. Hayot darajasi ko‘rsatkichlari. Hayot tuzilishi, hayot uslubi, hayot sifati tushunchalari. Hayot tarzi va salomatlikka ta’sir etuvchi omillar. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotda tutgan o‘rni. Salomatlik darajalari, ko‘rsatkichlari. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika. Aholining umumiy, guruhiy va populyasion salomatligi. Sog‘lom turmush tarzining, sportning, shaxsiy gigiyenaning salomatlikka ta’siri.	4	4 N	1

2	**Sog‘lom turmush tarzi va uning salomatlikni shakllantirishdagi ahamiyati. Insonlarni individual xususiyatlari, organizm rezervlari va adaptatsiya.**	Insonning yashash muhitini shakllantirilishi uning valeologik madaniyati, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy bosimning ta’siri.Bolalar doimo o‘sib, rivojlanib borishi tufayli ularga har bir davrida shaxsiy xususiyatlardan tashqari alohida morfologik, fiziologik va psixologik xususiyatlari. Ontogenez haqida tushuncha. Ontogenezning uchta davri: tayyorlov; homila davri (homila rivojlanishi); tug‘ilgandan keyingi (postnatal rivojlanish) yoki bolalik.	4	4 N	2
3	**Ritorika (nutqning ahamiyati)**	Ritorika haqida tushuncha, uning turlari va xususiyatlari. Muloqot haqida tushuncha. Muloqot turlari, darajasi va vositasi. Mantiqiy fikrlash haqida tushuncha va uning qonuniyatlari. Sanitariya ma’orifi tushunchasi. “Salomatlik” instituti maqsad va vazifalari.	2	2 N	1
4	**Sog‘lom turmush tarzini shakllanitirish bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlarda tibbiyot xodimlari etika va deontologiyasi.**	Tibbiyotda vrach-o‘rta tibbiy xodim munosabatlaridagi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Tibbiyotda o‘rta tibbiy xodim-bemor munosabatlaridagi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.	2	2 N	2
5	**Sog‘lom hayot tarzini shakllantirishga individual yondashuv tamoyillari.**	Sog‘lom turmush tarzi tushunchasi, uning asosiy maqsadi, vazifalari va tarkibiy qismlari.Sog‘lom turmush tarzining oila a’zolari salomatligiga ta’siri. Dispanser ko‘rigi haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari. Inson salomatligini mustahkamlashga qaratilgan standart va algoritmlar to‘g‘risida tushuncha. Maqsadli guruhlarni aniqlash Aholining turli guruhlari salomatligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash. “O‘spirinlik davri” “Yoshlar” “Katta yoshdagilar” “Qariyalar va uzoq umr ko‘ruvchilar” maqsadli guruhilarining ma’naviy, psixologik, tibbiy va jismoniy aspektlari.	6	6 N	2
6	**Aholi orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda**	Inson salomatligi. Ijtimoiy va shaxsiy salomatlik. Aholi salomatligining ko‘rsatkichlari. O‘zbekiston Respublikasining aholi salomatligini muxofaza qilish va saqlash bo‘yicha asosiy me’yoriy hujjatlar.			

	hamshiraning o‘rni.	Salomatlikka ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar (ijtimoiy, tabiiy va irsiy). Sog‘liqqa xavf tug‘diruvchi omillar (noto‘g‘ri ovqatlanish, gipodinamiya). Oilada va jamoada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish usullari va ularni targ‘ibotini tashkil qilish. Ekologiyaning salomatlikka, yosh avlodning o‘sib ulg‘ayishdagi ta’siri. Ekologik muhitning ta’siri natijasida yuzaga kelayotgan kasalliklar haqida ma’lumot. Irsiy kasalliklar. Salomatlik darajasini baholashda qo‘llaniladigan populyatsion dasturlarni yaratish. Aholi salomatligini nazorat qilishda qo‘llaniladigan sifat va miqdor ko‘rsatkichlar: individual, guruhli. «Salomatlik kodeksi» sog‘lom hayot garovi	4	2 N 2 A	2
7	**Ratsional ovqatlanishning valeologik tamoyillari Sog‘lom va tartibli ovqatlanish madaniyatini shakllantirish**	Ratsional ovqatlanish — kasallikning oldini olish omilidir. Ratsional ovqatlanishning sog‘liqqa ta’siri. Ratsional ovqatlanishga bo‘lgan asosiy talablar. Muvozanatlashgan va sog‘lom ovqatning asosiy negizlari. Ovqatlanish rejimi buzilganda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar. Bolalarni, homilador ayollarni, o‘rta yoshdagilarni va qariyalarni ovqatlantirish. Aqliy va jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchi kishilarning ovqatlanishi. Ratsional ovqatlanishda milliy taomlar o‘rni.	4	4N	2
8	**Psixoemotsional holatning roli va valeologik ahamiyati Antistress dasturlar yaratish**	Aqliy va jismoniy mehnat qiluvchi kishilarning psixoemotsional holati. Psixologik ta’sir — davolash usuli sifatida. Odam organizmiga psixoemotsional holatning ta’siri. Psixoemotsional zo‘riqishlar. Antistress haqida tushuncha. Antistress dasturlar yaratish. 2019-2025 yillarda O’zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida. PQ- 4190 13.02.2019	4	2 N 2 A	2
9	**Jismoniy tarbiyaning roli va valeologik ahamiyati. Yoshiga, jinsiga va salomatlik darajasiga munosib jismoniy faollik**	Jismoniy tarbiyaning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ta’siri. Jismoniy mashqlar turlarini va inson a’zolariga ularning ta’siri, chiniqtirishning salomatlikka ta’siri, asosiy qoidalari, turlari va vositalarini. Jismoniy tarbiya — salomatlik garovi. Jismoniy mashq qilishning asosiy negizlari. Mashg‘ulotlarga individual yondashish, o‘z-o‘zini nazorat qilib borish. Jismoniy mashg‘ulot — davolash usuli sifatida. Odam organizmiga jismoniy mashg‘ulotlarning ta’siri. Soglom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida. PF- 6099 30.10.2020	2	2 N	2

10	**Jinsiy va repoduktiv salomatlikning valeologik ahamiyati**	Jinsiy va reproduktiv salomatlik haqida tushunchalar. Reproduktiv huquq xaqida tushunchalar, reproduktiv salomatlikni muhofaza qilishdagi tamoyillar. Tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirish tushunchasi. Sog‘lom bola tug‘ilishini ta’minlash, jismoniy, sog‘lom va ruhiy rivojlangan avlodni tarbiyalash asoslari. Reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish tamoyillari. Xomilador ayollar salomatligini yaxshilash va sog‘lom bola tug‘ilishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar: oila, jamiyat, davlat. Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to’g’risida. O’QR-558 11.03. 2019	2	2 N	1
11	**Balog‘at yoshi haqida – ruhiy, jismony va jinsiy rivojlanish davri. Yoshlarda jinsiy tarbiyava madaniyatni shakllantirish**	Balog‘atga yetmagan qizlar organizmida rivojlanish davrlardagi o‘zgarishlar va ular salomatligiga ta’sir etuvchi omillar.Balog‘atga yetmasdan turmushga chiqish va homilador bo‘lishning zararli oqibatlari va oldini olishning ahamiyati. Erta homiladorlik va tug‘ruqlarni oldini olish. Yoshlarda jinsiy madaniyatni shakllantirish yo‘llari. Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko’rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko’lamini yanada kengaytirish to’g’risida. PQ -4513 08.11.2019	2	2 N	1
12	**Xulq atvor omillariga ta’sir etishni valeologik yondashuvi**	Xulq-atvor haqida tushuncha. Xulq-atvorning inson salomatligiga ta’siri. Insonning salomatligiga salbiy ta’sir etuvchi xulq-atvor omillari va ularni oldini olish chora-tadbirlari.	2	2 N	1
13	**Giyohvandlikni oldini olishda zamonaviy valeologik yondoshuvlar. Ichkilikbozlikni oqibatlari hamda uni oldini olishning chora-tadbirlari**	Aholi salomatligiga giyohvandlikning ta’siri. Muammoni yechish yo‘llari. Giyohvandlikni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar. Giyohvandlikni rivojlanishida ijtimoiy omillarning ahamiyati. Giyohvand moddalarni iste’mol qilish belgilari. Giyohvandlik profilaktikasi. Ichkilikbozlik – inson xulq-atvori muammosi sifatida. Aholining salomatligiga ichkilikbozlikning ta’siri. Ichkilikbozlikni oldini olishning zamonaviy yo‘nalishlari. Ichkilikbozlikni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar. Ichkilikbozlikni rivojlanishida ijtimoiy omillarning ahamiyati.	4	4 N	2
14	**Tamaki mahsulotlarini chekishning oqibatlari hamda uni oldini olishning chora-tadbirlari**	Aholining turli guruhlari orasida tamaki mahsulotlarini chekishning oldini olish chora-tadbirlarini, tamaki mahsulotlarini chekishni rivojlanishida turli omillarning ahamiyati. Tamaki mahsulotlarini chekish aholining salomatligiga ta’siri. Tamaki mahsulotlarini chekishni oldini olishning zamonaviy yo‘nalishlari va dasturlari.	2	2 N	1

15	**OIV/OITS muammolarini oldini olishda valeologik yondashuvlar**	OIV/OITS – inson xulq-atvori muammosi sifatida. Aholining salomatligiga OIV/OITSni ta'siri. OIV/OITSni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. OIV/OITSni rivojlanishida ijtimoiy omillarning ahamiyati. OIV/OITSni oldini olishning zamonaviy yo'nalishlari va dasturlari. O'zbekiston Respublikasida odam immunitet tanqisligi virusi tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha yoshlar faolligida olib boriladigan tizimli targ'ibot tadbirlari konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. VMQ-84 21.02.2022	4	2 N 2 A	2
Jami			**48**	**N A**	**24**

3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarinibaholash

O'quv dasturi asosida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriklardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga muvofiq bo'lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

Prezident asarlari:

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent – "O'zbekiston" 2018.
2. Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" Toshkent – "O'zbekiston" 2018.
3. Shavkat Mirziyoyev «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent – "O'zbekiston" 2016.
4. Shavkat Mirziyoyev «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent – "O'zbekiston" 2017.

Asosiy adabiyotlar

1. Irgashev Sh.B. "Medisinskaya valeologiya".Tashkent, 2012
2. Irgashev Sh.B. "Valeologiya". Toshkent, 2015

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sayfiddin Faxriddin o'g'li. Valeologiya asoslari salomatlik yohud uzoq umr ko'rish omillari. Toshkent, 2007
2. Irgashev Sh.B. «Valeologicheskiye prinsipы rasionalnogo pitaniya». Tashkent – 2010 g. Metodicheskiye rekomendasii

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

ANALITIK KIMYO
fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikasiya nomi: **Tibbiy profilaktika ishi feldsheri**

O‘quv rejadagi tartib raqami: **2.01**

Ajratilgan soat: **72**

Toshkent -2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan.
TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchilar:

U.M.Tulyaganova 2–son Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatlik texnikumi o’qituvchisi
A.M. Djalilov 2–son Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatlik texnikumi o’qituvchisi

Taqrizchilar:

M.Fatxullayeva Toshkent Farmasevtika instituti, “Analitik kimyo kafedra mudiri, dotsent.

S.A Abduraxmonova 2–son Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatlik texnikumi o’qituvchisi,
“Farmatsiya” kafedra mudiri.

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar.

O‘quv dasturining	**Analitik kimyo**

nomi	
Ajratilgan soat	72
Mavzular soni	14
Dasturning maqsadi	O‘quvchilar moddalarni kimyoviy tarkibini, xossalarini, ularni sifat va miqdor jihatdan analiz qilish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	- fanga oid nazariy va amaliy bilimlarni o‘rgatish; - moddalar tarkibini, sifatini, mikdorini aniklash.
Bilim	- sifat analiz usullari, sinflanishi; - eritmalar konsentrasiyalarini ifodalashga oid masalalarni yechimi; - oksidlanish-qaytarilish reaksiya-tenglamalarini tuzishni bilish; - dori moddalar tarkibidagi qo‘shimchalarni aniqlash usullari. - Miqdor analiz usullari, sinflanishini; -Gravimetrik analiz, titrimetrik analiz, oksidimetriya, cho’ktirish va kompleks hosil qilish usullarini ***bilish kerak:***
Ko‘nikma	-Kimyoviy analiz tekshirish usullarini; - foiz, molyar, normal, molyal konsentratsiyali eritmalar tayyorlashni; - formulalar bo’yicha hisoblashni; - analiz uchun zarur jihozlardan foydalanishni; - guruh va xususiy reaktivlarni to’gri tanlashni va ulardan foydalanishni; -reaksiyalarni tomchi, yarim mikroanaliz va mikrokristal loskopik usullarni to’g’ri bajara olishni; -analizdagi sifat reaksiyalarining tenglamalarini molekulyar, ionli va qisqartirilgan ionli tenglamalarini tuza olishni; -I-VI-analitik guruh kationlarining tibbiyotdagi ahamiyatini o’rganishni; -anionlar klassifikatsiyasi va ularning guruh reaktivlarini o’rganishni; -sifat reaksiyalarini o’tkazish va ularni tahlil qilishni; -analiz natijalarini orasta bajarishni; -analizdagi sifat reaksiyalarining tenglamalarini molekulyar, ionli va qisqartirilgan ionli tenglamalarini tuza olishni; - natijalar asosida noma’lum moddani aniqlashni; -I-III-analitik guruh anionlarinning tibbiyotdagi ahamiyatini o’rganishni; -laboratoriya jihozlari va asboblardan foydalanishni; -analitik va elektron tarozilarni ishlatishni; -qizdirish va kuydirish asboblaridan foydalanishni -doimiy og’irlikka keltirishni; -analiz natijalarini to’g’ri hisoblashni; -o’lchov asboblari, makro va mikro byuretkalarda ishlashni; -eritma tayyorlash va tegishli hisoblashlarni bajara olishni; -titrlash tartibini o’rganishni; -tuzatish koeffisenti, normalligini va titrini aniqlashni; - permangonometrik aniqlash usullarini qo’llashni; - titrlash jarayonini amalga oshirishni; -yodometrik aniqlash usullarini qo’llashni; - titrlash natijalari asosida hisoblashni; - kaliy bromat ishchi eritmasini tayyorlashni;

	- usul mohiyatini, titrlangn eritmalarni tayyorlashni; - modda tarkibini miqdor jihatdan aniqlashni; - titrlash texnikasini, ekvivalent nuqtani aniqlashni; - indicator tanlashni; - natriy nitritning ishchi eritmasini tayyorlahni; - eritmaning titrini aniqlashni; - cho'ktirish usullarini ajrata olishni; - argentometriya usuli va bu usul bo'yicha aniqlashni; - Mor, Fol'gard, Fayans usullari bo'yicha aniqlashni; - indikator tanlashni, hisoblash natijalarini tahlil qilishni; - eritmalar tayyorlashni, kompleksonlarni ajrata bilishni; - kompleksonometrik titrlash sharti va texnikasini; -kompleksoometrik indikatorlarni ajrata olishni; - buffer eritma tayyorlashni; - nazorat eritmani titrlash va natijalarini hisoblashni; - fotokolorimetrda ishlash, asbobni ishga tayyorlashni; - FEK yordamida eritmadagi modda konsentratsiyasini o'lchashni; - refraktometr bilan ishlash qoidalarini qo'llashni; - eritma muhitini pHmetr bilan aniqlashni; - eritma pHini o'lchashni; - tekshirish natijalari asosida hisoblashni; - internet saytlaridan yangi ma'lumotlar asosida ma'ruzalar, yig'ma al'bomlar tayyorlashni; - o'quv laboratoriya xonalarida ko'nikmalarni ketma-ketlikda tog'ri bajarish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***
O'quv rejaga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lgan fan nomi	Mikrobiologiya Radiasion gigiyena Ovqatlanish gigiyenasi Dezinfeksiya ishi Tibbiy parazitologiya Kommunal gigiyena
O'qitishni tashkiliy shakli	N-Nazariy ta'lim; L-Laboratoriya ishi; MX-Maxsus xonalarda mashg'ulot
Dasturga qo'yiladigan talab	Majburiy
O'qitish tili	Guruxda tayinlangan dars tili asostda
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash	Yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriq

O‘quv dasturi mazmuni.

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘ qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil Ta’ lim
1	**Kirish. Analitik kimyo fanining maqsadi va vazifalari, mutaxasislikdagi ahamiyati**	Analitik kimyo fani ahamiyati. Qisqacha tarixiy ma’lumot. Vatani miz va chet el olimlarining fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari. Analitik kimyoning mutaxasislikdagi ahamiyati. Fanning asosiy bo‘limlari to‘g‘risida umumiy ma’lumot.	2	N-2	1
2	**Sifat analizi usullari**	Sifat analizi usullariga qisqacha tavsifnoma berish. Fizik–kimyoviy, fizikaviy quruq va xo‘l usullar bilan tekshirish. Analitik reaksiyalar, ularga qo‘yiladigan talablar. Kation va anion klassifikasiyasi. Analizda ishlatiladigan sifat reaksiyalari. Analiz tartibi va uning bajarilishi. Xususiy va guruh reaktivlari. Analitik kimyo laboratoriyalarda ishlash qoidalari, texnika xavfsizligi.	6	N-6	3
3	**Turli konsentrasiyali eritmalar tayyorlash. Eritmalar tayyorlashdagi hisoblar.**	Eritmalar haqida umumiy tushuncha. Eritmalar konsentrasiya larini ifodalash. Bir konsentrasiya ifodasidan boshqa konsentrasiya ifodasiga o‘tish va ular asosida hisoblashlar. Eritma turlari. Massa qism, yani foiz konsentratsiyali eritma, molyar va normal konsentratsiyali eritmalar. Molyal konsentratsiyali eritma. Formulalar bo’yicha hisoblash. Eritmaning titrini aniqlash. Kislota eritmalarini tayyorlashdagi hisoblar. Eritmalar konsentratsiyalari bo’yicha masalalar yechish, xossalarni laboratoriya tajribalarida o’rganish.	6	N-6	3
4	**Oksidlanish – qaytarilish reaksiyalari**	Oksidlanish–qaytarilish reaksiya larining mazmuni, turlari; molekulalararo, ichki molekulyar va disproporsiyalanish reaksiyalari. Oksidlanish–qaytarilish reaksiyalarni elektron balans usulida tenglashtirish. Oksidlanish–qaytarilish reaksiyalarni yarim reaksiyalar usulida tenglashtirish. Oksidlovchi va qaytaruvchining ekvivalentini aniqlash. Yakunlanmagan tenglamalarni tenglashtirish.	6	N-6	3
5	**I, II, III, IV, V, VI - analitik guruh**	Birinchi analitik guruh kationlariga sifat reaksiyalari. Kationlarning klassifikasiyasi. Kaliy, natriy va ammoniy kationlariga sifat reaksiyalari. Kaliy va	8	L-8	4

	kationlari	natriy kationi ga alangani bo‘yash reaksiyalari. Birinchi analitik guruh kationlari ning tibbiyotdagi ahamiyati. Ikkinchi analitik guruh kationla riga sifat reaksiyalari. Guruh reaktivi, xlorid kislota, sulfat kislota, kaliy yod va kaliy xromat yoki natriy xromat bilan reaksiyalari. Kumush kationiga, xlorid kislota, kaliy yodid, kaliy xromat reaktivlari bilan reaksiyalarini bajarish. Ikkinchi analitik guruh kationlarining tibbiyotdagi ahamiyati. Aralashma ning analizi. Uchinchi analitik guruh kationlariga sifat reaksiyalari. Bariy kationiga sulfat kislota, ammoniy karbonat, kaliy xromat, kaliy dixromat va ammoniy oksalat birikmalarining ta’siri. Alangani bo‘yash reaksiyasi. Kalsiy kationiga suyultirilgan sulfat kislota, ammoniy karbonat, ammoniy oksalat, kaliy geksasianoferrat (III) bilan reaksiyalari. Alangani bo‘yash reaksiyalari. Uchinchi analitik guruh kationlarining tibbiyotdagi ahamiyati Aralashmaning analizi. To‘rtinchi analitik guruh kationlariga sifat reaksiyalari. Xrom (III)-kationi, o’yuvchi ishqor, vodorod peroksid, ammoniy sulfid bilan reaksiyalari. Rux kationi, o’yuvchi ishqor, kaliy geksasiano ferrat(III), geksasianoferrat (II), ammoniy sulfid bilan reaksiyalari. Mikrokristalloskopik va quruq usul reaksiyalari. Alyuminiy kationi, o’yuvchi ishqor, ammoniy xlorid, ammoniy sulfid, alizarin 1,2–dioksiantaxinon bilan reaksiyalari. To‘rtinchi analitik guruh kationlari ning tibbiyotdagi ahamiyati. Aralashmaning analizi. Beshinchi analitik guruh kationlariga sifat reaksiyalari. Temir (II)-kationiga xos reaksiyalar: o’yuvchi ishqor, kaliy geksasiano ferrat (III), ammiakli suv, ammoniy sulfid, kaliy permanganat reaktivlari bilan reaksiyalari. Temir (III)-kationi reaksiyalari: o’yuvchi ishqor, kaliy rodanit, kaliy geksasianoferrat (II), ammoniy sulfid, kaliy yodid va natriy asetati reaktivlari bilan reaksiyalari. Marganes (II) kationi reaksiyalari: o’yuvchi ishqor, vodorod peroksid, qo‘rg‘oshin (IV)-oksid, ammoniy sulfid reaktivlari bilan reaksiyalari. Beshinchi analitik guruh kationlarining tibbiyotdagi ahamiyati. Aralashmaning analizi. Oltinchi analitik guruh kationlariga sifat reaksiyalari. Simob (II) kation lari reaksiyalari vodorod sulfid, ishqorlar, kaliy yodid, ammiak eritmasi bilan reaksiyalari. Mis (II) kationlari reaksiyalari: ishqorlar, ammiakli suv, kaliy geksasianoferrat (II), kaliy yodid bilan reaksiyalari. Oltinchi analitik guruh kationlari ning			

		tibbiyotdagi ahamiyati.Barcha analitik guruh kationlari aralashma larining analizi.			
6	**I, II, III analitik guruh anionlari**	Birinchi analitik guruh anionlari sifat reaksiyalari. Sul'fat anionining bariy xlorid bilan reaksiyalari. Tiosulfat anionining xlorid kislota, kumush nitrat va yod bilan reaksiyalari. Borat anionining etil spirti va konsentrlangan sulfat kislota, bariy xlorid bilan reaksiyalari. Fosfat anioniga kumush nitrat, magnizial aralashma, ammoniy molibdat bilan reaksiyalari. Sulfat anionining xlorid kislota, bariy xlorid, yod eritmasi bilan reaksiyalari. Karbonat (gidrokarbonat) anioniga xlorid kislota, magniy sulfat, fenoftalein bilan reaksiyalari. Anionlarga xos sifat reaksiyalarni bajarish. I-analitik guruh anionlarining tibbiyotdagi ahamiyati Ikkinchi analitik guruh anionlari ga sifat reaksiyalari. Xlorid anioniga kumush nitrat bilan reaksiyasi. Bromid anioniga kumush nitrat, xlorli suv bilan reaksiyalari. Yodid anioniga kumush nitrat, xlorli suv temir (III) xlorid bilan reaksiyalari. Sulfid anioniga kumush nitrat, xlorli kislota bilan reaksiyalari. Rodanit anioniga kumush nitrat, temir (III)-xlorid bilan reaksiyalari. Ikkinchi analitik guruh anionlarining tibbiyot dagi ahamiyati Uchinchi analitik guruh anionlari ga sifat reaksiyalari. Nitrat anioniga difenilamin, kaliy permanganat, temir (II)-sulfat bilan reaksiyalari. Nitrat anioniga difenilamin, antipirin, suyultirilgan sulfat kislota, temir (II)-sulfat, kaliy permanganat, kaliy yodidlar bilan reaksiyalari. Asetat anioniga etil spirti sulfat kislota temir-(III) xlorid bilan reaksiyalari. Uchinchi analitik guruh anionlarining tibbiyotdagi ahamiyati. Barcha guruh anionlari aralashma ning analizi.	4	L-4	2
7	**Dori moddalardagi qo'shimchalarni aniqlash, xususiy moddani tekshirish.**	Dori moddalari tarkibiga kiruvchi yot moddalarning qo'shilib qolish manbalari va sabablarini aniqlash. Dori moddalar sifatini nazorat qilish va tarkibi qay darajada toza ekanligini aniqlash. Farma sevtik taxlilida dori moddalarni sintez qilishning texnologik jarayonida ishlatiladigan asbob uskunalardan foydalanish. Dori darmonlarning barqarorligi va ularni saqlash jarayonida turli omillar ta'sirida o'zgarishlarni, dori modalar miqdorini taxlil qilish usullari. Xususiy moddani tekshirish usullari. Etalon eritmalarni tayyorlash, kalsiy tuzlari qo'shimchasini qo'rg'oshin (II) asetat–ioni etalon eritmasini tayyorlash, o'quvchilar ning har biriga bitta kation va bitta aniondan iborat noma'lum tuz eritmasi analiz uchun berish. Xususiy moddani tekshirish.	2	N-2	1
8	**Miqdor analizi**	Miqdor analizning vazifasi va uning usullari. Miqdor analizida ishlatiladigan o'lchov idishlari. Gravimetrik,	2	N-2	1

		hajmiy analiz usullari, fotometriya usullari. pHni aniqlash va boshqa fizik–kimyoviy analiz vositalari haqida umumiy ma'lumot. Miqdor analizi laboratoriyasida ishlash qoidalari. Miqdor analizida foydalaniladigan asosiy hisoblash formulalar.			
9	**Gravimetrik (tortma) analiz usullari.**	Gravimetrik analiz usulining mohiyati. Gravimetrik analiz usulida ishlatiladigan asboblar va reaktivlar. Gravimetrik analiz usulining olib boorish jarayonlari. Gravimetrik analiz usulining olib borilishi uchun qo'yiladigan talablar. Cho'ktirish, cho'kmani ajratib olish, qizdirish, quritish, tarozida tortish jarayonlari. Hisoblash formulalari asosida hisoblash. Temir (III)-xlorid eritmasi tarkibidagi temirning miqdorini aniqlash. Analitik tarozilarda ishlash texnikasi. Cho'kmaga tushirish usulining mohiyati va tajribani bajarish tartibi. Natijalar asosida hisoblash. Bariy xlorid kristallari tarkibidagi kristallizasion suvni aniqlash. Tajribani olib borish tartibi mohiyati. Tajriba natijalari asosida hisoblash.	6	N-4 L-2	3
10	**Titrimetrik (hajmiy) analiz usullari. Kislota–asosli (neytrallanish) titrlash usuli**	Titrimetrik (hajmiy) analiz haqida umumiy tushuncha. Titrlash, ekvivalent nuqta, titrlashning oxirgi nuqtasi, indikatorlar, ularning mohiyati. Titrlash usullari; to'g'ri, teskari, o'rinbosarni titrlash usuli. Hajmiy analiz usullar; neytrallanish oksidimetriya, cho'ktirish va kompleksonometriya usullari haqida qisqacha ma'lumot. Ishchi eritmalar tayyorlashda qo'yiladigan talablar. Hisoblash formulalari. Titrimetrik analiz usuli bo'yicha masalalar yechish va mashqlar bajarish. Kislota-asosli (neytrallanish) titrlash usulining asosiy nazariy mohiyati. Indikatorlar, ularni tanlash. Usul titrantlari. Titrlash tartibi, texnikasi. Fiksanal eritma tayyorlash va ulardan foydalanish. Eritmalar tayyorlash bo'yicha hamda titrlash natijalari asosida masalalar yechish. Alkalimetriya. Titrlangan eritmalar tayyorlash, ularning tuzatish koeffisentini, normalligini va titrini aniqlash. Nazorat eritmasini aniqlash. Kislota-asosli (neytrallanish) titrlash usulining mohiyati. Indikatorlar, ularni tanlash. Usul titrantlari, titrlash tartibi, texnikasi. Alkalimetriya, natriy tetroborat eritmasini tayyorlash. Xlorid kislota eritmasini tayyorlash, ularning tuzatish koeffisentini, normalligini, va titrini aniqlash, nazorat eritmani tayyorlash. Titrlash natijalari asosida hisoblash. Asidometriya, analiz eritmalari ni tayyorlash, ishchi eritmani, koeffisiyentini, normalligini va titrlarini aniqlash. Titrlash natijalari asosida hisoblash. Suvsiz muhitda kislota–asosli titrlash. Suvsiz titrlashda	8	N-6 L-2	4

		ishlatiladigan eritmalar, erituvchi tanlash. Amfoter erituvchilarida sodir bo'ladigan kislota-asosli reaksiyalari. Suvsiz muhitda titrlashning farmasevtik analizda ishlatilishi.			
11	**Oksidlanish – qaytarilish (oksidimetriya) usullari**	Oksidlanish-qaytarilish (oksidimetriya) usullarining mohiyati. Oksidlovchi va qaytaruv chilarning ekvivalent massasini aniqlash. Oksidimetriya usullarining ishlatish sohalari. Permanganometriya, yodometriya bromatometriya, nitrotometriya usullari. Indikatorlar tanlash. Titrlash natijalari asosida hisoblash formulalari. Permanganometriya usuli asosida kaliy permanganat ishchi eritmasini tayyorlash, Oksalat kislota eritmasini tayyorlash. Kaliy permanganat eritmasini titrini aniqlash. Mor tuzi tarkibidagi temir (II) miqdorini aniqlash. Eritmadagi vodorod peroksidning miqdorini aniqlash. Oksidlovchi va qaytaruv chilarni aniqlash. Yodometriya usuli bo'yicha natriy tiosulfat eritmasini tayyorlash. Kaliy dixromat eritmasini tayyorlash, indikator tayyorlash. Kaliy dixromat eritmasi bo'yicha natriy tiosulfat eritmasini, konsentratsiyasini aniqalsh. Mis kuporosi tarkiidagi misni aniqlash. Eritmadagi erkin yodni aniqlash. dorini aniqlash tartibi. Titrlash natijalari asosida hisoblashlar. Bromotometriya usuli. Kaliy bromat ishchi eritmasini tayyorlash. Bromat-bromid usuli bo'yicha titrlash. Streptosid miqdorining aniqlash tartibi va hisoblashlar. Nitritometriya usuli mohiyati, natriy nitritning ish eritmasini tayyorlash. Streptosid miqdorini aniqlash, indikator tanlash. Titrlash usuli va titrlash natijalarini hisoblash. Bromatometrik va nitritometrik analiz natijalarini taqqoslash.	16	N-12 L-4	8
12	**Cho'ktirish usullari. Argentometriya.**	Cho'ktirish usullaning mohiyati. Cho'ktirish usulida qo'llaniladigan reaksiyalarga qo'yiladigan talablar. Mor usuli, usul mohiyati, titranti, indikatori, ekvivalent nuqtani aniqlash. Bu usul bo'yicha xloridlarni aniqlash. Folgard usuli, usul mohiyati. Usul asosida modda miqdorini aniqlash. Bu usul bo'yicha xloridlarni aniqalsh. Fayans usuli, usul mohiyati, usul asosida kaliy yodid miqdorini va preparat tarkibidagi natriy xloridning foiz miqdorini aniqlash. Mor usuli, usul mohiyati, turlari va qo'llanilishi. Mor usulining titranti, indikatori. Ekvivalent nuqtani aniqlash. Mor usuli bo'yicha modda miqdorini aniqlash. Nazorat eritmasidagi natriy xlorid miqdorini aniqlash. Fol'gard usuli, usulning mohiyati, usul titrantlarini tayyorlash. Titrlash usuli, indikator tanlash. Kaliy	2	N-2	1

		radonid, kumush nitrat, ishchi eritmalari va indikatorning eritmasini tayyorlash. Kaliy radonid eritmasini aniq titrini tuzatish koeffisentini va normalligini aniqlash. Folgard usuli bo'yicha modda miqdorini aniqlash. Fayans usuli, usulning mohiyati. Adsorbsion indikatorlar ning ishlatlishi. Ekvivalent nuqtani aniqlash. Eritmalar tayyorlash. Fayans usuli bo'yicha modda miqdorini aniqlash.			
13	**Kompleksonom et riya**	Kompleksonometriya usuli haqida tushuncha, uni indikatorlari, ishchi eritmalarini tayyorlash qoidalari. Kalsiyni aniqlash usuli. Kompleksonometriya uning mohiyati, indikatori, ishchi eritmalarini tayyorlash. Usul bo'yicha modda miqdorini aniqlash. Trilon B eritmasini tayyorlash. Kompleksonometrik titrlash shartlari. Kompleksonomet rik indikatorlar va ularning turlari. Titrlash usullari. Magniy sulfat preparati eritmasini tayyorlash. Nazorat eritmadagi kalsiy xlorid miqdorini aniqlash. Bufer eritma tayyorlash. Indikator eritmasini, trilon B (Komplekson III) eritmasini tayyorlash. Nazorat eritmadagi kalsiy xlorid miqdorini aniqlash. Titrlash natijalari asosida hisoblashlar. Kompleksonometrik titrlash usulining ishlatilishi.	2	N-2	1
14	**Fizik–kimyoviy (instrumental) tekshirish usullari.**	Fizik–kimyoviy tekshirish usullari. Xromatografiya, adsorbsion taqsim lanish usullari. Xromatografiya ajratish usullari. Sorbent yupqa qatlam. Gazli xromatografiya. Fotometrik tekshirish usullari. Fotoelektrokolorimetriya, nefelomet riya. Eritmalarning yorug'likni yutish qonunlarini aniqlashga doir misollar. Flyurometriya usulini mohiyati, spektoroflyurometriya ning ishlash prinsipi. Potensometriya usuli. pH–metr yordamida eritmaning muhitini aniqlash. Bufer eritma bilan asbob ning sozligini tekshirish. Refraktometrik tekshirish usuli. Refraksiya sindirish koeffisiyenti, uning turli xil faktorlarga bog'liqli gi. Fotoelektrokolorimetrda eritmada gi modda konsentratsiyasini aniqlash. Fotoelektrokolorimetrning umumiy tuzilishi va ishlash prinsipi, o'lchashdagi asosiy qonuniyatlar. Asbobni o'lchashga tayyorlash va o'lchash. Fotoelektrokolorimetr yordamida eritmadagi temir (III), mis (II) ionlari va ammiakning miqdorini aniqlash. Analiz natijalari asosida hisoblashlar. Refraktometrda eritmadagi modda konsentrasiyasini aniqlash. Refraktometrik usulning asosiy fizik–kimyoviy asoslari.Refraksiya. Yorug'likning sindirish koeffitsientini	2	N-2	1

		konsentrasiyaga bog‘liqligi. Refraktometr turlari, ularni ishlashga tayyorlash. IRF–54 refraktometrida kaliy xlorid,magniy sulfat, glyukoza eritmalarini tekshirish. Analiz natijalari asosida hisoblashlar. pH–metr yordamida eritma pH–ini aniqlash. Eritma muxitining qiymatlari. pH–metrining ishlash prinsipi, tuzilishi va ularni analizga tayyorlash. Bufer eritma yordamida pH-metrini to‘g‘rilash. Tekshirila yotgan nazorat eritma pH–ini aniqlash.			
		Jami	**72**	**N-52 L-20**	**36**

4.Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Prezident asarlari:

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” Toshkent – “O‘zbekiston” 2020 y.
2. Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.Toshkent – “O’zbekiston” 2019 y
3. Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y
4. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y

Asosiy adabiyotlar:

1. M.A.Azizov «Gigiyena» Toshkent, «O‘qituvchi» nashriyoti, 2003 yil.
2. A.Abdukarimov, A.G‘ofurov, K.Nishonboyev, D.Xamidov, B.Toshmuxamedov «Biologiya» (rus). Toshkent, «Sharq» nashriyoti, 2008 yil.
3. B.Duschanov, S.S.Solixo‘jayev, Sh.T.Iskandarova «Umumiy gigiyena». Toshkent, «Ibn Sino» nashriyoti, 2001 yil.
4. A.Rafiqov, X.Vaxobov, A.Qayumov, Sh.Azimov «Amaliy geografiya» Toshkent, «Sharq» nashriyoti, 2007 yil.
5. I.Holliev, A.Ikromov «Ekologiya». Toshkent, «Mehnat» nashriyoti, 2001 yil.
6. I.Xolliyev - «Ekologiya», «Talqin», 2004 yil.
7. A.G‘ofurov, K.Nishonboyev, J.Xamidov, B.Toshmuxammedov, A.Abdukarimov, Z.Usmonova, «Biologiya», «Sharq» nashriyoti, 2007 yil.
8. X.S.Yuldoshev - «Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari», «Mehnat» 2003 yil.
9. O.Eshonqulov, J.X.Xamidov, A.A.Bekmuxammedov, «Biologiya», «Cho‘lpon» nashriyoti, 2006 yil.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. O‘zbekiston ekologik xarakati Dasturi to‘g‘risida qo‘llanma. Toshkent, “Chinor ENK” ekologik nashriyot kompaniyasi, 2009 yil.
2. O‘zbekiston ekologik xarakati: savollar va javoblar, Toshkent, 2009 yil.
3. “Sihat salomatlik” jurnali. “Sharq”nashriyoti jurnali.
4. “Sog‘lom avlod” va “Ona va bola” – davlatdasturlari.
5. “Hamshira” O‘zbekiston Yoshlari “Kamolot” jamg‘armasi “Yangi asr avlodi” tibbiy-ma’rifiy jurnali.
6. “O‘zbekistonda Sog‘liqni saqlash”, “Zdravooxraneniye Uzbekistana” ro‘znomasi.

Internet saytlar:

www.med.uz, www.ziyonet.uz, www.lex.uz, www.referat.uz. www.gigiyena.uz.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

MIKROBIOLOGIYA
fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikasiyalar nomi: **Tibbiy profilaktika ishi feldsheri**

O‘quv rejadagi tartib raqami: **2.04**

Ajratilgan soat: **96**

Toshkent – 2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi: X.A. Nazarova 2 – son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi “Gigiyena va laboratoriya” kafedra mudiri

Taqrizchilar: Z.Z.Kadirov Yunusobod tumani Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi saqlash qo’mitasi bo’limi boshlig’i

I.U.Baxromov 2 – son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi O‘IB direktor o’rinbosari

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Mikrobiologiya**
Ajratilgan soat	96
Mavzular soni	21
Dasturning maqsadi	«Mikrobiologiya» fani yuqumli kasalliklarini keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlar, ularning xossalari, tashqi muhitga chidamliligi, organizmga kirishi, yuqish yo‘llarini o‘rganadi, oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqadi.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	**-** o‘quvchilarda hozirgi kunda uchrab turadigan mikroorganizmlarni aniqlash, bir – biridan farqlashni shakllantiradi; **-** patogen mikroorganizmlarning xossalarini o‘rganishda bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydi; **-** kimyoterapiya va kimyoprofilaktika amalga oshirishda bilim va amaliy tayyorgarligini ta’minlaydi; **-** o‘quvchilarda mikroorganizmlar ta’sirida kelib chiqadigan kasalliklar haqida ma’lumot berishni egallaydi; - nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiq etgan holda zamonaviy asboblardan foydalanib kasalliklarga tashxis qo‘yishni amalga oshirishga zamin yaratadi; - o‘qituvchi dars jarayoniga turli interfaol usullarni tadbiq etish orqali fanga oid bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirilishiga erishiladi; - O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan chiqariladigan buyruq va qarorlar asosida ishlashga erishiladi; - organizmda yuzaga keladigan yuqumli kasalliklarini kelib chiqish sabablarini aniqlab, uni oldini olish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqiladi; - kasalliklarni oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish sanitar va epidemiolog yordamchisining vazifasi ekanligini o‘quvchilar ongiga singdiriladi.
Bilim	- mikrobiologiya fanining rivojlanish tarixi va vazifalari, faning rivojlanishiga xissa qo‘shgan olimlar, mikroorganizmlar tasnifi; - bakteriyalar morfologiyasi, bakteriyalarninghujayraviytuzilishi; - bakteriyalarning nafas olishi va oziqlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish; - fermentlar, pigment, toksin ishlabchiqarilishi; - fizik, kimyoviy, biologik omillarining mikroblarga ta’siri; - fag va antibiotiklarning ochilish tarixi va unda o‘z xissasini qo‘shgan olimlar; - antibiotiklar tasnifi va ularning ta’sir etish mexanizmi, fag va antibiotiklarni tibbiyotda ishlatilishi; - immunitet, immunitet turlari, immunitetning spesifik va nospesifik himoya omillari va turlari immunitet reaksiyalarining ahamiyati; - immunoprofilaktika va immunoterapiya uchun ishlatiladigan biopreparatlar – vaksina va zardoblarning tasnifi, ularni ishlatilishi; - stafilokokk, streptokokk va pnevmokokk, meningokokk va gonokokklarning asosiy xossalari; - ichak tayoqchasi, salmonellalar, shigellalarning asosiy xossasi;

	- odam fiziologiyasida ichak tayoqchasining ahamiyati,enteropatogen ichak tayoqchasi keltirib chiqaradigan kasalliklari, tarqalish yo‘llari; - salmonellalar, shigellalar keltirib chiqaradigan kasalliklar, tarqalish yo‘llari, kasalliklarni oldini olish va davosi; - vabo vibrioni,toun, tulyaremiya, brusellyoz va kuydirgi qo‘zg‘atuvchilarining asosiy xossasi, infeksiya manbai, tarqalish yo‘llari, kasalliklarni oldini olish va davosi; - qoqshol, gazli gangrena, botulizm qo‘zg‘atuvchilarining asosiy xossasi, infeksiya manbai, tarqalish yo‘llari, kasalliklarni oldini olish va davosi; - bo‘g‘ma, sil, ko‘kyo‘tal qo‘zg‘atuvchilarining asosiy xossasi, infeksiya manbai, tarqalish yo‘llari, kasalliklarni oldini olish va davosi; - zaxm, qaytalama tif, leptospiroz qo‘zg‘atuvchisining asosiy xossasi, tarqalish yo‘llari, kasalliklarni oldini olish va davosi; - rikketsiyalarning umumiy xarakteristikasi, asosiy xossasi; - virusologiya tushunchasi, viruslarning tasnifi, xossasi, morfologik va identifikasion xarakteristikasi; - viruslarining keltirib chiqaradigan kasalliklari, yuqish va tarqalish yo‘llari, kasalliklarni oldini olish va davosi.
Ko‘nikma	- bakteriologik laboratoriyada ish joyini tashkil qilish, tekshirish materialini ro‘yhatga olish; - mikrob kulturasidan surtma tayyorlash, fiksasiya qilish, oddiy va murakkab Gram usulida bo‘yash; - mikroskopning immersion sistemasida ishlash; - oziqa muhitlarni tayyorlash, pH ni aniqlash, sterilizasiya qilish va ularni idishlarga quyish; - oziqa muhitlariga turli xil usullarda ekish; - o‘sgan kulturalarga xarakteristika berish; - aerob va anaerob mikroblarni sof kulturasini ajratib olish; - mikroblarni fermentativ aktivligini o‘rganish uchun oziqa muhitlarni tanlash va ularga ekish; - ekilgan muhitlarni termostatga qo‘yish va termostat bilan ishlash; - zararli materiallarni zararsizlantirish, qo‘lni va ish joyini dezinfeksiyalash; - laboratoriya idishlarini sterilizasiyaga tayyorlash, sterilizasiya asboblarida ishlash; - keltirilgan materialni tekshirishga tayyorlash; - 1 milliard mikrob kulturasini saqlovchi kulturani tayyorlash; - ajratib olingan sof kulturani antibiotiklarga sezgirligini disklar yordamida (diffuz) usulida aniqlash; - immunologik reaksiyalarni qo‘yish uchun ishlatiladigan idishlarni va ingradiyentlarni tayyorlash; - taxminiy va kengaytirilgan hajm agglyutinasiya, halqa va agardagi presipitasiya reaksiyalarini qo‘yish; - tekshirish materialini olish, laboratoriyaga yuborish uchun ilova qilinadigan hujjatlarni to‘ldirish; - laboratoriya diagnostikasini amalga oshirish; - suv, havo, tuproq, oziq – ovqat, yuvindi va xirurgik bog‘lov materiallaridan sinama olish, yo‘llanma xatni yozish;

	- sinamadagi mikroblarning umumiy soni, koli—titr, koli—indeks, patogen mikroblarni aniqlash; - natija o‘qish va javob yozish**.**
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fan nomi	“Anatomiya, fiziologiya va patologiya” “Umumiy gigiyena va ekologiya” “Epidemiologiya asoslari” “Dezinfeksiya ishi” “Teri va tanosil kasalliklari” “Yuqumli kasalliklar”
O‘qitishni tashkiliy shakli	N – nazariy ta’lim; A – amaliy ta’lim; NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar; MX – maxsus xonalarda mashg‘ulot
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmala rini baholash	Yozma, og‘zaki, savol – javob, munozara, test, amaliy topshiriq. Joriy va yakuniy nazorat

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	**Mavzuning nomi**	**Mavzuning qisqacha mazmuni**	**jami**	**O‘ qitishning tashkiliy shakli**	**Mustaqil ta’ lim**
1	**Mikrobiologiya fani, uning vazifalari, rivojlanish tarixi. Mikroorganizm lar morfologiyasi.**	Mikrobiologiya fani va uning vazifasi, uning rivojlanishida o‘z xissasini qo‘shgan olimlar. Mikroorganizmlar tasnifi. Mikroorganizmlarning morfologiyasi. Bakteriyalar morfologiyasi, ularni hujayraviy tuzilishi. Bakteriologik laboratoriyani tuzilishi va jihozlanishi. Mikrobiologik laboratoriyada ishlash qoidalari. Mikroskopni tuzilishi va u bilan ishlash. Bemordan olingan tekshirish materialini ro‘yhatga olish bilan tanishish. Surtma preparatlar tayyorlash va bo‘yash. Bakteriyalarni asosiy shakllarini o‘rganish va rasmini chizish.	6	N-2 A-4	4
2	**Mikroorganizm-lar fiziologiyasi.**	Mikrob hujayrasining kimyoviy tarkibi. Mikroorganizmlarni oziqlanishi va nafas olish turlari. Mikroorganizmlarni o‘sishi va ko‘payish usullari. Mikroorganizmlarning ajratadigan moddalari. Oziqa muhitlarni tayyorlash, rNni aniqlash. Tekshirish materiallarini oziqa muhitiga ekish.Oziqa	14	N-2 A-12	4

		muhitlarida mikroblarni o‘sishi, sof kulturani ajratib olish usullari. Mikroblarning fermentativ xossasini o‘rganish. Termostat tuzilishiva u bilanishlash.			
3	**Tashqi muhit omillarini mikroorganizm larga tasiri. Dezinfeksiya va sterilizasiya.**	Mikroorganizmlargafizikaviy, kimyoviyvabiologikomillarningta’siri. Tabbiiysharoitvasun’iyta’sirotningmikroorganizmlargata’siri. Aseptika va antiseptika. Dezinfeksiyalovchi eritmalar tayyorlash. Zararli materialni zararsizlantirish. Qo‘lni va ish joyini dezinfeksiyalash. Laboratoriya shisha idishlarini sterilizasiyaga tayyorlash va ularni sterillash. Sterilizasiya asboblarida ishlash, sterilizasiya sifatini aniqlash.	6	N-2 A-4	4
4	**Bakteriofaglar va antibiotiklar. Mikroblarni antibiotiklarga sezuvchanligini aniqlash.**	Bakteriofag va antibiotiklarning ochilish tarixi, Fagning strukturasi, fag va antibiotiklarning mikrob hujayrasiga tasiri. Antibiotiklar tasnifi. Fag va antibiotiklarni medisinada ishlatilishi. Diffuz va seriyalab suyultirish usulida mikroblarni antibiotikka sezgirligini aniqlash.	6	N-2 A-4	4
5	**Infeksiyahaqida tushuncha.**	«Infeksiya» va «Infeksion jarayon» haqida tushuncha, boshqa kasalliklardan farqi. Infeksiya manbai, tarqalish yo‘llari. Infeksion jarayonning rivojlanish dinamikasi. Infeksion kasallikning va tarqalish formalari.	2	N-2	2
6	**Immunitet haqida tushuncha. Immunologik reaksiyalar.**	Immunitet, immunitet turlari. Nospesifik va spesifik omillari. Antigen va antitelolar.Immunoterapiya va immunoprofilaktika tarixi. Immunitet hosil qilish uchun ishlatiladigan preparatlar. Vaksina va zardoblar. Immunologik reaksiyalarni qo‘yish uchun ishlatiladigan idishlarni va ingradiyentlarni tayyorlash. Immunologik reaksiyalarni qo‘yish texnikasi.	6	N-2 A-4	4
7	**Patogen kokklar. Patogen kokklar chaqiradigan kasalliklar tashxisi.**	Patogen kokklarga umumiy xarakteristika. Zamonaviy tasnifi. Ularning xossalari, keltirib chiqaradigan kasalliklari. Immunitet. Davosi va profilaktikasi. Tibbiyot etikasi va deontologiyasi. Patogen kokklar chaqiradigan kasalliklarida tekshirish materialini olish va uni oziqa muhitlarga ekish, sof kulturadan surtma tayyorlash, Gram usulida bo‘yab mikroskopda tekshirish. Antibiotikka sezgirligini aniqlash.	8	N-4 A-4	4
8	**Ichak guruhi bakteriyalari. Ichak kasalliklari tashxisi.**	Ichak guruhi bakteriyalariga umumiy xarakteristika. Esherixiya, salmonella va shigella avlodi qo‘zg‘atuvchisining xossalari. Ular keltirib chiqaradigan kasalliklari. Immunitet. Davosi va profilaktikasi. Tibbiyot etikasi va deontologiyasi. Endo, Levin, VSA muhitlarini tayyorlash. Tekshirish materialini oziqa muhitlariga ekish. Sof kulturani ajratib olish, fermentativ aktivligini o‘rganish.	10	N-2 A-8	4
	O‘ta havfli va	O‘ta havfli va zoonozinfeksiyalar	4	N-4	4

9	**zoonoz infeksiyalar Vabo kasalligining tashxisi.**	qo‘zg‘atuvchilariga umumiy xarakteristika, ularningxossalari. Epidemiologiyasi. Patogenezi. Immunitet. Davosi va profilaktikasi. Tibbiyot etikasi va deontologiyasi.			
10	**Patogen anaeroblar. Patogen anaeroblar chaqiradigan kasalliklar tashxisi.**	Patogen anaeroblarga umumiy xarakteristika, ularning xossalari. Kasallik patogenezi. epidemiologiyasi, Immunitet. Davosi va profilaktikasi. Tibbiyot etikasi va deontologiyasi.	2	N-2	2
11	**Havo – tomchi infeksiyalari va ularning tashxisi.**	Havo tomchi infeksiyasiga umumiy xarakteristika. Bo‘g‘ma, sil, ko‘kyo‘tal qo‘zg‘atuvchisining xossalari. Kasallik patogenezi. epidemiologiyasi, Immunitet. Davosi va profilaktikasi. Tibbiyot etikasi va deontologiyasi. Balg‘amdan surtma preparat tayyorlash, Sil-Nilsen usulida bo‘yash va mikroskop ostida tekshirish.	6	N-2 A-4	2
12	**Patogen spiroxetalar.**	Patogen spiroxetalarga umumiy xarakteristika. Patogen spiroxetalarining xossalari. Kasallik epidemiologiyasi, patogenezi. Immunitet. Davosi va profilaktikasi. Tibbiyot etikasi va deontologiyasi.	2	N-2	2
13	**Rikketsiyalar.**	Rikketsiyalarga umumiy xarakteristika. Rikketsiyalarning xossalari. Infeksiya manbai, tashib yuruvchisi, yuqish mexanizmi. Toshmali tif kasalligining patogenezi. Brill kasalligi. Immunitet. Davosi va profilaktikasi.	2	N-2	2
14	**Viruslar, ularning tasnifi,keltirib chiqaradigan kasalliklari, davosi va profilaktikasi.**	Viruslarga umumiy xarakteristika. Viruslarning xossalari, epidemiologiyasi. Gripp, qizamiq, poliomiyelit, qutirish, gepatit, OITS, koranavirus kasalliklari. Davosi va profilaktikasi.	2	N-2	2
15	**Suv va alkogolsiz ichimliklarni sanitariya-bakteriologik tekshirish**	Ochiq va yopiq suv havzalaridan, alkogolsiz ichimliklardan namuna olish, uni laboratoriyaga jo‘natish. Suvdagi mikroblarning umumiy soni, koli-titr, koli-indeksni aniqlash.	4	A-4	-
16	**Havo va tuproqni sanitariya-bakteriologik tekshirish**	Havo va tuproqdan namuna olish, ularni laboratoriyaga jo‘natish. Mikroblarning umumiy soni, koli-titr, klostridiyalarni, mikroblarning sanitar ko‘rsatkichini aniqlash.	4	A-4	-
17	**Go‘sht va kolbasa mahsulotlarini**	Go‘sht va kolbasa mahsulotlaridan namuna olish va uni laboratoriyaga jo‘natish. Go‘sht va kolbasa mahsulotlaridagi mikroblarning umumiy soni, koli-titr,	4	A-4	-

	sanitariya-bakteriologik tekshirish	salmonellalar, proteylar va boshqa patogen va shartli patogen mikroblarni aniqlash.			
18	**Sut va sut mahsulotlarini sanitariya-bakteriologik tekshirish**	Sut va sut mahsulotlaridan namuna olish va uni laboratoriyaga jo‘natish. Sut va sut mahsulotlaridagi mikroblarning umumiy soni, koli-titrni aniqlash.	4	A-4	-
19	**Yuvindini sanitariya-bakteriologik tekshirish. Xirurgik bog‘lov materialini sterillikka tekshirish.**	Yuvindilarni sanitariya – bakteriologik tekshirish, bog‘lov va jarrohlik materiallarini, dori shakllarini sterillikka tekshirish uchun namuna olish va uni laboratoriyaga jo‘natish, namunani tekshirishga tayyorlash. Mikroblarni umumiy soni, koli-titr va stafilokokklarni aniqlash.	4	A-4	-
	Jami:		**96**	**N-32 A-64**	**48**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash.

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonilan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol – javob, test, joriy va yakuniy nazorat hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

4.Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Prezident asarlari:

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” Toshkent – “O‘zbekiston” 2020 y.

2. Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.Toshkent – “O’zbekiston” 2019 y

3. Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y

4. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y

Asosiy adabiyotlar:

1. A.B.Ganixo‘jayeva, X.A.Nazarova. «Mikrobiologiya va mikrobiologik tekshirish usullari» Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2017 yil.

2. A.B.Ganixo‘jayeva, X.A.Nazarova. «Mikrobiologiya» Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2017 yil.

3. A.B.Ganixo‘jayeva, X.A.Nazarova. «Umumiy mikrobiologiya» Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2017 yil.

4. E.E.Eshboyev «Mikrobiologiyadan amaliy mashg‘ulot uchun» Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2006 yil

5. V.Ye.Yemsov “Mikrobiologiya” 2016 yil

6. J.Saks “Mikrobы xoroshiye i ploxiye” – 2013yil

7. Sh.R.Aliyev, Sh.A.Xo‘jayeva, A.M.Davurov, F.X.Rasulov “Mikrobioloiyadan laboratoriya mashg‘ulotlariga doir qo‘llanma” Toshkent “Yang asr avlodi” 2013 yil

8. E.A.Doneskaya “Klinicheskaya mikrobiologiya” 2011 yil
9. M.N.Boychenko “Medisinskaya mikrobiologiya, virusologiya, immunologi” 2010 yil
10. «Bergey’s Manual of Sisternatic, Bakteriology» N. Noel, R.Krieg, James T.Staley, Daneil R. Brown – 2010 u
11. E.I.Musaboyev, A.K.Bayjanov “OIV infeksiyasi va uning kasb orqali yuqishi, profilaktikasi” 2008 yil
12. N.A.Nuraliyev, M.A.Adilov “Obshaya mikrobiologiya”. Toshkent, “Cho‘lpon” nashriyoti, 2009 yil
13. E.I.Musaboyev, A.Q.Bayjanov “Yuqumli kasalliklar epidemiologiyasi va parazitologiya” Toshkent 2007 yil
14. I.M.Muhamedov, E.Eshboyev “Mikrobiologiya. Immunologiya. Virusologiya” Toshkent, “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2002 yil

Internet manbalari:

1. www.ziyonet.uz,
2. www.lex.uz.,
3. www.google.uz,
4. www.med.uz.,
5. www.referat.uz.,
6. www.tma.uz.,
7. www.gigiyena.uz.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

TIBBIY PARAZITOLOGIYA VA EPIDEMIOLOGIYA ASOSLARI fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikasiyalar nomi: **Tibiy profilaktika ishi feldsheri**

O‘quv rejadagi tartib raqami: **2.05**

Ajratilgan soat: **96**

Toshkent – 2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchilar:

A.J.Hamroqulova Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o‘qituvchisi.

G.Ya. Abdurashitova 2-son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

Z.Z. Kadirov Yunusobod tumani Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi qo’mitasi bo’limi boshlig’i

G.K Mannonova 2- son Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi uslubchisi

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Tibbiy parazitologiya va epidemiologiya asoslari**
Ajratilgan soat	96
Mavzular soni	24
Dasturning maqsadi	O‘quvchilarni sifatli profilaktika yordamini ko‘rsatishda Tibiy profilaktika ishi feldsheri mutaxassisligi bo‘lib yuqumli va parazitar kasalliklar o‘chog‘ida bemorlarni vaqtida ajratish, yuqumli va parazitar kasalliklarni tarqalish qonuniyatlarini bilish, emlash qoidalari, yuqumli kasalliklar o‘chog‘ini epidemiologik tomondan tekshirish, epidemiyaga qarshi chora tadbirlari va bemor bilan bilan muloqotda bo‘lgan shaxslarni tibbiy nazoratiniolib borish. Davoash profilaktika muassasalari (DPM) sharoitida sanitariya va epidemiologik rejimini nazorat qilish, dezinfeksiyalovchi vositalarni tayyorlash va uning sifatini nazorat qilish bo’yicha nazariy va amaliy asoslarini qo’llash . O‘zbekiston Respublikasida va dunyoda uchragan yuqumli kasalliklarni tarqalishini taxlil kilish , epidemiyaga qarshi profilaktika ishlarini olib borish va amaliy ko‘nikmalarni egallash. Zamon talabiga javob bera oladigan, jahon standartlariga mos keladigan, yuqori malaka va kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, har tomonlama yetuk tibbiy xodimlarni tayyorlash.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	-epidemik jarayon, yuqumli kasalliklarning yuqishi va tarqalishi, uni oldini olish, o‘choqda olib boriladigan ishlarini tashkil qilish, karantin va dispanserizatsiya ishlari to‘grisida bilimlar va ko’nikmalar shakllanadi; -yuqumli kasalliklarning profilaktika va epidemiyaga qarshi ishlari haqida nazariy asoslari o‘rganiladi; - bemorlar bilan suhbat o‘tkazish, ularni alohidalash, dispanser nazoratini olib borish, karantin ishlarini tashkil qilish, dezinfeksiya sifatini nazorati va emlash ishlari haqida ko‘nikmalar o‘rganiladi.
Bilim	- fanning qisqacha tarixi, fanni rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar, yuqumli va parazitar kasalliklarga qarshi kurash yutuqlari; -epidemiologiyaning qonun va qonuniyatlari, epidemiologik jarayon,profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarga ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlar,epidemiologik anamnez va epidemiologik nazorat; -epidemik jarayon sxemasini tuzish va epidemik o‘choq turlarini aniqlash; - kasallikni yuqish mexanizmi, kechish davri va fturiga qarab infeksiya sifatida epidemiologik baho berish; - SEO va JSQ ning strukturasi va vazifasi, bajaradigan ish faoliyati, asosiy hujjatlari; - yuqumli va parazitar kasalliklarni ro‘yhatga olish; - kasalxonadagi qabulxonaning vazifasi va hujjatlari; - tibbiy asboblarni va parvarish buyumlarini zararsizlantirish qoidalari, - bolalar muassasalarida bolalarni qabul qilish qoidalari (filtr), sanitariya-gigiyenik xolatini nazorati va kerakli hujjatlari; -muassasalarda shaxslarararo ajratish qoidalari va shaxsiy buyumlariga qo‘yiladigan talablar; -o‘choqlarda joriy va yakuniy dezinfeksiyani o‘tkazish, - shaxsiy ximoya kiyimni ishlatish va zararsizlantirish qoidasi;

	- hodimlarni shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish.
Ko‘nikma	- O‘zbekiston Respublikasi chegarasini sanitar qo‘riqlash ishlari; -bemordan epidemik anamnezni yig‘ish; - yuqumli va parazitar kasalliklar (ichak, havo-tomchi, qon, teri-qoplamlar kasalliklar) o‘chog‘ini epidemiologik tomonidan tekshirish; -epidemiologik kartani va turli xil tibbiyot shakllarini to‘ldirish; -bemornianiqlash, ajratish va kasalxonaga yotqizish qoidasi; - kasal bilan muloqatda bo‘lganlarni aniqlash va ular ustidan tibbiy kuzatuvni olib borish; - poliklinikada yuqumli kasalliklar xonasi(YuKX)ning ishini o’rganish; - bemorlarni dispanserga olish qoidalarini amalga oshirish; - yuqumli kasalliklar o‘chog‘ida epidemik tadbirlarniolib borish; - yuqumli va parazitar kasalliklarni hisobga olish va hisobot formalarini rasmiylashtirish. - bolalar guruhida dezinfeksiya rejimini, idish-tovoqlarni yuvish va zararsizlantirishni tekshirish; -bolalar va o’smirlar muassasalarida ertalabki «filtr» ishini tekshirish; -oshxona va tibbiyot xodimlarining tibbiy ko‘rigidagi daftarchasini tekshirish; -dalolatnoma yozish; - emlashni rejalashtirish va aholini immun qatlamini aniqlash**;** **-**barcha parazitar kasalliklarni aniqlashda tashxis usullarini o’rganish; - profilaktik emlash kalendariga mosligi, emlashni hisobga olish va hisobot shakllarini to‘ldirish; -kasallikni laborator tekshirish usullarini amalga oshirish; -burun va xalqumdan sinama olish va laboratoriyaga yuborish; - shaxsiy himoya kiyimni qo’llash va zararsizlantirish; - o‘ta havfli infeksiyalarni tarqalish xavfi bo‘lganda olib boriladigan profilaktik tadbirlarni va unda shoshilinch profilaktikasini bajarish.
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog’liq bo‘lgan fan nomi	“Sanitariya-epidemiologiya ishini tashkil etish” “Umumiy gigiyena va ekologiya” “Mikrobiologiya” “Yuqumli kasalliklar” “Dezinfeksiya ishi” “Ovqatlanish gigiyenasi”
O‘qitishni tashkiliy shakli	N - Nazariy ta’lim; A - Amaliy ta’lim; NA - Nazariy va amaliy ta’lim birgalikda tashkil etiladi; MX - Maxsus xonada o‘tkaziladigan mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshirik

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning kiskacha mazmuni	Jami auditoriya soati	O’ qiitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’ lim
1	**Tibiy parazitologiya va epidemiologiya asoslari fani haqida tushuncha, rivojlanish tarixi. Epidemiologik jarayon haqida tushuncha, omillari, epidemiologik o‘choq tushunchasi**	Fanning qisqacha tarixi, fanni rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar,yuqumli va parazitar kasalliklarga qarshi kurash yutuqlari,profilaktika va epidemiyaga qarshi tadbirlarga ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlar, epidemiologik anamnez va nazorat.Epidemiologik tekshirish usullari. Epidemiologik jarayon to‘g‘risida tushuncha. Unga ta’sir qiluvchi omillar, infeksiya manbai, yuqish mexanizmi, kollektivni ta’sirchanligi. Antroponoz va zoonoz infeksiyalar. Kasallik tarqatuvchi faktorlarning epidemik xarakteristikasi: suv, oziq-ovqatlar, xavo, tuproq, havo, parvarish buyumlari. Epidemiyaning turlari, sabablari. Yuqumli va parazitar kasalliklarning maxsus va mexanik tashuvchilari	2	N-2	2
2	**Yuqumli kasalliklar profilaktikasining asosiy tamoiylari. Yuqumli kasalliklar xonasining tuzilishi, ish tartibi.Yuqumli kasalliklar o‘chog‘ida epidemiyaga qarshi kurash tadbirlarini tashkil qilish.**	Yuqumli kasalliklarni oldini olish davlat xarakterida bo‘lishi. Respublika chegarasi va xududini Sanitar qo‘riqlash haqida qonunchilik. Ekzotik va endemik kasalliklar. Karantin. Infeksiya manbaining aniqlash, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va muddati. Yuqumli kasalliklarni to‘liq davolanganligini va izolyasiya qilinishini ahamiyati. Yuqumli kasalliklardan tuzalganlarni dispanser kuzatuviga olish, va uning ahamiyati. Sanitar xizmatining veterinar sanitar kuzatuvi bilan bog‘liqligi va uning hayvondan yuqqan kasalliklar profilaktikasidagi roli. Infeksiyani yuqish faktorlarga qarshi olib boriladigan tadbirlar. Aktiv va passiv immunlash.Tabiiy va epidemiologik o‘choqlar haqida tushuncha. Epidemiologik tekshirish masalalari va usullari. Infeksiya manbai va yuqish yo‘llariga qarshi olib boriladigan tadbirlar. Bemorlarni aktiv va passiv yo‘l bilan aniqlash, ro‘yxatga olish, izolyasiya qilish. Kasallarni tashish va gospitalizasiya qilish qoidalari, kasallanib tuzalganlarni dispanser nazoratiga olish. Zoonoz va antroponoz kasalliklarda infeksiya manbaiga qarshi olib boriladigan tadbirlar. O‘choqda dezinfeksiya va sanitar tadbirlarni olib borishning ahamiyati. Kasallik o‘chog‘ida kasal bilan muloqatda bo‘lganlarga nisbatan olib boriladigan tadbirlar. Kontaktda bo‘lganlarni aktiv aniqlash, ro‘yhatga olish, tibbiy kuzatuv, laboratoriya tekshiruvlari. Shoshilinch	6	N-2 A-4	2

		profilaktika, qayta ishlov o‘tkazish. Karantin tadbirlarini o‘tkazish. Dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizasiya tadbirlari. Sanitariya-maorif ishlari.			
3	**Sanitariya Epidemiologik Osoyishtalik Markazi (SEOM) ning yuqumli kasalliklarni oldini olishda olib boriladigan ishlari. Davolash profilaktika muassasalari (DPM) va bolalar va o‘smirlar muassasalarida sanitariya-epidemiologik rejimini nazorat qilish.**	Davlat sanitariya epidemiologiya nazorat markazining tuzilishi, vazifasi, bajaradigan ish faoliyati, asosiy hujjatlari. Yuqumli kasalliklarni aniqlash, ro‘yhatga olish qoidalari va hisobot shakllari. DPM qabul bulimining vazifasi va hujjatlari. Kasalxonaning bo‘limlariga qo‘yiladigan talablar (palata, bokslar). Ishchi xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tishi, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish.Tibbiy asboblarni va parvarish buyumlarini dezinfeksiyalovchi eritmalar yordamida zararsizlantirish qoidalari. Bolalar muassasalarida bolalarni qabul qilish qoidalari va kerakli hujjatlar. Bolalar muassasalarida guruxlararo ajratish qoidalari va shaxsiy buyumlariga qo‘yiladigan talablar. Bolalarni birlamchi qabul qilish-filtr ishi qoidalari. Profilaktik dezinfeksiya o‘tkazish qoidalari, dezinfeksiyalovchi moddalarni tayyorlash, sifatiga baho berish. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining davolash-profilaktika muassasalarida sanitar-epidemiologik rejimi to‘g‘risida amaldagi buyruqlari.	4	A-4	2
4	**Ichak infeksiyalari. Qorin tifi (ich terlama), paratif A va V**	Ichak infeksiya kasalliklariga umumiy xarakteristika. Qo‘zg‘atuvchining etiologik xarakteristikasi, tashqi muhitga chidamliligi. Infeksiya manbai, tashuvchilikning ahamiyati. Paratif A va V, infeksiyaning yuqish mexanizmi va tarqalish faktorlari. Suv va oziq-ovqat epidemiyalarning xususiyati. Qorin tifi va paratif kasalliklarni profilaktikasi. Kasal va yuqumli tashuvchilarni aniqlash usullari. Oziq-ovqat va suv ta’minoti korxonalari ustidan olib boriladigan sanitariya va laboratoriya nazoratining ahamiyati. Aholini sanitariya madaniyati. Immunoprofilaktika ko‘rsatmalari. Dezinfeksiya va sanitariya tadbirlar. Kasallanib o‘tganlar va tashuvchilar bilan aloqada bo‘lganlar ustidan olib boriladigan tadbirlar. Qorin tifi, paratif A va V o‘choqlarida epidemiologik tekshirish o‘tkazish va epidemiologik tekshirish kartasini to‘ldirish. O‘quv va maktabgacha bo‘lgan bolalar muassasalarida ichak kasalliklari bo‘yicha epidemiologik tekshirish o‘tkazish, dalolatnoma to‘ldirish. Davolash profilaktika muassasalarni epidemiologik rejimini nazorat qilish va dalolatnoma yozish.	6	N-2 A-4	2
5	**Dizenteriya Esherixiozlar.**	Qo‘zg‘atuvchining epidemiologik xarakteristikasi, turlari, chidamliligi. Infeksiya manbai, yuqish yo‘llari va mexanizmi. Klinika balgilari, diagnostikasi. Maktabgacha bo‘lgan muassasalarda olib boriladigan ishlar, infeksiya manbaini aniqlash usullari.Epidemik jarayonning rivojlanish mexanizmi va namoyon bo‘lishi, epidemiyaga	2	N-2	2

		qarshi choralar va epidemiologik nazorat.O'choqni epidemiologic tomonidan tekshirish qoidasi. Kasallikdan tuzalganlarni dispanser kuzatuviga olish tartibi. O'choqdagi karantinli tadbirlar.			
6	**Shol**	Qo'zg'atuvchisining epidemiologik xarakteristikasi. Infeksiya manbai, faktorlari va infeksiyaning tarqalish yo'llari. Virus tashuvchilikning ahamiyati. Sholning epidemiologik xususiyati va uning profilaktikasi. M.P.Chumakov va A.A.Smorodinsevning sholga qarshi emlash ishlari. O'choqdagi tadbirlar. Epidemiologik nazorat. Kontaktda bo'lganlarga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlar. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining sholga qarshi olib boriladigan chora-tadbirlar to'g'risida buyruqlar asosida ishlash.	6	N-2 A-4	2
7	**Vabo**	Vabo kasalligining geografik tarqalishi, pandemiyalarning epidemik xususiyati, vabo qo'zg'atuvchisining turlari, chidamliligi. Infeksiya manbai, infeksiyaning tarqalish yo'llari. Vaboning epidemiologik xususiyatlari. Epidemiyaga qarshi tadbirlar. Vabo kasalligini oldini olishda xalqaro sanitariya qoidalari. Vaboni tarqalish xavfi bo'lganda va tarqalganda olib boriladigan tadbirlar. Bemorlarni kasalxonaga yotqizish, chiqarish va ularni dispanser ihtiyoriga olish. Karantin va maxsus profilaktikasi. Vabo o'choqlarida epidemiologik tekshirish o'tkazish va epidemiologik tekshirish kartasini to'ldirish. Davolash profilaktika muassasalarini epidemiologik rejimini nazorat qilish. Maxsus himoya kiyimlarini kiyish va yechish qoidalari. Shifoxonalarda vaboga qarshi olib boriladigan ishlar va vositalarini xolatini nazorat qilish. Vaboga tekshirish uchun suvdan sinama olish qoidalari.	4	A-4	2
8	**Ovqat toksikoinfeksiyalari. Salmonellyoz. Botulizm. Stafilokokkli intoksikasiya.**	Qo'zg'atuvchilarning morfologiyasi, chidamliligi, epidemiologik xususiyatlari, turlari. Infeksiya manbalari, tarqalish yo'llari, immunitet. Profilaktikasi, o'choqdagi tadbirlar. Salmonellyozlar qo'zg'atuvchisining turlari, morfologiyasi chidamliligi. Infeksiya manbai, tarqalish yo'llari, epidemik jarayonning xususiyati, kasallikni bolalar kasalxonalarda, tug'ruqxonalarda, kasalxona ichi infeksiyasi sifatida tarqalishi. O'choqda, oziq-ovqat korxonalarda, bolalar muassasalarida oldini olish tadbirlari.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqnisaqlash vazirliginingkasalliklarga qarshi olib boriladigan chora-tadbirlar to'g'risida buyruqlar asosida ishlash. Qo'zg'atuvchining morfologiyasi, chidamliligi. Kasallikni yuqish mexanizmi, tarqalishi uchun qulay bo'lgan sharoitlar. Kasalliklarni tarqalishida konserva, kolbasava kremli mahsulotlarining ahamiyati. Konservalash sharoitida, baliqchilik sanoati va uy sharoitida botulizmning oldini olish. O'choqdagi tadbirlar. Aholi	2	N-2	2

		o‘rtasida sanitariya-oqartuv ishlarini olib borish.			
9	**Brutsellyoz. Leptospiroz,**	Qo‘zg‘atuvchining turlari, epidemiologik xarakteristikasi, infeksiya manbai, tarqalish yo‘llari, kasallikni odamlar va hayvonlar o‘rtasida aniqlash usullari. Kasallangan hayvon mahsulotlarini zararsizlantirishga qo‘yiladigan talablar. Brusellyoz profilaktikasi, leptospiroz, qo‘zg‘atuvchisining morfologiyasi, chidamliligi. Infeksiya manbai, tarqalish yo‘llari, yuqish mexanizmi. Kasallikni kelib chiqishida suv va go’sht ,sut mahsulotlarning roli, profilaktikasi, o‘choqdagi tadbirlar, epidemiologik nazorat.	4	A-4	2
10	**Tibbiy parazitologiya asoslar haqida tushuncha, rivojlanish tarixi. Sodda jonivorlar. Sarkodalar sinfi- amebioz, lyamblioz, toksoplazmoz kasalligi**	Fanning qisqacha tarixi, fanni rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar, parazitar kasalliklarga qarshi kurash yutuqlari,parazitlar invaziyasi, tasnifi,parazitologik tekshirish usullari. Sodda jonivorlar xarakteristikasi. Kasallik tarqatuvchi faktorlarning epidemik xarakteristikasi: suv, xavo,tuprok, zararlangan qo‘l, parvarish buyumlari. Amebioz kasalligining morfologiyasi, shakllari - dizenteriya amyobasi, ichakning nopatogen amebasi, erkin yashaydigan patogen amyobasi, rivojlanishi, chidamliligi, kasallikning yuqishi, klinika belgilari. Diagnostika usullari, profilaktikasi. Lyamblioz kasalligi qo‘zg‘atuvchisi morfologiyasi, rivojlanishi, qo‘zg‘atuvchining chidamliligi, kasallikning yuqishi, klinika belgilari. Diagnostika usullari, profilaktikasi. Toksoplazmoz kasalligining qo‘zg‘atuvchisi morfologiyasi, rivojlanishi, chidamliligi, kasallikning yuqishi, klinika belgilari. Qon olish texnikasiva surtma preparatni tayyorlash. Diagnostika usullari, profilaktikasi.	6	N-2 A-4	2
11	**Gelmintlar (gijjalar). Trematodalar sinfi- opistorxoz kasalligi. Sestodalar sinfi- difillobotrioz, teniarinxoz kasalligi**	Gelmintlar(gijjalar)- tasnifi, umumiy xarakteristikasi, bio- va geo-gelmintlar, degelmintizasiya ishlari. Trematodalar sinfi, tasnifi. Opistorxoz kasalligi qo‘zg‘atuvchisi morfologiyasi, rivojlanishi, chidamliligi, kasallikning yuqishi, klinika belgilari. Diagnostika usullari (bemordan najas va o‘t suyuqligini olish va tekshirish) . Sestodalar sinfining umumiy tasnifi.Difillobotrioz kasalligi qo‘zg‘atuvchisi (keng lentes)ning morfologiyasi, rivojlanishi, chidamliligi, kasallikning yuqishi, klinika belgilari. Diagnostika usullari, (bemordan najas olish va	4	A-4	2

		tekshirish). Teniarinxoz kasalligi qo‘zg‘atuvchisi (ho‘kiz solityori)ning morfologiyasi, rivojlanishi, chidamliligi, kasallikning yuqishi, klinika belgilari. Diagnostika usullari, (bemordan najas olish va tekshirish).Kasalliklarning profilaktikasi.			
12	**Nematodalar sinfi-Enterobioz, askaridoz kasalligi.**	Nematodalar sinfiga umumiy tasnifi.Enterobioz kasalligi qo‘zg‘atuvchisi (ostrisa) morfologiyasi, rivojlanishi, chidamliligi, kasallikning yuqishi, klinika belgilari. Askaridoz kasaligi qo‘zg‘atuvchisi (askarida) morfologiyasi, rivojlanishi, chidamliligi, kasallikning yuqishi, klinika belgilari. Tashxis usullari (Fyulleborn,Kato, Kalantaryan). Profilaktikasi.	4	A-4	2
13	**Nafas yo‘li infeksiyalari. Gripp, paragripp, adenovirus infeksiyasi, cho‘chqa va parranda grippi.Koronavirus infeksiyasi**	Qo‘zg‘atuvchining xarakteristikasi, virusning o‘zgaruvchanlik ahamiyati. Gripp, paragripp, koronavirus, adenovirus, cho‘chka va parranda gripp kasalliklarining epidemiologik xususiyati, asoratlari. Infeksiyaga qarshi kurash chora-tadbirlari. Poliklinikalar, bolalar va o‘quv muassasalarida olib boriladigan tadbirlar, immunoprofilaktikasi. Gripp, paragripp, koronavirus, adenovirus infeksiyalari, cho‘chqa va parranda grippi o‘choqlarida olib boriladigan epidemiyaga qarshi ishlari, kerakli hujjatlarni to‘ldirish. Grippga qarshi emlash texnikasi.	4	A-4	2
14	**Skarlatina, suv chechak.**	Qo‘zg‘atuvchining xarakteristikasi. Epidemik zanjiri, tarqalish mexanizmi va yo‘llari. Noaniq formalardagi bemorlarni va rekonvalessentlarning infeksiya tarqalishidagi roli. Skarlatina bilan og‘rigan bemorlarni gospitalizasiya qilish ahamiyati. Epidemiologik nazoratini o‘tkazish. Profilaktika tadbirlari.	2	N-2	2
15	**Qizamik, qizilcha, epidemik parotit.**	Qizamiq, qizilcha, epidemik parotit infeksiyasining qo‘zg‘atuvchiga xarakteristika. Epidemik zanjiri, tarqalish mexanizmi va yo‘llari. Bolalar va davolash muassasalarida olib boriladigan tadbirlari. Kasallikning maxsus profilaktikasi - KPK vaksinaning emlash sxemasi. Epidemiologik nazoratni o‘tkazish. Umumiy profilaktika tadbirlari.	4	A-4	2
16	**Bo‘g‘ma (difteriya), ko‘k yo‘tal.**	Qo‘zg‘atuvchining xarakteristikasi. Epidemik jarayon. Infeksiya manbai, kasallikning og‘ir formasi va bakteriya tashuvchining roli. Infeksiyaning kirish darvozasi, yuqish yo‘llari. Hozirgi vaqtdagi difteriyaning epidemiologik xususiyatlari. Statistik ma’lumotlari. Emlash kalendari asosida immunoprofilaktika, uning ahamiyati. Bolalar muassasalarida difteriyaga qarshi chora-tadbirlar, dezinfeksiya qilish qoidalari. O‘chokdagi tadbirlar. Kasallikni oldini olishda buyruqlar asosida ishlash. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining kasallikni oldini olishdagi buyruklar va uslubiy tavsiyalarini qo‘llash,	2	N-2	2

		“O‘zbekiston Respublikasida bo‘g‘ma kasalligiga qarshi olib boriladigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi buyruq.			
17	**Meningokokkli infeksiya. Sil kasalligi.**	Kasallikning qo‘zg‘atuvchisi to‘g‘risida ma’lumotlar. Meningokokk tashuvchilarning roli. Epidemik jarayon. Yuqish yo‘llari va mexanizmi. Meningokokkli infeksiyaning epidemiologik xususiyatlari. Bolalar muassasalarida meningokokkli infeksiyaga qarshi olib boriladigan chora-tadbirlar, uni oldini olish, maxsus profilaktikasi. Sil kasalligining qo‘zg‘atuvchisining epidemiologik xususiyati. Epidemik zanjir. Infeksiya manbai, yuqish mexanizmi. Silning boshlang‘ich formalarini aniqlash usullari. Rejali profilaktika flyurografiya muddatlari. Silning maxsus profilaktikasi.Sil kasalligi o‘choqlarini epidemiologik tekshirish, xujjatlarni to‘ldirish. dezinfeksiya va sanitariya tadbirlarini o‘tkazish. Silga qarshi ishlarni tashkil qilish, BSJ vaksinani qo‘llash sxemasi, sil o‘chog‘ining epidemiologik xavfi. Dezinfeksiya tadbirlari. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining meningokokkli infeksiyani oldini olishdagi buyruqlar asosida ishlash.	6	N-2 A-4	2
18	**Qon infeksiyalari. Toshmali terlama (tif), Brill kasalligi.**	Qo‘zg‘atuvchisi to‘g‘risida ma’lumotlar. Epidemiologik zanjir,infeksiya manbai, yuqish yo‘llari. S.O.Mochutkovskiyning toshmali terlama va Brill kasallikning epidemiologiyasiga oid ishlari. Toshmali terlamaning epidemiologik xususiyatlari, qaytalanishi. Brill kasalligi bilan kasallangan bemorning infeksiya manbai sifatidagi ahamiyati. Bolalar muassasalarida pedikulyozni aniqlash. Perikulyozda bemorlarni sanitariya tozalovidan o‘tkazish. Kontaktda bo‘lganlarni tibbiy nazoratdan o‘tkazish. O‘choqda dezinfeksiya va dezinseksiyani o‘tkazish tadbirlari. O‘choqni epidemiologik tekshirish, xujjatlarni to‘ldirish. Epidemiologik anamnez yig‘ish. Bolalarmuassasalarida va kasalxonalarda pedikulyozga qarshi olib boriladigan tadbirlar. Kontaktda bo‘lganlarni sanitariya tozaligidan o‘tkazish, vositalarni kullash. Dezinfeksiya va dezinseksiya ishlarni olib borish.	4	A-4	2
19	**Bezgak.**	Qo‘zg‘atuvchining turlari, tuzilishi va shakllari, rivojlanish sikli. Epidemiologik zanjiri, infeksiya manbai, tarqalish yo‘llari.Yashirin davrining davomiyligi va residivlarning epidemiologik ahamiyati. Bezgakning jahonda va O‘zbekistonda tarqalishi, statistik ma’lumotlar. Bezgak tekshirishlariga ko‘rsatmalar, isitmalagan bemorlarni tekshirishning ahamiyati. Sanitar nazorat punkti (SNP)ning ishini tashkil etish, bezgakning chetdan o‘tish xavfi. Bezgakka qarshi kurashning asosiy xususiyatlari. Parazitologiya va entomologiya bo‘limining bezgakka qarshi kurash ishlari, dezinseksiya tadbirlari.	2	N-2	2

20	**Virusli gepatitlar A, E,B, C, D.**	Qo‘zg‘atuvchining epidemiologik xarakteristikasi.Infeksiya manbai, tarqalish yo‘llari, epidemiologik xususiyatlari, kasallikni tarqalishida ovqatlanish korxonalarining ahamiyati. Kasallikni suv orqali tarqalishi, epidemiya turlari, epidemiyaga qarshi choralar. Epidemiologik nazorat. O‘choqda olib boriladigan tadbirlar. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining kasallikni oldini olish xakida buyruqlar asosida ishlash.Gepatit V,S,D virusining tuzilishi. Epidemiologik zanjiri. Virus tashuvchi,kasallikning tarqalish yo‘llari. Epidemiologik nazorat tadbirlari. Karantinqoidasi.Sterilizasiya tadbirlari. Bolalar muassasalarida, davolash-profilaktik muassasalarida olib boriladigan ishlar. Virusli gepatit V, S, D o‘choqlarida epidemiologik tekshirish va nazorati. Gumon qilinganlar va bemorlarni analizga yuborish axamiyati. Bemorlarni ajratish va gospitalizasiya qilish. Kontaktda bo‘lganlarni nazoratt va karantinni tashkil etish. Joriy va yakuniy dezinfeksiyani olibborish, tibbiy asboblarni sterilizasiya qilish axamiyati. Statistik ma’lumotlar (kasallik ko‘rsatkichlari). Maxsus profilaktikasi- VGV vaksinaning emlash sxemasi. Amaldagi buyruqlar asosida profilaktika ishlarni olib borish.	6	N-2 A-4	2
21	**OIV-infeksiyasi (OITS).**	Etiologiya, qo‘zg‘atuvchisi to‘g‘risida ma’lumotlar. Epidemiologik zanjir, xususiyatlari. Yuqish mexanizmi va tarqalish yo‘llari. Dunyoda tarqalishi, statistik ma’lumotlari. OITSning oldini olishda sosial-ijtimoiy aspektlar. OITS markazining va xususiy laboratoriyalar ishi, qon analizi.Sterilizasiya sifatini axamiyati. Kasallikka qarshi kurash ishlarini tashkil qilish. Sanitariya-okartuv ishlari. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining kasallikni oldini olish to‘g‘risidagi buyruqlar asosida ishlash.	2	N-2	2
22	**Mavsumiy ensefalitlar. Gemorragik isitmalar.**	Mavsumiy ensefalitlar, gemorragik isitmalarning klassifikasiyasi, qo‘zg‘atuvchilarining xarakteristikasi, tabiatdagi o‘choqlari. Infeksiya manbai va infeksiya tarqatuvchilari. Kanalar orqali o‘tuvchi virusli ensefalit. Yapon ensefaliti. Epidemiyaga qarshi va profilaktik chora-tadbirlari. Immunoprofilaktikasi. Buyrak sindromi bilan kechadigan gemorragik isitma. Qrim gemorragik isitmasi, Omsk gemorragik isitmasi. Ebola GI. Epidemik jarayon, infeksiya manbai va yuqish mexanizmi, tashuvchilari. Maxsus profilaktikasi. Epidemiyaga qarshi olib boriladigan ishlar va profilaktika tadbirlari. Epidemik o‘choqda dezinseksiya tadbirlari. Shaxsiy gigiyena, xususiy ximoya vositalaridan foydalanish. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “O‘zbekiston Respublikasida gemorragik isitmalarga qarshi olib boriladigan tadbirlar to‘g‘risida” buyruqlar asosida	2	N-2	2

		ishlash.			
23	**Toun (o‘lat). Tulyaremiya.**	Toun kasalligi va tulyaremiya etiologiyasi. Epidemik jarayon, infeksiya manbai, tashuvchilari, yuqish yo‘llari. Tabiiy o‘choqlari. Immunitet to‘g‘risida ma’lumot. Karantin infeksiyalar guruhi va ularga qarshi chora-tadbirlar. Dezinseksiya tadbirlari, dezinfeksiya va deratizasiyani olib borish. Bemorlarni ajratish, kontaktda bo‘lgan shaxslarni aniqlash va tekshirish,toun kasalligidan o‘lgan kishilarni ko‘mish qoidalari. Kasallik o‘chog‘ida epidemiyaga qarshi olib boriladigan ishlari. Aniqlangan bemorlar to‘g‘risida ma’lumot berish qoidalari, bemorlarni ajratish va gospitalizasiya qilish. Kontaktda bo‘lgan shaxslarni va gumon qilganlarni aniqlash. Karantinni joriy etish. Emlash qoidalari. Maxsus kiyimlarni (I, II, III, IV tiplar) kiyish va yechish qoidalari. Dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizasiyani o‘tkazish.	6	N-2 A-4	2
24	**Quturish, Kuydirgi. Qoqshol.**	Quturish, kuydirgi, qoqshol qo‘zg‘atuvchisining xarakteristikasi. Epidemiologik jarayon, infeksiya manbai, yuqish mexanizmi. Maxsus profilaktikasi (antirabik vaksina va anatoksin). Antirabik vaksina, uni qo‘llash uchun ko‘rsatmalar. Qo‘zg‘atuvchining xarakteristikasi, chidamliligi. Infeksiya manbai, yuqish yo‘llari. Kasallikning epidemiologik xususiyati. Maxsus profilaktikasi. Kuydirgi kasalligida joriy va yakunlovchi dezinfeksiya qoidalari. Kasal hayvonlarni utilizasiya (yo‘qotish) qilish. Veterinariya-sanitariya chora-tadbirlarni o‘tkazish. Kasallik o‘chog‘ida o‘tkaziladigan tadbirlar. Qoqsholga qarshi antitoksik zardob yuborish sxemasi va maxsus profilaktikasi. Jarrohlik punktining ish faoliyati.	6	N-2 A-4	2
Jami			**96**	**N-32 A-64**	**48**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baxolash

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

4.Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Prezident asarlari:

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” Toshkent – “O‘zbekiston” 2020 y.
2. Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.Toshkent – “O’zbekiston” 2019 y
3. Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y
4. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y

Asosiy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublika SSVning Sanitariya Qoida va Me’yorlari, buyruqlari - 2005- 2017 yillar
2. Aholining sanitariya- epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida Qonuni, T. 2015 yil
3. Fayziyev Y.M., Fayziyeva X.A. “Epidemiologiya va tibbiy parazitologiya» Toshkent, “Ilm ziyo” nashriyoti, 2007 yil
4. Musaboyev Ye.I., Bayjanov A.Q. “Yuqumli kasalliklar. Epidemiologiya va parazitologiya asoslari” Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti, 2007 yil.
1. MelnichenkoP.I., Arxangelskiy V.I., Kozlova D.A. “Gigiyena s osnovami ekologii cheloveka” darslik , Moskva 2010

Internet manbalari:

1. http://www.ziyonet.uz/
2. http://www.lex.uz/
3. http://www.google.com/
4. www. unesco,org
5. www.tma.uz.
6. www.gigiyena.uz.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

DEZINFEKSIYA ISHI
fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikasiyalar nomi: **Tibbiy profilaktika ishi feldsheri**

O‘quv rejadagi tartib raqami: **2.06**

Ajratilgan soat: **72**

Toshkent – 2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi:
G.Ya. Abdurashitova 2 – son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:
Z.Z. Kadirov Yunusobod tumani Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi qo’mitasi bo’limi boshlig’i

D.A Jabborova 2 – Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi “Gigiyena va laboratoriya” kafedrasi mudiri

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Dezinfeksiya ishi**
Ajratilgan soat	**72**
Mavzular soni	13
Dasturning maqsadi	O‘quvchilarni sifatli profilaktika yordamini ko‘rsatishda tibbiy profilaktika ishi feldsheri mutaxassisligi sifatida yuqumli kasalliklar o‘chog‘ida bemorlarni vaqtida ajratish, yuqumli kasalliklarni tarqalish qonuniyatlarini bilish, bemorni va u bilan muloqotda bo‘lgan shaxslarni va buyumlarini zararsizlantirish ishlarinin olib borish, tibbiy asboblarni sterilizasiya qilish tekshirish, epidemiyaga qarshi dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizasiya chora tadbirlarini o‘tkazish, kasalliklar o‘chog‘ini epidemiologik tomonidan tibbiy nazoratini olib borish. DPMlar sharoitida dezinfeksiyalovchi vositalarni tayyorlash, ularni qo‘llash, saqlash va ularning sifatini nazorat qilish nazariy asoslari va amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	-yuqumli kasalliklarning yuqishi va tarqalishi, uni oldini olish , o‘choqda olib boriladigan ishlarini tashkil qilish , karantin va dispanserizasiya ishlari to‘grisida bilimlarga ega bo‘ladilar; -yuqumli kasalliklarning profilaktikasi va epidemiyaga qarshi ishlarida dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizasiya ishlari va sterilizasiya hakida nazariy asoslari o‘rganiladi; - bemorlar bilan suxbat o‘tkazish, ularni aloxidalash, evakuasiya va gospitalizasiyasini o‘tkazish , karantin ishlarini tashkil qilish, dezinfeksiya va sterilizasiya sifatini nazoratini olib borish, kimyoviy dezinfeksiya moddalarini ishlatish va unda extiyot choralari hakida ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.
Bilim	- fanning qisqacha tarixi, fanni rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar, tibbiyotda dezinfeksiya tadbirlarining ahamiyati, yuqumli va parazitar kasalliklarga qarshi kurash yutuqlari; - mexanik, fizikaviy va kimyoviy usullarining ahamiyati, qo‘llanilishi -dezinfeksiya ishi bo‘limining hisob va hisobot hujjatlari -dezinfeksiyalovchi moddalar ro‘yhati va ularning xususiyati; - o‘choqlarda joriy va yakuniy dezinfeksiyani o‘tkazish, - DPM larda dezinfeksiya ishlarini tashkil qilish, olib borish va uni nazorat kilish; - tashqi obyektlardan surtmalarni olish; - tibbiyot asboblarni sterilizasiyasi va undan oldingi tozalov ishlarini o‘tkazganligini nazorati; - dezinseksiya va deratizasiya tadbirlarining maqsadi, vazifalari, usullari va vositalari ; - turli xil ob’yektlarni dezinseksiya qilish uchun kerakli preparatlar miqdorini aniqlash; - turli xil apparatlarni ishlatish , kamchiliklarni tuzatish; - dezinfeksion kameralarni ishga tayyorlash, ishlatish, va ishini nazorat qilish; - dezinstruktor va dezinfektor vazifalarini bajarish; - tibbiy hujjatlarni yuritish;

	- shaxsiy himoya kiyimni ishlatish va zararsizlantirish; - hodimlarni shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish.
Ko‘nikma	- O‘zbekiston Respublikasi chegarasini sanitar qo‘riqlash ishlari; - yuqori foizli suyuq xoldagi asosiy dezinfeksiyalovchi moddalar va ulardan ishchi eritmalar tayyorlash; - tarkibida xlor saqlovchi kukun ko‘rinishidagi dezinfektantlardan eritma tayyorlash; - bemorning ajratmalari , idishlari, ovqat qoldiqlari, ichki kiyimlari, oqliklarni zararsizlantirilishi; - transport vositalari dezinfeksiyasi; - DPM larda tibbiy xodimlarni dezinfeksiya ishi bo‘yicha malakasini nazorat qilish; - tashqi ob’yektlardan surtma olish; - dezinfeksiyalovchi eritmalarda faol xlor miqdorini aniqlash; - tibbiyot asboblarni dezinfeksiyasi , sterilizasiya va undan oldingi tozalov ishlarini o‘tkazganligini nazorati; - MSB larni tekshirish va dalolatnoma yozish; - dezinseksiyalovchi preparatlardan eritma, suspenziya, emulsiyalar tayyorlash va undan foydalanish; - turli xil ob’yektlarni dezinseksiya qilish uchun kerakli preparatlar miqdorini aniqlash; - turli xil apparatlar va dezinfeksion kameralarni ishga tayyorlash, ishlatish, ishini nazorat qilish; - deratizasiyaning mexanik va kimyoviy usullaridan, vositalaridan foydalanish; - dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizasiya ishlari rejasini tuzish; - dezinstruktor va dezinfektor vazifalarini bajarish; - yuqumli kasalliklarni hisobga olish va hisobot formalarini rasmiylashtirish; - maxsus himoya kiyimni ishlatish va zararsizlantirish; - o‘ta havfli infeksiyalarni tarqalish xavfi bo‘lganda olib boriladigan profilaktik tadbirlarni bajarish.
O‘quv rejaga muvofik o‘zaro bog’liq bo‘lgan fan nomi	“Mikrobiologiya“ “Yuqumli kasalliklar“ “Tibbiy parazitologiya va epidemiologiya asoslari“ “ Analitik kimyo“ “Umumiy gigiyena va ekologiya“
O‘qitishni tashkiliy shakli	N - Nazariy ta’lim; A - Amaliy ta’lim; NA - Nazariy va amaliy ta’lim birgalikda tashkil etiladi; MX - Maxsus xonada o‘tkaziladigan mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshirik

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O’ qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’ lim
1	**Dezinfeksiya ishi fanining, maqsadi, vazifalari, fanga xissa qo‘shgan olimlar.**	Dezinfeksiya ishi fani haqida tushuncha, uning maqsadi, vazifalari, dolzarbligi. Fanning rivojlanish tarixi, boshqa tibbiy fanlar bilan bog‘liqligi. Yuqumli kasalliklarning oldini olishda dezinfeksion tadbirlarni ahamiyati. Fan rivojlanishida o‘zbek va rus olimlarining qo‘shgan xissasi. Hozirgi vaqtda zamonaviy dezinfeksiya vositalaridan samarali foydalanish va uning turlari.	2	N-2	2
2	**Dezinfeksiyanin g turlari, usullari va vositalari.**	Dezinfeksiyaning amaliyotdagi ikki turi, ularning farqi. Mexanik, fizik, kimyoviy va biologik usullari haqida umumiy ma’lumotlar, qo‘llanilishi va ta’siri. Kimyoviy vositalarni saqlash va samarali qo‘llash uchun zarur shart-sharoitlari, eng muhim dezinfeksiyalovchi moddalarning xususiyati. Mukammal va joriy tozalov ishlarini o‘tkazish. Dezinfeksiyalovchi moddalarni tashqi ko‘rinishi, suvda eruvchanligi, rangi, xidi va bir-biridan farqini aniqlash qoidasi. Yuqori foizli suyuq xoldagi asosiy dezinfeksiyalovchi eritmani tayyorlash dezinfeksion vositalar yordamida zararsizlantirish uchun suv va xlor kukunini xisoblash va undan ishchi eritma tayyorlash. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqarilgan buyruqlar asosida ishlash.	4	A-4	2
3	**Davolash-profilaktika muassasalarida joriy dezinfeksiyani o‘tkazish qoidalari**	DPM larda dezinfeksiya ishlarini tashkil qilish, olib borish va uni nazorat kilish. Poliklinika, tug‘rukxona, jarrohlik bo‘limlari va yuqumli kasalliklarda dezinfeksiya o‘tkazish qoidasi. Joriy va yakunlovchi dezinfeksiya o‘tkazish va uning inson sog‘ligi uchun ahamiyati.	6	N-2 A-4	2
4	**Infeksiyalarning ayrim guruhlari uchun**	Ichak infeksiyalari (vabo, dizenteriya, virusli gepatit A va boshqa) o‘chog‘ida dezinfeksiya ishlari. Nafas yo‘llari infeksiyalari (meningokokkli, bo‘g‘ma, gripp va	6	N-2 A-4	2

	bajariladigan dezinfeksiyasi.	boshqa) bo‘limida olib boriladigan dezinfeksiya tadbirlari. Sil kasalligi va kon infeksiyalari o‘chog‘ida dezinfeksiyani olib borilishi va uning inson sog‘ligi uchun ahamiyati. Tashqi muhit (oshxona idishlari, oqliklar, o‘yinchoq) obyektlari va bemor buyumlarini zararsizlantirish qoidalari, qo‘llaniladigan eritma va ta’sir etuvchi vaqti(ekspozisiya)ning ahamiyati. Transport vositalarining dezinfeksiyasi.			
5	**Dezinfeksiya sifatini nazorat qilish.**	Dezinfeksiya sifatini nazorat qilishda ishning borishini ko‘zdan kechirish, bakteriologik, kimyoviy usullardan foydalanish. Zararsizlantirilgan tashqi obyektlardan surtmalar olish qoidasi. Dezinfeksiyalovchi vositaning kerakli miqdorini belgilash va uni amalda qo‘llash.	4	A-4	2
6	**Sterilizatsiya haqida tushuncha.**	Sterilizasiya haqida tushuncha, uni dezinfeksiyadan farqi. Aseptika va antiseptika qoidalari. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda sterilizasiyaning ahamiyati, roli va uning samaradorligi. Sterilizasiya usullari (bo‘g‘, havo,gaz, kimyoviy yo‘li bilan) va jihozlari.Sterilizasiya turlari(yuqori bosimli bo‘g‘ bilan ishlash, nurlash yo‘li bilan, gaz yordamida). Sterilizasiya xususiyatlari.	2	N-2	2
7	**Tibbiy jihozlar sterilizasiyasi, markaziy sterilizasiya bo‘limi (MSB)ning ishi. Sterilizasiya samaradorligini nazorat qilish.**	Tibbiyot jihozlarini dezinfeksiya, sterilizasiya qilish qoidasi. Instrumentlarni sterilizasiyadan oldingi tozalov ishlaridan o‘tkazish, cterilizasiya sinamalarini o‘tkazish tartibi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Sterilizasiya qilishni tekshirish. MSBlarga qo‘yiladigan talablar va amalga oshiriladigan tadbirlar. MSBning strukturasi, ish qoidalari. DPM larda MSB ning ish qoidasi. Sterilizasiya bo‘limining sanitariya-gigiyena hamda sanitariya-texnik jihozlarni ko‘zdan kechirish. Sterilizasiya rejimini nazorati. MSB da tibbiy hujjatlarni yuritilganligini tekshirish. Tibbiy asbob-uskunalarni sterilizasiyadan o‘tkazish uchun ularni bo‘limdan qabul qilish va oldingi ishlovini tekshirish qoidasi. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqarilgan amaldagi buyruqlar asosida asboblar sterillanganligining sifatini nazorat qilish.	8	A-8	4
8	**Dezinseksiya haqida tushuncha, maqsadi, usullari. Asosiy dezinseksiyalovchi moddalar, repellentlar.**	Dezinseksiya haqida tushuncha, uning maqsadi, vazifalari va uning ahamiyati. Bo‘g‘imoyoqlilarning biologik xususiyatlari, epidemiologik ahamiyati, zararli turlari va ularni yuqumli kasalliklar tarqalishidagi roli. Dezinseksiya tadbirlari, usullari-mexanik, fizik, kimyoviy, biologik. Bug‘imoyoklilarga qarshi kurash chora tadbirlari. Keng qo‘llaniladigan dezinseksiyalovchi preparatlar ro‘yhati, klassifikasiyasi, xususiyati. Insektisidlarning turlari	6	N-2 A-4	4

		(ichak, kontakt, sintetik, insektisidlar) ta'sir qilish mexanizmi. Repellentlar, ularning turi, ta'sir qilish mexanizmi, qo'llanilishi. Dezinseksiyalovchi preparatlarning tashqi ko'rinishi, bir-biridan farqi, xususiyati. Insektisidlardan eritma, suspenziya, emulsiyani tayyorlash qoidasi, qo'llash usullari. Turli xil obyektlarni dezinseksiya qilish uchun kerakli preparatlar miqdorini aniqlash. Insektisidlarni tayyorlash va ishlatishda texnika havfsizligi, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish.			
9	**Bo'g'imoyoqlilarning ayrim turlariga qarshi kurash tadbirlari.**	Ayrim bo'g'imoyoqlilar guruhi uchuvchi bo'g'imoyoqlilar (bit, burga, pashsha, chivin, kanalar), ularning bir-biridan farqi va yuqumli kasalliklar tarqalishidagi roli.Ularga qarshi kurash chora tadbirlari. Dezinseksiyani o'tkazish jarayonida qo'llaniladigan dori-vositalarining turi, foizi, ekspozisiya ahamiyati. Turmushda uchraydigan hashoratlarga qarshi kurash(suvaraklar, sarik chumoli), ularni qirish choralari. Qon infeksiyalarida bo'g'imoyoqlilarni tashuvchi sifatida ahamiyati, o'choqda o'tkaziladigan dezinseksiyaning xususiyati. Yuqumli va somatik kasalliklar shifoxonasi qabul bo'limida pedikulyozni aniqlash va sanitariya tozalovini o'tkazish, ko'llaniladigan vositalar, ekspozisiya vaqti, ehtiyot choralari. Entomologiya bo'limining ishi, hujjatlari.	6	N-2 A-4	4
10	**Dezinfeksiya va dezinseksiya uchun ishlatiladigan apparatlar. Dezinfeksion kameralar.**	Dezinfeksiya va dezinseksiya o'tkazish uchun ishlatiladigan apparatlar, uning turlari, ishlatish tartibi (avtomaks, gidropult, dezinfal, flit,. Suyuqlik purkagich apparat(avtomaks, gidropult, dezinfal, flit)larning tuzilishi, ishlatish qoidalari. Chang yutgich apparatining ishlatish xususiyati, aerozolli apparatlarni ishlatilishi. KDF-3 dezinfeksiya kamerasi, elektr toki yordamida ishlovchi TSNIDI dezokamerasi,harakatlanadigan dezinfeksiya kameralari). Dezinfeksion kameralar haqida tushuncha, turlari, tuzilishi qismlari, ishlatish qoidasi, ish yuritish jurnallari. Buyumlarni zararsizlantirish xususiyati. Dezinseksiyalovchi kamera turlari, ishlash qoidasi. Buyumlarni dezinfeksion kameralarda zararsizlantirish rejimi, sanitariya jihatidan ishlov berish. Dezinfeksiya kameralar ishini nazorat qilish, hujjatlarni to'ldirish qoidasi.	10	N-2 A-8	4
11	**Deratizasiya haqida tushuncha, maqsadi,**	Kemiruvchilar oilasi haqida tushuncha, biologiyasi, turlari. Yuqumli kasalliklar tarqalishida kemiruvchilarning epidemiologik ahamiyati. Deratizasiya tushunchasi, maqsadi, vazifasi, usullari.	2	N-2	2

	usullari.	Deratizasiyaning sanitariya va texnik tadbirlari va samaradorligini tekshirish. Laboratoriya jixozlari bilan tanishish. Ratisidlar. Zaharli xo‘raklar tayyorlash, saqlash va ularni amalda qo‘llash. Xavfsizlik qoidalari, zaharlanish belgilari va zaharlanishda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.			
12	**Kemiruvchilarga qarshi kurash tadbirlari, vositalari. Zaharli xo’rraklarni tayyorlash va qo‘llash**	Kemiruvchilarga qarshi kurashda qo‘llaniladigan profilaktik va qirish tadbirlari. Aholi yashaydigan punktlarda deratizasiya tadbirlarini tashkil etish. Deratizasiya tadbirlarini samaradorligini tekshirish. Kemiruvchilarni bir-biridan farqi (kalamush, sichqon, qum va dala sichqonlar). Kemiruvchilarni ovlash qurollari, ularning tuzilishi, ishlash tamoyili. Ratisidlar xususiyati, tashqi ko‘rinishi, qo‘llanilishi. Zaharli xo’rraklarni tayyorlash usullari va qo‘llanilishi, uni saqlash qoidalari, talabnoma asosida tayyorlash.	10	N-2 A-8	4
13	**Profilaktika va epidemiyaga qarshi kurash chora - tadbirlari. Dezinfeksiya ishlarini tashkil qilish . Mehnatni muhofaza qilish, kadrlar tayyorlash.**	Profilaktik va o‘choqli dezinfeksiya bo‘yicha O‘zR SSV-ning amaldagi buyruqlar va uslubiy tavsiyanomalari. Dezinfeksiya ishlarni tashkil etishda dezinfeksion stansiyaning ishi, bo‘limlari, hujjatlari (yillik, yarim yillik, kvartal xisobot jurnallari). Dezinfeksiya ishida mehnatni muhofaza qilish qoidalari. Sog‘liqni saqlash tizimida kadrlar tayyorlash. Instruktor-dezinfektor vazifalari. Dezinfeksion moddalarni saqlash qoidalari. Dezinfeksiya va deratizasiya paytida extiyot choralariga rioya qilish. Dezinfeksion moddalar bilan zaharlanish va zaharlanganda birinchi tibbiy yordam. Dezinfeksion stansiya, viloyat, shaxar, tumandagi dezinfeksiya bo‘limi strukturasi, funksional vazifalari. Dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizasiya ishlarini rejalashtirish, tibbiy hujjatlarni yuritish qoidalari. Infeksiya o‘chog‘ida qo‘llaniladigan himoya kiyimining tiplari, uni kiyish va yechish qoidasi. Aholi o‘rtasida sanitariya-targ‘ibot ishlarini olib borish .	6	N-2 A-4	2
Jami			**72**	**N-20 A-52**	**36**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baxolash

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular uquv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

4.Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Prezident asarlari:

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” Toshkent – “O‘zbekiston” 2020 y.

2. Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.Toshkent – “O’zbekiston” 2019 y
3. Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y
4. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y

Asosiy adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublika SSVning Sanitariya Qoida va Me’yorlari, buyruqlari
2. Aholining sanitariya- epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida Qonuni
3.M.R.Tilovov, A.R.Rustamov, S.A.Mustafoyev “Dezinfeksiya ishi” Toshkent, “Ilm Ziyo” nashriyoti, 2007 yil.
4. Belaya I. K. «Dezinfeksiya» Moskva, 2013
5. Tsiganova S. V. «Dezinfeksiya, deratizasiya, dezinseksiya» Moskva, 2012
6. Osipova V. L. «Uchebnoye posobiye po dezinfeksii». 2012 yil, GeoTarMed 2017
7. Ushakova V. N. «Moyka i dezinfeksiya». «Professiya» nashriyoti, 2009 yil

Internet manbalari

1. http://www.ziyonet.uz/
2. http://www.lex.uz/
3. http://www.google.com/

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

KOMMUNAL GIGIYENA
fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikasiya nomi: **Tibbiy profilaktika ishi feldsheri**
O‘quv rejadagi tartib raqami: **2.07**

Ajratilgan soat: **120**

Toshkent – 2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi:

D.A.Jabborova 2 – Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi “Gigiyena va laboratoriya” kafedrasi mudiri

Taqrizchilar:

Z.Z.Kadirov Yunusobod tumani Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi qo’mitasi bo’limi boshlig’i

F.I. Salomova TTA “Atrof-muhit gigiyenasi” kafedrasi mudiri

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Kommunal gigiyena**
Ajratilgan soat	120
Mavzular soni	10
Dasturning maqsadi	Tashqi muhit omillari bo‘lgan suv, havo, tuproqning turli tuman kimyoviy moddalar, sanoat hamda xo‘jalik chiqindilari, texnik vositalaridan ajralayotgan gazlar, nurlanishlar, zaharli moddalar va mineral birikmalar bilan muntazam ifloslanib turadi. Bunga asosiy sabablar sanoat va qishloq ho‘jaligida keng ko‘lamda yuqoridagi birikmalarni ishlatilishi, tuproqni o‘g‘itlash, aholi sonining ortishi hisobiga xo‘jalik chiqindilarining me’yorini oshishi, issiqlik elektr stansiyalari va transport vositalaridan chiqayotgan turli zararli moddalar, ochiq suv manbalari, yer osti suv manbalarini ifloslanishi, qishloq ho‘jalik zararkunandalariga qarshi kurashishdir. Bundan tashqari sanoatning zo‘r berib rivojlanishi shahar atmosfera havosini o‘zgarishiga olib keladi. Ekologiya muammolarini hal qilish. Suv manbalari holatini, aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlashda suv manbalarini tanlashga qo‘yiladigan gigiyenik talablar, suvni zararsizlantirish usullari o‘rganiladi. Turar joy va jamoat binolarini, davolash profilaktika muassasalari, madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish binolarni qurilishiga qo‘yiladigan gigiyenik talablarni o‘rganish. Atmosfera havosi, tuproqni va ichimlik suvini sifatiga baho berish uchun atmosfera havosidan, tuproqdan va suvdan sinamalar olib, organoleptik, bakteriologik, fizik-kimyoviy tekshirishlar o‘tkaziladi. Sanitariya-gigiyena laboratoriyalari. Barcha kommunal obyektlarini sanitariya-gigiyenik tomonidan tekshirishlarni amalga oshirish va tegishli hujjat formalarini to’ldirib, tahlilini olib borish.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	-Respublikamizda ekologik vaziyatni yaxshilash choralarini ishlab chiqish va qo’llanilishini nazorat qilish; - O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan chiqariladigan buyruq va qarorlar asosida ishlash; - dunyo miqyosida va O‘zbekistondagi ekologik muammolarni, ularni hal etishda tibbiy profilaktika ishi feldsherining rolini o‘quvchilar ongiga singdirish; - tashqi muhit omillarini organizmga ta’sirini oldini olish shakllanadi; - insonlar sog‘lig‘ini saqlash uchun eng muvofiq sog‘lomlashtiruvchi chora-tadbirlar ishlab chiqiladi; - kasalliklar kelib chiqishini oldini olish, tabiiy ekologik muvozanatni saqlash o‘rganiladi; - aholi turar joylari, davolash profilaktika muassasalari, madaniy-maishiy xizmat binolari ichidagi mikroiqlimga, yoritilganlikka baho berish va tibbiy hujjatlarni rasmiylashtiriladi; - shahar va qishloqlarni chiqindilardan tozalash va chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha choralarini ishlab chiqish va nazoratga olinadi; - aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlash, suvni zararsizlantirish usullari o‘rganiladi; - turar joy va jamoat binolarini, davolash-profilaktika muassasalari, madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish binolarni loyihalashtirish va qurilishiga

	qo‘yiladigan gigiyenik talablarni o‘rganiladi. - havo, suv va tuproqdan sinamalar olish, ularning holatiga baho beriladi va tahlil qilinadi; - zamonaviy asboblardan foydalanib, kerakli tekshiruvlarni amalga oshirishga zamin yaratiladi; - kasalliklarni oldini olish va profilaktikasi to‘g‘risida nazariy va amaliy bilimlar shakllanadi.
Bilim	- kommunal gigiyena fanining vazifalari va rivojlanish tarixi, sanitariya gigiyenik tekshirish usullari va turlari; -axolining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risidagi qonun, sanitariya statistika va dinamik kuzatish usullari; -havoning gigiyenik va epidemiologik ahamiyati, aerogen infeksiyalar to‘g‘risidagi tushuncha, havoning fizik va kimyoviy xususiyatlari, ob-havo, iqlim, akklimatizasiya, atmosfera havosining ifloslantiruvchi manbalar; -atmosfera havosini sanitariya-gigiyenik jihatdan muhofaza qilish va unga qaratilgan chora-tadbirlar; -ichimlik suviga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Suvning epidemiologik jihatdan xavfsizligini ta’minlash, suvni kimyoviy tarkibiga ko‘ra zararsizligini ta’minlash, suvni sanitariya me’yor va qoidalari va davlat standartlari talablariga keltirish; -suv havzalarining himoya mintaqasi va ular ustidan sanitariya nazoratini o‘rnatish, suv havzalarini himoya mintaqalari, suvni yuqumli kasalliklar tarqalishidagi roli; -tuproqning gigiyenik ahamiyati, infeksion va invazion kasalliklar tarqalishidagi roli, aholi soniga qarab konteynerlar sonini belgilash; -chiqindilarni zararsizlantirish usullari, ularni qayta ishlash, sanitariya qoidalarini buzganlik to‘g‘risida dalolatnoma to‘ldirish va tartibga solish qoidalari; -kanalizasiya tarmoqlarining turlari va ularning ahamiyati, chiqindi to‘planadigan va ularni zararsizlantiradigan maydonchalarni loyihalash va ularning pasportini tuzish; - turar joy binolariga ta’sir etuvchi omillar, xonalardagi mikroiqlimni manbalarining turlari, yoritilishiga gigiyenik baho berish, tabiiy yorug‘lik arning havo almashinish darajasi; -davolash-profilaktika muassasalari loyihasini tahlil qilish, poliklinikalar ishini tashkil etish qoidalari, davolash-profilaktika muassasalaridagi sanitariya-epidemiologik rejim, qishloq vrachlik punktining tuzilishi, qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko‘rsatish; -dorixonalar, dispanserlar ustidan davlat sanitariya nazorati o‘rnatish; -hammomlar, sartaroshxonalar, kirxonalar, cho‘milish hovuzlari, ularning turlari, gigiyenik va epidemiologik ahamiyati, qurilishining sanitariya normalari; -madaniy-maishiy muassasalarini sanitariya nazoratidan o‘tkazish; -zaharli ximikatlarning tashqi muhit obyektlari uchun me’yori, kasb kasalliklarini oldini olish chora-tadbirlari, atrof-muhitning zaharli moddalar bilan ifloslanishini oldini olish.
Ko‘nikma	-SEO va JSQ ning kommunal gigiyena bo‘limining ish rejasini tuzish, rasmiy va hisobot hujjatlari bilan ishlash, dalolatnoma to‘ldirish, ekologik muhit omillarini aniqlash, ekologik nazorat to‘g‘risidagi qonunni o‘rganish;

	-havo harorati, namligi, harakat tezligi, atmosfera bosimini zamonaviy asboblar yordamida aniqlash, ishlash prinsiplarini o‘rganish va hisoblab tahlil qilish; -havodan sinama olish, havodagi zaharli gazlarni aniqlash, havoni ifloslantiruvchi manbalarni sanitariya jihatidan tekshirish va me’yoriy hujjatlarini to‘ldirish; -suvdan sinama olish, yo‘llanma varaqasini to‘ldirish, suvning fizik, organoleptik, kimyoviy ko‘rsatkichlarini aniqlash, quduq suvlarini xlorlash; - oqava suvlarning fizik va kimyoviy xususiyatlarini tekshirish, biologik moddalarga sarf bo‘lgan kislorodni aniqlash; -suvning koli-titr va koli-indeksini aniqlash, suv havzalari ustidan davlat sanitariya nazorati o‘tkazish, hujjatini to‘ldirish; -tuproqni sinamaga olish, uning fizik xossalari va zaharli kimyoviy moddalarni aniqlashga tekshirish, tuproqning donadorligini va undagi gijja tuxumlari soni, ichak tayoqchasi titrini aniqlash, joriy sanitariya nazorati o‘tkazish; -turar - joy binolarida mikroiqlim omillarini, shovqin darajasini, tabiiy yorug‘lik koeffisiyentini aniqlash va bayonnoma to‘ldirish; - shifoxonalarda, poliklinikalarda yorug‘lik koeffisiyentini aniqlash va uni gigiyenik baholash, shifoxonalarda bir bemorga to‘g‘ri keladigan yer maydonini aniqlash, boks va yarim bokslardagi gigiyenik talablarni baholab, tahlil qilish; - dorixonalarga sanitariya-gigiyenik baho berish; -madaniy-maishiy binolarni sanitariya jihatdan tekshirish, hammomlarni, kirxonalarni, cho‘milish hovuzlarini va sartaroshxonalarni sanitariya-gigiyenik jihatdan nazorat qilish, hujjat shakllarini to’ldirish va dezinfeksiyasi.
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fan nomi	“Umumiy gigiyena va ekologiya” “Yuqumli kasalliklar” “Mehnat gigiyenasi” “Kasb kasalliklari” “Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi” “Radiasion gigiyena” “Analitik kimyo” “Dezinfeksiya ishi”
O‘qitishni tashkiliy shakli	N – nazariy ta’lim; A – amaliy ta’lim; NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar; MX – maxsus xonalarda mashg‘ulot
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol – javob, munozara, test, amaliy topshiriq. Joriy va yakuniy nazorat

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	jami	O‘ qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’ lim
1	**Kommunal gigiyena fanining rivojlanish tarixi, maqsadi va vazifalari. Ekologiya. Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida tushuncha.**	Kommunal gigiyena fani, uning maqsadi va vazifasi, rivojlanish tarixi, fanning rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar. Kommunal gigiyena fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi. Davlat sanitariya nazorati haqida tushuncha. Ekologiya va kommunal gigiyena. Ekologik muammolar. Ekologik muhit omillarining organ va sistemalarga ta’siri. Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida tushuncha. Axolining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi. Uning vazifa va bosqichlari, me’yoriy gigiyenik hujjatlar. Tibbiy profilaktika ishi fel’dsherining sohadagi xuquq va burchlari. SEO va JSQ ning Kommunal gigiyena bo‘limini ishi bilan tanishish. Bo‘limining ish rejasi asosida sanitariya vrachi yordamchisining ish rejasini tuzish, hisob va hisobot hujjatlarini rasmiylashtirish. Sanitariya-gigiyena laboratoriyalari.	6	N-2 A-4	2
2	**Havo gigiyenasi, havoning gigiyenik va epidemiologik ahamiyati.**	Havo gigiyenasi. Havoning kimyoviy va fizik xususiyatlari. Havoni muhofaza qilish davlat standartlari, qonunlari va sanitariya me’yorlar va qoidalari. Havoning yuqumli kasalliklar tarqalishidagi roli. Iqlim va mikroiqlimni organizmga ta’siri. Akklimitizasiya. Havoning fizik xususiyatlarini tekshirish uchun namuna olish, havo harorati, namligi, havoning harakat tezligi, atmosfera bosimini aniqlash. Asbob va jihozlar bilan ishlash. Tekshirish natijalarini tahlil qilish va protokol to‘ldirish, sanitariya nazoratini o‘rnatish.	20	N-4 A-16	8
3	**Atmosfera havosini muhofaza qilish va unga qaratilgan sanitariya-texnik chora-tadbirlar.**	Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar va ularga gigiyenik baho berish. Atmosfera havosini tozaligini muhofaza qilish davlat standarti. Kimyo sanoatida atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar, ularning gigiyenik ahamiyati. Atmosfera havosi ifloslanishini oldini olish yo‘llari. Sanitariya tadbirlari. Atmosfera havosi bo‘yicha joriy sanitariya nazoratini o‘tkazish. Havodan sinama olish va hujjat to‘ldirish, kimyoviy tarkibini aniqlash. Havodagi zaharli gazlarni UG-2 (universal gazoanalizator) da aniqlash. Atmosfera havosini changlanish darajasiga baho berish. Changli korxonalar ustidan sanitariya nazorati o‘rnatish.	12	N-4 A-8	4
4	**Suv gigiyenasi, suvning gigiyenik, epidemiologik ahamiyati.**	Aholi turar joylarini toza ichimlik va xo‘jalik suvlari bilan ta’minlash. Suv manbalari va uning sanitariya holatining ahamiyati. Ochiq suv manbalari, ularning ahamiyati. Suv va salomatlik. Suv tarkibidagi mikroelementlar va ularning gigiyenik ahamiyati. Markazlashgan vodoprovod suvi	22	N-6 A-16	10

		uchun suv havzalarini tanlash. Suv havzalarining sanitariya-muhofaza zonalarini ahamiyati. Suv olish inshootlari uchun joy tanlash. Suv sifatini yaxshilash usullari. Aholini markazlashmagan ichimlik suvi bilan ta'minlash va uning gigiyenik ahamiyati. Suv havzalarining o'z-o'zini tozalanish jarayoni. Ichimlik suvidan sinama olish usullari, yo'llanma varaqasini to'ldirish. Suvning fizik xususiyatlari: suvni rangi, mazasi, xidi, tiniqligi, harorati, loyqaligini aniqlash usullari. Suvning kimyoviy tarkibini aniqlash: ishqoriyligi, qattiqligi, oksidlanishi, xloridlar, sulfatlar, azot birikmalarini aniqlash, suvda erigan kislorod miqdoriga baho berish. Ichimlik suvi sifatiga baho berish va iste'molga yaroqliligini aniqlash, xulosa yozish. Suv manbalarini sanitariya jihatdan tekshirib, dalolatnoma tuzish.			
5	**Suv havzalarini sanitariya jihatdan muhofaza qilish.**	Suv havzalarining o'z-o'zini tozalash jarayoni. Ochiq suv havzalariga chiqindi suvlarni tashlash qoidalari. Chiqindi suvlarni tozalash. Chiqindi suvlar uchun tindirgichlar (biologik suv havzalari, biofiltrlar, aerofiltrlar, aerotenklar) tuzilishi. Xo'jalik chiqindi suvlarini tozalashda foydalanadigan inshootlar. Aholi joylashgan binolarning kanalizasiyasi va ularning ahamiyati. Sanoat korxonalarining chiqindi suvlarini zararsizlantirish usullari. Chiqindi suvlarni zararli moddalardan tozalash. Ochiq suv havzalarining sanoat chiqindi suvlari bilan ifloslanishini kamaytirish chora-tadbirlari. Tozalash inshootlarida chiqindi suvlarini zararsizlantirish usullari bilan tanishish. Tozalash inshootlarida chiqindi suvlarini rangsizlantirish, dexlorlash, ozonlash, dezodorasiya qilish.Suv havzalari ustidan Davlat sanitariya nazoratini o'rnatish.	1 2	N-4 A-8	8
6	**Tuproq gigiyenasi, tuproqni gigiyenik, epidemiologik ahamiyati.**	Tuproqning gigiyenik va epidemiologic ahamiyati. Tuproqning fizik xossalari. Tuproqning o'z-o'zini tozalash jarayoni. Turar-joylarni chiqindilardan tozalashning gigiyenik va epidemiologik ahamiyati. Chiqindilarni yig'ish me'yori va tasnifi. Turar-joylarda yig'ilgan chiqindi-axlatlardan tuproqni muhofaza qilish. Axlatlarni zararsizlantirish va ulardan qayta foydalanish. Chiqindi turlari. Suyuq axlatlarni yig'ish,tashib ketish va zararsizlantirish qoidalari. Tuproqdagi zaharli moddalarni ruxsat etiladigan konsentrasiyasi-REK SanQvaM bo'yicha o'rganish. Xo'jalik suyuq chiqindilari, kanalizasiyasi. Turar-joylar ozodaligini saqlashda olib boriladigan Davlat sanitariya nazorati. Aholi yashash joylarida tuproq tarkibini gigiyenik baholash. Tuproqdan laboratoriyada tekshirish uchun sinama olish, yo'llanma varaqasini to'ldirish. (fizik, kimyoviy, bakteriologik va gelmintologik tekshirish). Tuproqning donadorligini, g'ovakligini aniqlash. Tuproq	1 2	N-4 A-8	8

		tarkibidagi kimyoviy moddalar miqdorini aniqlash uchun undan ekstrakt tayyorlash. Tuproqning zaharli moddalar bilan ifloslanganligini aniqlash. Chiqindilarni qayta ishlash va ularni ko‘mishni nazorat qilish usullari. Kanalizasiya tarmoqlarini nazorat qilish usullari. Aholi yashash joylarini chiqindilardan tozalash bo‘yicha joriy sanitariya nazoratini o‘rnatish.			
7	**Turar joylar gigiyenasi, aholi yashaydigan joylarni loyihalashtirish.**	Turar-joyning gigiyenik ahamiyati. Turar-joylar mikroiqlimi va isitish turlari. Xonadagi havo tarkibi va ventilyasiya. Xonalarni yoritish va ularga quyosh nuri tushishining gigiyenik ahamiyati. Uy-joy qavatlarining gigiyenik ahamiyati. Yotoqxonalarni qurish va ularga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Aholi yashaydigan joylarni loyihalashtirish, tabiiy sharoitlar va ularning gigiyenik ahamiyati. Shahar shovqiniga qarshi sanitariya nazorati o‘rnatish. Shahar xududlarini funksional zonalarga bo‘lish. Sanoat korxonalari joylashgan zonalar va kommunal obyektlar gigiyenasi. Turar- joylarni loyihalashda, qurishda va obodonlashtirishda Davlat sanitariya nazoratini olib borish. Aholi turar joylarida havoning fizik omillarini, yoritilganligini gigiyenik ahamiyati va ularni aholi sog‘lig‘iga ta’sirini o‘rganish, me’yoriy hujjatlarni to‘ldirish. Aholi yashaydigan xonadonlar, ko‘p qavatli uylarni sanitariya holatini tekshirib, mikroiqlimiga baho berish, dalolatnoma yozish. Shahar shovqiniga qarshi sanitariya nazorati o‘rnatish.	8	N-4 A-4	6
8	**Davolash-profilaktika muassasalari gigiyenasi.**	Davolash-profilaktika muassasalari turlari. Shifoxonalarni qurish uchun yer maydonlarini tanlash. Shifoxona, tug‘ruqxona va poliklinika xonalarida yoritilganlik, sun’iy iqlim yaratish chora-tadbirlari. Shifoxonalar binolariga, hovlisiga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Shifoxonalarning umumiy tartibi va ichki jihozlanish me’yorlari. Dorixonalarni loyihalashtirish va jihozlanishiga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. SanQvaM bo‘yicha o‘rganish. Dorixonalar, tayyor dori preparatlari ustidan sanitariya nazoratini o‘rnatish. Dispanserlarga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Davolash-profilaktika muassasalarida ishlovchi xodimlarning shaxsiy gigiyenasiga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Shifoxona, tug‘ruqxona, poliklinika ishini tashkil qilishni o‘rganish. Shifoxona va poliklinikalarda sun’iy va tabiiy yoritilganlikni aniqlash va gigiyenik baholash. Shifoxonaning bemorlarni qabul qilish bo‘limi ishi bilan tanishish. Yuqumli kasalliklar shifoxonalarini epidemiologik rejimiga rioya qilishni nazorat etish. Bemorlarning yotoq joylari va ularning shaxsiy gigiyenasiga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Dorixonalarni sanitariya jihatdan	12	N-4 A-8	4

		tekshirib, dalolatnoma tuzish. SanQvaM bo‘yicha o‘rganish.			
9	**Madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish binolari gigiyenasi.**	Hammomlar, kirxonalar, sartaroshxonalar cho’milish hovuzlarining turlari, ularning gigiyenik va epidemiologik ahamiyati, ish tartibini, sanitariya rejimini nazorat qilish. SanQvaM bo‘yicha o‘rganish. Hammomlar,kirxonalar, cho‘milish hovuzlari (basseyn), sartaroshxonalarni sanitariya-gigiyenik jihatdan tekshirish. Me’yoriy hujjatlarni to‘ldirish.	12	N-4 A-8	4
10	**Zaharli kimyoviy moddalar gigiyenasi.**	Zaharli kimyoviy moddalar tasnifi. Tuproqda zaharli moddalarning ruxsat etiladigan konsentrasiyasini SanQvaM bo‘yicha o‘rganish. O‘simliklarni himoya qilishda ishlatiladigan kimyoviy vositalar, ularning inson salomatligiga ta’siri. O‘tkir va surunkali zaharlanishlar va ularning profilaktikasi. Pestisidlar.	4	4N	6
	Jami:		**120**	**N-40 A-80**	**60**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash.

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonilan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol – javob, test, joriy va yakuniy nazorat hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

4.Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Prezident asarlari:

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” Toshkent – “O‘zbekiston” 2020 y.
2. Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.Toshkent – “O’zbekiston” 2019 y
3. Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y
4. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y

Asosiy adabiyotlar:

1. Sh.T.Otaboyev, T.I. Iskandarov “Kommunal gigiyena” Toshkent, Sihat-salomatlik 2007 yil.
2. M.A.Adilov, S.U.Magdiyeva, S.T.Narimova “Kommunal gigiyena” Toshkent ,
Ilm Ziyo nashriyoti 2007 yil.
34. S.S.Esonturdiyev. M.E.Qarshiboyeva “Gigiyena va sanitariya tekshirish usullari” Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2007 yil.
5. M.Azizov, S.Solixo‘jayev, Sh.Qambarova “Gigiyena” Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti, 2003 yil
6. M.A.Azizov “Umumiy gigiyena va ekologiya” Toshkent “Cho‘lpon” nashriyoti, 2014 yil
7. I.Xolliyev, A.Ikromov “Ekologiya” Toshkent, “Mehnat”, 2001 yil
8. A.Nikbayev “Jamiyat sog‘liqni saqlash va tibbiyot statistikasi”
Toshkent “Ilm -Ziyo” nashriyoti 2005 yil.
9. V.Sh.Ergasheva. “Ovqatlanish gigiyenasi” o‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent. “Top Image

Media” bosmaxonasi 2017 il
10. M.R.Tilovov, S.O.Turdiyev, A.M.Bozorov “Ovqatlanish gigiyenasi”
Toshkent, “Ilm Ziyo” nashriyoti, 2007 yil
11.O‘zbekiston Respublika SSVning Sanitariya Qoida va Me’yorlari -
2005- 2017 yillar
12. Aholining sanitariya- epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida qonuni,
T. 2015 yil
13.Melnichenko P.I., Arxangelskiy V.I., Kozlova D.A. “Gigiyena s osnovami ekologii cheloveka” darslik Moskva 2010
14. Enviromental health Dade W.Moeller Third Edition Garvard University Press Cambridge, Massachusetts London, England, 2005
15. Issues in environment, health, and pollution, USA 2011
16. Basic Principles in Occupational Hygiene October, 2010

Internet manbalari:

1. www.ziyonet.uz,
2. www.lex.uz.,
3. www.google.uz,
4. www.med.uz.,
5. www.referat.uz.,
6. www.tma.uz.,
7. www.gigiyena.uz.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

MEHNAT GIGIYENASI
fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikasiya nomi: **Tibbiy profilaktika ishi feldsheri**

O‘quv rejadagi tartib raqami: **2.08**

Ajratilgan soat: **96**

Toshkent – 2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi:

D.A Jabborova — 2 – Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi “Gigiyena va laboratoriya” kafedrasi mudiri

Taqrizchilar:

Z.Z. Kadirov — Yunusobod tumani Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi qo’mitasi bo’limi boshlig’i

F.I. Salomova — TTA “Atrof-muhit gigiyenasi” kafedrasi mudiri

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Mehnat gigiyenasi**
Ajratilgan soat	96
Mavzular soni	17
Dasturning maqsadi	Mehnat gigiyenasi fani o‘rganishdan maqsad mehnat gigiyenasiga oid qonunlar, me’yoriy qonuniy hujjatlar, mehnat fiziologiyasi asoslari, ishlab chiqarishning turli sohalarida mehnat sharoitiga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena me’yorlarni egallash. Obyektlarda Davlat sanitariya nazoratini tashkil etish va sanitariya nazoratini o‘tkazish tartibi, ishchilar organizmiga meteorologik omillar, nurlar, shovqin, tebranishlar, ultratovush, chang, atmosfera bosimi, yoritilganlik, ventilyasiya tizimi ta’siri, kasbga oid zararlar va zaharlanishlar, ular ta’sirida yuzaga keladigan kasb kasalliklari, kasallanishlar, mehnat sharoitiga bog‘liq shikastlanishlar, ayollar va o‘smirlar mehnati, tibbiy profilaktik chora tadbirlar, shuningdek, aqliy va jismoniy mexnatning fiziologik xususiyatlari, toliqish sabablari, ish jarayonida organ va sistemalarning zo‘riqishi, uning salomatlikka ta’sirini oldini olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	-mehnat fiziologiyasining asoslari, ishlab chiqarishning turli sohalarida mehnat sharoitiga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena me’yorlariga rioya qilishni singdiriladi; - sanitariya nazoratini o‘tkazish tartibini o‘rganiladi; - kasbga oid zararlar va zaharlanishlar, ular ta’sirida yuzaga keladigan kasb kasalliklari, mehnat sharoitiga bog‘liq shikastlanishlarni oldini olish; - ayollar va o‘smirlar mehnati, tibbiy profilaktik chora-tadbirlarni o‘rganiladi; - ishlab chiqarishda turli omillar: meteorologik sharoitlar, nurlanishlar, atmosfera bosimi, chang, shovqin, tebranish, ultratovushlar, gaz, kislota va ishqor bug‘lari, zaharli toksik moddalar, og‘ir mehnat, shikastlanish me’yor darajasini o‘rganiladi; - ishlab chiqarishda yoritilganlik, ventelyasiyani ahamiyatini hamda ishchilar o‘rtasida sanitariya-oqartuv ishlarini olib borish shakllantiriladi; - sanoat ishlab chiqarish korxonalari ustidan Davlat sanitariya nazorati o‘rganiladi; - kasalliklarni oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish tibbiy profilaktika ishi feldsherining vazifasi ekanligini o‘quvchilar ongiga singdiriladi.
Bilim	- mehnat gigiyenasi fani haqidagi tushuncha, rivojlanish tarixi, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining tasnifi, mehnatni gigiyenasi sohasida sanitar vrach yordamchisining huquq va burchlari; - mehnat gigiyenasi sohasida Davlat sanitariya nazoratining vazifasi va me’yoriyhujjatlari, aqliy va jismoniy mehnatning fiziologik xususiyatlari; - ish vaqtida organizmdagi fiziologik o‘zgarishlar, organ vasistemalarning zo‘riqib ishlashi va ish vaqtida tana vaziyatining uzoq vaqtgacha bir xilda bo‘lishi natijasida paydo bo‘ladigan kasbiy kasalliklar, ish vaqtida noto‘g‘ri vaziyatdan kelib chiqadigan kasalliklarni oldini olish choralari va hronometraj; - ishlab chiqarish korxonalarida mikroiqlim xususiyatlari vagigiyenik me’yorlari, mikroiqlimning salbiy ta’siri natijasidagi patologik xolatlar, organizm isib, sovub ketishining oldini olish choralari; - ishlab chiqarishdagi nurlanishning tasnifi, nur kasalligining kelib chiqish

	sabablari, klinik belgilari va oldini olish choralari va gigiyenik normalashning mohiyati, sanitariya epidemiologiya xizmati radiologik laboratoriyasining jihozlanishi, tuzilishi, ishlash jadvali; - yuqori va past bosimning organizmga ta’sir mexanizmi, kesson va tog‘ kasalliklarining patogenezi, klinikasi, davolash mohiyati va oldini olish choralari; - ishlab chiqarish changining tasnifi, fizik-kimyoviy xususiyatlari va uning gigiyenik ahamiyati, chang ta’sirida paydo bo‘ladigan kasalliklari; - ishlash zonasida havodagi chang miqdorini gigiyenik normalanishning mohiyati, ishlab chiqarish korxonalarida chang kasalliklarini oldini olish chora-tadbirlari; - shovqin va ultratovushlarning organizmga umumiy hamda spesifik ta’siri, ishlab chiqarishda shovqin va tebranishni gigiyenik normalashning mohiyati, ishchilarning shovqin, tebranish va ultratovushlarning salbiy ta’siridan muhofaza qilish chora-tadbirlari; - ishlab chiqarish zaharlari, zaharlarning organizmga tushish yo‘llari, ajralib chiqishi va organizmga ta’siri, eng muhim sanoat zaharlarining tasnifi, oldini olish choralari (qo‘rg‘oshin, tetraetilqo‘rg‘oshin, simob, xlor, organik erituvchilar va boshqalar), ruhsat etilgan miqdori; - ishlab chiqarishda ventilyasiyaning ahamiyati, sanoat ventilyasiyasining turi, ventilyasiya sistemasiga qo‘yiladigan sanitar-gigiyenik talablar, ventilyasion qurilmalarni tekshirish qoidasi; - ishlab chiqarishda yoritilganlik haqida tushuncha, ishlab chiqarishda yoritishni normalashning mohiyati, sanoatda yoritilganlik turlari, ishlab chiqarish korxonalarida yoritilganlikni yaxshilash uchun chora-tadbirlarni tashkil etish; - sanoat korxonalarini qurishda qo‘yiladigan gigiyenik talablar, binolarning loyihasi, sanitariya-maishiy xonalarining jihozlanishini, korxonalarning ichimlik suvi bilan ta’minlanishi; - sanoat obyektining sanitariya holatini o‘rganish (sanitariya pasporti), sexlarni qayta qurishda va yangi texnologiyani joriy etishda sanitar-gigiyenik talablar, xarakteristikasi, sanoat korxonalarining xalq ho‘jaligidagi ahamiyati; - sanoat tarmoqlari texnologik jarayonining gigiyenik xususiyatlari va asosiy kasbiy zararlari, umumiy va kasbiy xastaliklarning uchraydigan turlari, sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari; - viloyatlarda qishloq xo‘jaligining rivojlangan tarmoqlari, dehqonchilikda va chorvachilik, parrandachilikda mehnat sharoitlarining gigiyenik xarakteristikasi, zaharli ximikatlar bilan ishlash, saqlash, tarqatishga qo‘yiladigan gigiyenik talablar; - qishloq xo‘jaligida sog‘lomlashtirish tadbirlari, xalq xo‘jaligining, sanoatning rivojlanishida qurilish materiallarining ahamiyati, texnologik jarayonning gigiyenik xususiyatlari, asosiy ishlab chiqarish zararlar va sog‘lomlashtirish tadbirlari; - qurilish ishida individual himoya vositalari va texnika xavfsizligi. - ayollar va o‘smirlar mehnatini muhofaza qiluvchi asosiy ko‘rsatmalar; - sanitariya-targ’ibot ishlarining turi va usullarini qo‘llash, sanitariya-oqartuv ishlari olib boriladigan korxonalarning mehnat sharoitini o‘rganish;
Ko‘nikma	- mehnat gigiyenasi bo‘limining ish rejasiga asosan tibbiy profilaktika ishi feldsherining ish rejasini tuzish, rasmiy va hisobot hujjatlarini o‘rganish va

	to‘ldirish, mehnat gigiyenasi bo‘limidagi asosiy qonunlar va me’yoriyhujjatlar bilan ishlash; - korxonada ish davomida xronometraj tekshirishlar olib borish, kuzatish sxemasini tuzish va olingan ma’lumotlarni baholash, ishlab chiqarishdagi chalg‘ishlarni aniqlash maqsadida fiziologik tekshiruv ishlarini olib borish va olingan ma’lumotlarni tahlil qilish; - ishlab chiqarish sharoitida mikroiqlim, issiqlik nurlanishini o‘lchash, olingan natijalarni gigiyenik me’yorlar bilan solishtirib baholash; - SEO va JSQ ning radiologik laboratoriyalarida tekshiruv asboblari (dozimetrlar, radiometrlar) yordamida o‘lchash ishini olib borish va natijalarini tahlil qilish; - changlanish darajasini aniqlash uchun havodan namuna olish, sinamani tortish usulida aniqlab, olingan natijaga baho berish, ishlab chiqarish korxonalarida chang kasalliklarining oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berish; - ishlab chiqarish korxonalarida shovqin darajasini o‘lchash va natijalarni baholash, shovqin va tebranish manbai hisoblangan texnologik jarayonga hamda korxonalarni jihozlashga gigiyenik jihatdan baho berish, shovqin, tebranish va ultratovushdan muhofaza qilish bo‘yicha tavsiyalar berish; - laboratoriya analizi uchun havo sinamalarini olish, ekspress usuli yordamida havodagi zararli moddalarni aniqlash, metall aerozollarini aniqlash, kuchli ta’sir qiladigan moddalarni ishlatishda va saqlashda nazorat o‘tkazish; - kasbiy zaharlanishning oldini olish maqsadida sanitariya-targ‘ibot ishlarini olib borish, muntazam tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim bo‘lgan ishchilarni aniqlash; - ventilyasion qurilmalarni sanitariya jihatdan tekshirish, ventilyasiya sistemasi ustidan sanitariya nazorati o‘rnatish va uning samaradorligiga baho berish; - yoritish moslamalarining sanitariya xolatini tekshirish, ish joyidagi yorug‘likni o‘lchash, o‘lchov natijalarini baholash va dalolatnoma tuzish, sexda yorug‘likni yaxshilash uchun ko‘rsatma berish; - sanoat korxonalari vasanitariya-maishiy xonalarining holatini tekshirib, ichimlik suv va korxona hududiga gigiyenik baho berish; - sanoat korhonasining qurilishi va rekonstruksiyasi hamda yangi texnologiyani joriy etishda sanitariya nazoratini o‘tkazishga berilgan tavsiyalarning bajarilishini tekshirish; - sexni tekshirib, dalolatnoma tuzish, sanitariya kamchiligiga yo‘l qo‘yilganligi haqida bayonnoma to‘ldirish; - qishloq ho‘jalik obyektlarining sanitariya holatini tekshirish, ish sharoitini sog‘lomlashtirish, yuqumli, kasbiy xastaliklarning oldini olish to‘g‘risida tavsiya berish, pestisidlar saqlash, tarqatish va qo‘llash ustidan sanitariya nazorati o’rnatish; - mustaqil ravishda dalolatnoma tuzish va sanitariya-gigiyena qoidalarini buzganligi haqidagi protokol to‘ldirish, korxonalardagi ish sharoitini yaxshilash uchun sog‘lomlashtirish tadbirlarini belgilash.
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fan nomi	“Umumiy gigiyena va ekologiya” “Yuqumli kasalliklar” “Kommunal gigiyena” “Kasb kasalliklari” “Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi” “Radiasion gigiyena”

O‘qitishni tashkiliy shakli	N – nazariy ta’lim; A – amaliy ta’lim; NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar; MX – maxsus xonalarda mashg‘ulot
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol – javob, munozara, test, amaliy topshiriq. Joriy va yakuniy nazorat

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	jami		O‘ qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’ lim
1	**Mehnat gigiyenasi, uning ahamiyati, rivojlanish tarixi. Mehnat gigiyenasi sohasida Davlat sanitariya nazorati.**	Mehnat gigiyenasi fanining maqsad va vazifasi. Mehnat gigiyenasining rivojlanish tarixi. Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining tavsifi. Davlat sanitariya nazorati. Sanitariya epidemiologiya xizmatining mehnat gigiyenasi bo‘limi. Joriy sanitariya nazoratining vazifalari va bosqichlari. Mehnat gigiyenasi bo‘limi ishi bilan tanishish. Tibbiy profilaktika ishi feldsherining mehnat gigiyenasi bo‘limining ish rejasi asosida rejali jadval ishini tuzish. Shu bo‘limning hisob-hisobot ishlari bilan tanishish. Bo‘limda ish yuritishni o‘rganish.	6		N-2 A-4	2
2	**Mehnat fiziologiyasi asoslari**	Mehnat fiziologiyasining vazifasi. Mehnat va ish faoliyati tasnifi, uning yangi turlari. Aqliy va jismoniy mehnatning fiziologik xususiyatlari, mehnat og‘irligini baholash kriteriylari, ish vaqtida organizmdagi fiziologik o‘zgarishlarning kuzatilishi. Toliqishning paydo bo‘lishi, uni kelib chiqish sabablari hamda obyektiv va subyektiv belgilari. Aqliy va jismoniy mehnatning organ va sistemalarga ta’sirini baholash. A’zo va tizimlar faoliyatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlarni o‘lchash (tomir urishi, qon bosimi, nafaslar soni, o‘pkaning tiriklik sig‘imi, mushak kuchi va chidamliligi, eslash qobiliyati). Ishchining ish qobiliyati dinamikasini aniqlash, xronometraj kuzatuvlar olib borish, kuzatuv sxemasini tuzish, xronometraj ma’lumotlarini taxlil qilish, jadvalga kiritish va olingan natijalarni baholash.	6		N-2 A-4	2
3	**Ishlab chiqarishda**	Mikroiqlim haqida tushuncha. Ishlab chiqarish sharoitlarida mikroiqlimning xususiyatlari. Infraqizil nurlanish, ishlab	18		N-2 A-16	4

	meteorologik sharoitlar	chiqarish korxonalarida uning manbai. Ishlab chiqarishdagi mikroiqlimning organizmga ta'siri, fiziologik o'zgarishlar. Patologik holatlar: qizib ketish, issiq urish, talvasa kasalligi, oftob urish, kasbiy katarakta, sovuq qotish va sovuq urishi, ularning oldini olish choralari. Ishlab chiqarish xonalarida mikroiqlimni sanitariya-gigiyena me'yori va amaldagi SanQvaMlar asosi. Ishlab chiqarish joylarida yoki o'quv xonasidagi sun'iy ishlab chiqarish sharoitida mikroiqlimni tekshirish. O'lchov asboblari yordamida xonaning harorati, namligi, harakat tezligi, bosimi o'lchab, hujjat shakllarini to'ldirish. Ishlab chiqarishda sovuq qotish, isib ketishning oldini olish choralarini tuzish.				
4	**Ishlab chiqarishda nur energiyasi**	Ishlab chiqarishdagi nurlanishning tasnifi. Radiochastota diapazonidagi elektromagnit maydoni qaysi ishlab chiqarishda uchrashi, organizmga ta'siri, o'lchash asboblari, gigiyenik me'yorlashning mohiyati, himoya choralari. Nur kasalligining kelib chiqish sabablari, uning klinik belgilari, oldini olish choralari. Sanitariya epidemiologiya xzmatining radiologik laboratoriyasi bilan tanishish. Dozimetrik nazoratning o'tkazilishi. Individual dozimetr DKP-50, ZD-5, DP-22, radiometr DP-5A tuzilishi, ishlatilishi.	6		N-2 A-4	4
5	**Yuqori va past atmosfera bosimi**	Yuqori atmosfera bosimi sharoitidagi ish turlari. Kessonning tuzilishi va ish tartibi. Yuqori bosimning organizmga ta'siri. Kesson kasalligi etiologiyasi, patogenezi, davolash va oldini olish choralari. Past atmosfera bosimi sharoitida ishlash va bosimning organizmga ta'siri. Balandlik yoki tog' kasalligi, kelib chiqish sabablari va profilaktikasi.	2		N-2	2
6	**Ishlab chiqarish changi**	Ishlab chiqarish changi haqida tushuncha va uning tasnifi. Changning fizik-kimyoviy xossalari va ularning gigiyenik ahamiyati. Changning organizmga ta'siri. Ishlab chiqarishda me'yorlashning gigiyenik mohiyati. REM haqida tushuncha. Ishlab chiqarishda havodagi changni aniqlash usullari. Ishlab chiqarishda havodagi changni aniqlash uchun namuna olish. Changni tortib olish va sanitariya tekshirish uchun aspirasion usuldan foydalanish, filtr qog'ozini tortish, changning havodagi miqdorini aniqlash va havodagi changning REM si jadvalidan foydalanish, changlanish darajasiga baho berish.	8		N-4 A-4	4
7	**Shovqin, tebranish, ultratovush ishlab chiqarish zarari**	Shovqin, tebranish va ultratovushning fizik-gigiyenik tasnifi. Shovqinning organizmga salbiy ta'siri. Ish joyida shovqin darajasining sanitariya me'yori va amaldagi SanQvaMlar asosi. Mahalliy va umumiy tebranishning organizmga ta'siri. Tebranish kasalligining oldini olish choralari. Ish joyida umumiy va mahalliy vibrasiyaning sanitariya me'yorlari. Ultratovushning sanoatda va tibbiyotda qo'llanilishi. Profilaktika tadbirlari. Ishlab chiqarishda shovqin darajasini	6		N-2 A-4	2

		o‘lchash. Shovqin o‘lchagich asbobining tuzilishi va ishlash tadbirlari bilan tanishish. Me’yoriy tibbiy hujjat shakllarini rasmiylashtirish.				
8	**Ishlab chiqarish zaharlari va zaharlanishlar**	Ishlab chiqarishda zaharlanishlar haqida tushuncha. Zaharlarning organizmga ta’sirini belgilaydigan omillar. Ish zonasi havosida zaharli moddalarning yo‘l qo‘ysa bo‘ladigan miqdori (REM). Kasbga doir zaharlanishlarga qarshi kurashning umumiy choralari. Eng muhim sanoat zaharlarining tavsifi. Ish zonasi havosida ishlab chiqarish zaharlari miqdorini aniqlash usullari. Eng kuchli ta’sir qiluvchi zaharli moddalarni saqlaydigan omborxonalarni sanitariya-gigiyenik jihatdan tekshirish yoki simobli o‘lchov asboblarini tuzatadigan laboratoriyalarda zaharli moddalarning ishlatilishi va saqlanishi ustidan nazorat o‘tkazish. Metall aerozollarini kolorimetrik va nefelometrik yo‘l bilan aniqlash. Havodagi uglerod oksid gazini ekspress usulida aniqlash. Zaharli moddalar bilan ishlaganda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlab, guruhda muhokama etish va tadbirlarni ishlab chiqish.	6		N-2 A-4	4
9	**Ishlab chiqarish ventilyasiyasi**	Ishlab chiqarish ventilyasiyasining ahamiyati va tasnifi. Korxona binolari aerasiyasi. Aerasiyaning ustunligi va kamchiligi. Mexanik ventilyasiya va uning tasnifi. Havoning so‘rish va chiqarib yuborish sistemasiga qo‘yiladigan talab. Sexlarning zararligiga ko‘ra ventilyasiyaning mohiyati. Ventilyasiya sistemasi ustidan sanitariya nazorati o‘rnatish va ishlashni baholash usullari. Ventilyasion qurilmaning sanitariya xolatini tekshirish. Mahalliy so‘ruvchi ventilyasiyaning ishlash samaradorligini, ish joyida havodagi zaharli moddalarni aniqlab baho berish.	6		N-2 A-4	2
10	**Ishlab chiqarishda yoritilganlik**	Ishlab chiqarishda yoritilganlikka bo‘lgan gigiyenik talab. Yorug‘likni organizmning fiziologik holatiga ta’siri. Sanoatda yoritilganlik, uning turi.Yoritish moslamalarini sanitariya jihatdan tekshirish. Ish joyi yoki o‘quv xonasidagi yoritilganlikni aniqlash. Ish joyidagi yoritilganlikning sanitariya holatini, ish uslubining ko‘zga ta’sirini belgilash. O‘lchov natijalarini SanQvaM bilan taqqoslash va yorug‘likni yaxshilash uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqish.	6		N-2 A-4	4
11	**Sanoat korxonalarining qurilishiga qo‘yiladigan gigiyenik talablar.**	Sanoat korxonasi uchun yer maydonini tanlash. Sanitariya ximoya zonasi. Binolar loyihasi, binoning ichki tuzilishi. Sanoat korxonasining sanitariya pasporti, talablari. Korxonalarda ishchilarning ovqatlanishi va ichimlik suvi bilan ta’minlanishi. Sanoat korxonasi hududini, ishlab chiqarishini, sanitariya-maishiy xonalarni hamda ichimlik suvi bilan ta’minlash tizimini tekshirish. Me’yoriy hujjatlarni to‘ldirish. Sanitariya maishiy xonalar, ularning tuzilishi.	6		N-2 A-4	2

12	**Sanoat ishlab chiqarishida mehnat gigiyenasi.**	Sanoatning ayrim sohalaridagi mehnat gigiyenasi. Ko‘mir qazish konlari, xalq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega bo‘lgan foydali qazilmalar, qora metallurgiya korxonasi, mashinasozlik sanoati, mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish, neftni qayta ishlab chiqarish, yengil to‘qimachilik sanoati, kimyo sanoatlari.	2		N-2	2
13	**Qishloq ho‘jaligida mehnat gigiyenasi**	Qishloq xo‘jaligi rivojlanishining xalq xo‘jaligida ahamiyati. SEO va JSQ ning qishloq xo‘jalik obyektlarini sanitariya nazorat qilishning o‘ziga xos xususiyatlari. Qishloq xo‘jaligi mehnatida umumiy va kasbiy kasalliklar. Chorvachilikda mehnat gigiyenasi. Chorvador va tovuqboqarlar mehnat sharoitining gigiyenik xususiyatlari. Umumiy va kasbiy kasalliklar. Zaharli ximikatlar bilan ishlash, saqlash va tarqatishga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Pestisidlar saqlanadigan baza va ho‘jalik omborlariga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Zaharlanishning oldini olish choralari. Qishloq xo‘jaligiga oid me’yoriy hujjatlar bilan tanishish (qo‘llanma, buyruqlar). Chorvachilik kompleksining sanitariya pasporti , tekshirish sxemasi. Chorvachilik kompleksini tekshirib, laboratoriya tekshiruv natijalarini o‘rganib, hujjat shakllarini tuzish.	6		N-2 A-4	4
14	**Qurilish materiallarini ishlab chiqarish va qurilish ishida mehnat gigiyenasi**	Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati. Texnologik jarayonning gigiyenik xususiyatlari. Asosiy ta’sir etuvchi omillar. Umumiy va kasbiy kasallik turlari. Profilaktik chora-tadbirlar.	2		N-2	2
15	**Ayollar va o‘smirlar mehnat gigiyenasi**	Ayol organizmiga ta’sir etadigan kasbiy zararlarni tahlil qilish Ayollarning ishlashi davomida organizmining ayrim funksiyalariga xavf tug‘diradigan salbiy ta’sir etuvchi omillar: mushaklarning kuchli zo‘riqishi, tananing ish paytidagi xolati, silkinish, qorin va ko‘krak qafasiga bosim, ionlashtiruvchi nurlar, kimyoviy zararlar. Homilador ayolning mehnatini muhofaza qilish. O‘smirlar organizmining fiziologik xususiyatlari. O‘smirlarning umumiy va kasbiy xastaliklari. O‘smirlar mehnatini muhofaza qilishdagi asosiy chora-tadbirlar.	2		N-2	2
16	**Kichik sanoat korxonalarida mustaqil sanitariya nazoratini o‘tkazish**	Kichik korxonalarni (avtoxo‘jalik, ustaxonalar, atelye va boshqalar) yoki ayrim ish turlarini (elektropayvandlash, bo‘yash) mustaqil tekshirish. Instrumental tekshirish natijalariga sanitariya xulosasini yozib, bayonnoma to‘ldirish. Laboratoriya ma’lumotlarini, kasallanishni xisobga olish. Mustaqil ravishda dalolatnoma yozish.	4		A-4	2
17	**Mehnat gigiyenasi sohasida sanitariya targ’ibot**	Korxonalarni mustaqil tekshirish davomida sanitariya targ’ibot ishlarini olib borish, ishchilar o‘rtasida turli xil mavzularda suhbatlar o’tkazish, sanitariya varaqalarini chiqarish, kasb kasalliklari haqida ma’lumot berish. Profilaktika.	4		A-4	4

	ishlarini olib borish					
	Jami:		**96**		**N-32 A-64**	**48**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash.

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonilan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol – javob, test, joriy va yakuniy nazorat hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

4.Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Prezident asarlari:

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” Toshkent – “O‘zbekiston” 2020 y.
2. Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.Toshkent – “O’zbekiston” 2019 y
3. Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y
4. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y

Asosiy adabiyotlar:

1. G.T.Iskandarova “Mehnat gigiyenasi” Toshkent “Ijod- Press” 2019 y
2. Z.T.Qozoqova, R.U.Muxiddinov, S. U. Kirgizova, S.A.Nabiyev “Mehnat gigiyenasi va kasb kasalliklari” Toshkent, “Ilm-ziyo” nashriyoti, 2007yil.
3. S.S.Esonturdiyev,M.E.Qarshiboyeva “Gigiyena va sanitariya tekshirishlar texnikasi” Ilm-ziyo” nashriyoti, 2007 yil
4. I.Xolliyev, A.Ikromov “Ekologiya” Toshkent, “Mehnat”, 2001 y
5. A.Nikbayev “Jamiyat sog‘liqni saqlash va tibbiyot statistikasi” Toshkent “Ilm -Ziyo” nashriyoti 2005 yil.
6. M.A.Azizov “Umumiy gigiyena va ekologiya” Toshkent “Cho‘lpon” nashriyoti 2014 yil
7. M.A.Azizov, S.S.Solixo‘jayev, Sh.Q. Qambarova “Gigiyena “ Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti 2003 y
8 . F.Yormatov va boshqalar “Mehnatni muhofaza qilish” Toshkent, 2002.

Qo’shimcha adabiyotlar:

9. L.A.Ponomareva “Tibbiy profilaktika sohasiga doir amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma” Toshkent, 2003 y
10. N.E.G‘oipov “Mehnat muhofazasi” Toshkent, 2003y
11. O‘zbekiston Respublika SSVning Sanitariya Qoida va Me’yorlari - 2005- 2017 yillar
12. Aholining sanitariya- epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida qonuni, T. 2015 yil
13. MelnichenkoP.I., Arxangelskiy V.I., Kozlova D.A. “Gigiyena s osnovami ekologii cheloveka” darslik Moskva 2010
14. Enviromental health Dade W.Moeller Third Edition Garvard University Press Cambridge, Massachusetts London, England, 2005
15. Issues in environment, health, and pollution, USA 2011
16. Basic Principles in Occupational Hygiene October, 2010

Internet manbalari:

www.ziyonet.uz, . www.google.uz, www.med.uz., www.referat.uz., www.gigiyena.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

BOLALAR VA O‘SMIRLAR GIGIYENASI
fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikasiya nomi: **Tibbiy profilaktika ishi feldsheri**

O‘quv rejadagi tartib raqami: **2.09**

Ajratilgan soat: **96**

Toshkent – 2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchilar:

D.A.Jabborova 2 – Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi “Gigiyena va laboratoriya” kafedrasi mudiri

Taqrizchilar:

Z.Z. Kadirov Yunusobod tumani Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi qo’mitasi bo’limi boshlig’i

G.K Mannonova 2- son Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi uslubchisi

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi
Ajratilgan soat	96
Mavzular soni	12
Dasturning maqsadi	O‘sib kelayotgan yosh avlodning sog‘ligini saqlash va mustahkamlash. Ularni jismoniy va ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lishlari, jismoniy rivojlanishlari va salomatliklari mustahkamlanishini ta’minlash. Sanitariya-gigiyena me’yor va talablariga javob beruvchi tarbiyalash va o‘qitish sharoitlarini sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan holda ishlab chiqishdir.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	**-**bolalar va o‘smirlarni tibbiy va sanitariya jihatdan salomatligini saqlash o‘rganiladi; **-**bolalar va o‘smirlarni kun tartibini to‘g‘ri tashkil etishni takomillashtirish shakllanadi; **-**kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, bolalarning jismoniy rivojlanishini yaxshilashga zamin yaratishning o‘ziga xosligi o‘rganiladi; **-**bolalar va o‘smirlar muassasalarida joriy sanitariya nazorat o‘rnatish shakllanadi; **-**jismoniy jihatdan chiniqtirishning gigiyenik asoslari o‘rganiladi; - bolalar va o‘smirlarning to‘g‘ri, ratsional ovqatlanishi, yuqumli va somatik kasalliklardan saqlash kabi bilimlar shakllanadi; **-** sanitariya- gigiyena me’yor talablariga javob beruvchi bolalar va o‘smirlar uchun mo‘ljallangan muassasalarni loyihalash, qurish me’yorlari, jihozlanishi o‘rganiladi; -sanitariya nazoratning turli shakllari yordamida bolalarning kiyim-kechak, poyafzallariga qo‘yiladigan gigiyenik talablar shakllanadi.
Bilim	**-** bolalar va o‘smirlar gigiyenasi fani, vazifasi, maqsadi, sanitariya nazorati haqidagi tushuncha, rivojlanish tarixi, tibbiy profilaktika ishi feldsherining huquq va burchlari; - bolalar va o‘smirlarni tarbiyalash, o‘qitishda tibbiy-sanitariya xizmatini tashkil etishning asosiy tamoyillari; - bolalar va o‘smirlar muassasalariga tibbiy sanitariya xizmatini ko‘rsatish, bolalar muassasalarida sog‘lomlashtirish va epidemiyaga qarshi tadbirlarning tibbiy profilaktika ishi feldsherining nazorat qilib borishi; - bolalar va o‘smirlar muassasalarida bolalarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, hujjatlarni rasmiylashtirish, tibbiy ko‘rik ma’lumotlarga asosan xulosa berishni nazorat qilish; - jismoniy rivojlanish va uning asosiy qonunlari, bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari, jismoniy rivojlanishni aniqlash usullari; - kun tartibining gigiyenik asoslari, bolalar bog‘chasi, maktab, maktab-internatlarning kun tartibi, dars jadvallarini tuzishga qo‘yilgan gigiyenik talablar; - jismoniy tarbiyaning bola salomatligiga va jismoniy rivojlanishiga ta’siri, jismoniy tarbiya o‘tkazish uchun mo‘ljallangan sharoitni baholash; - bolalar va o‘smirlarning ovqatlanishiga qo‘yiladigan gigiyenik talablar, bolalar va o‘smirlar ovqatlanishini tashkil etish, bolalar va o‘smirlar ovqatlanishidagi sutkalik rasion, bolalar va o‘smirlar muassasalarida tibbiy

	nazoratni tashkil etish; - bolalar va o‘smirlar o‘rtasida uchraydigan yuqumli va gijja kasalliklarini tarqalishi, yuqish yo‘llari, bolalar muassasalariga qabul qilish qoidalari, epidemiolog holatni tekshirish, yuqumli va gijja kasalliklari tarqalishining oldini olish tadbirlari, bolalar va o‘smirlar o‘rtasida gigiyenik tarbiya ishlarini olib borish; - bolalar va o‘smirlar muassasalarining yer maydonini tanlash, loyihalashtirishva qurilishi, bolalar va o‘smirlar muassasalaridagi mebellarga qo‘yilgan gigiyenik talablar; - bolalar va o‘smirlar muassasalarida mehnat ta’limini tashkil etilishi, noqulay omillarning o‘quvchilar organizmiga ta’siri va uning oldini olish; -komyuter sinfxonalariga qo‘yiladigan gigiyenik talablar; - bolalar uchun tanlangan gazlamalar va tikiladigan kiyimlarga, oyoq kiyimlariga bo‘lgan gigiyenik talablar; - yozgi dam olish muassasalari uchun joy tanlashda ishtirok etish, dam olish muassasalarida bolalarning yoshiga ko‘ra kundalik reja tuzish,bolalar uchun ajratilgan o‘ynash maydonchalarga gigiyenik baho berish; - sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish, turmush tarzining salomatlikka ta’siri, talablari.
Ko‘nikma	- sanitariya- epidemiologiya xizmatining bolalar va o‘smirlar gigiyenasi bo‘limi ish rejasi, hisobot hujjatlari va shakllari bilan tanishish, bolalar va o‘smirlar gigiyenasi bo‘limida ish yuritish, bolalar va o‘smirlar muassasasini sanitariya-gigiyenik jihatdan tekshirish sxemasini tuzish; - bolalar va o‘smirlar muassasalarini sanitariya-gigiyenik jihatdan tekshirish, hujjat shakllarini to‘ldirish, bolalar va o‘smirlar muassasalarida tibbiy ko‘rik o‘tkazishni tashkil etish; - bolalar o‘rtasida antropometriya va fiziometrik o‘lchash ishlarini bajarish, jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlariga asosan baholash, sanitar-gigiyenik tekshirishlar o‘tkazilganligi to‘g‘risida dalolatnoma tuzish; - bolalar va o‘smirlar muassasalaridagi kun tartibini tahlil qilib baholash; - bolalar muassasalarining birida jismoniy tarbiya darslarining tashkil qilinishini analiz qilish, antropometrik ko‘rsatkichlarga qarab bolaning jismoniy rivojlanishiga baho berish, bolalar o‘rtasida tibbiy chiniqtirish ishlarini o‘tkazish, jismoniy tarbiya dars soatini nazorat qilish; - bolalar va o‘smirlar muassasalaridagi oshxonalar va bufetlarni tekshirish, tayyor mahsulotlarning kaloriyasini, bakteriyalar bilan zararlanganligini, vitaminlar bilan sun’iy boyitilishini aniqlash uchun namuna olish, oshxona ishchi xodimlari va ularning ishini gigiyenik nazorat qilish, bolalar va o‘smirlarning to‘g‘ri ovqatlanishi uchun xaftalik taomnoma tuzish, brokiraj daftari, ovqat tarkibini tahlil qilib baholash; - bolalar va o‘smirlar muassasalarida tibbiy xizmatning tashkil qilinganligini tekshirish, ishchi xodimlar: o‘qituvchilar, tarbiyachilar, taom tayyorlovchi va boshqalarni tibbiy ko‘rikdan o‘tganligini tekshirish; - muassasalardan suv namunasini olish laboratoriya tahlili uchun yo‘llanma yozib yuborish, bolalar va o‘smirlar muassasalarida sanitariya-epidemiologik tekshirish o‘tkazish va dalolatnoma yozib tavsiyalar berish; - bolalar va o‘smirlar muassasalari loyihasini hamda qurilishini, yoritilganlik va mikroiqlimni aniqlab, baholash, tegishli profilaktik chora-tadbirlarni belgilash; - bolalar va o‘smirlar muassasalaridagi mebellarni gigiyenik jihatdan tekshirib,

	baho berish, maktab ustaxonalari, mehnat ta'limining tashkil etilganligini tekshirib baholash, kompyuter sinflaridagi yoritilganlikni o'lchash; - bolalar uchun tikilgan kiyim-bosh, gazlamalar, poyafzallarni baholash; - yozgi dam olish muassasalari uchun ajratilgan yerlarga baho berish, bolalarning yoshiga ko'ra kunlik rejim tuzish, bolalar o'ynash maydonchalarini tekshirib, baho berish**.**
O'quv rejaga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lgan fan nomi	"Umumiy gigiyena va ekologiya" "Mikrobiologiya" "Valeologiya" "Yuqumli kasalliklar" "Teri tanosil kasalliklari" "Ovqatlanish gigiyenasi" "Epidemiologiya asoslari" "Tibbiy parazitologiya" "Dezinfeksiya ishi"
O'qitishni tashkiliy shakli	N – nazariy ta'lim; A – amaliy ta'lim; NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar; MX – maxsus xonalarda mashg'ulot
Dasturga qo'yilgan talab	Majburiy
O'qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash	Yozma, og'zaki, savol – javob, munozara, test, amaliy topshiriq. Joriy va yakuniy nazorat.

2. O'quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	jami	O' qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta' lim
1	**Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fanining maqsadi va vazifalari, rivojlanish tarixi.**	Bolalar va o'smirlar gigiyenasi fanining maqsadi, vazifalari, rivojlanish tarixi. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining bolalar va o'smirlarni tarbiyalash, o'qitish, tibbiy-sanitariya xizmatlarini ko'rsatish borasidagi qarorlari, buyruqlari. SEO va JSQ ning bolalar va o'smirlar gigiyenasi bo'limi, bo'limning me'yoriy hujjatlari, ish rejasi, shakllari, hisobot jurnallarning yuritilishini o'rganish. Ish rejasini tuzish. Joriy sanitariya nazorati sxemasini tuzish.	6	N-2 A-4	2
2	**Bolalar va o'smirlarni tarbiyalash, o'qitishda tibbiyva sanitariya**	O'quv–tarbiya muassasalarining turlari. Bolalar va o'smirlar muassasalariga tibbiy va sanitariya xizmatini ko'rsatishni tashkil etish. Bolalar va o'smirlar muassasalarida bolalar sog'lig'ini saqlash va sog'lomlashtirish tadbirlarining bajarilishini nazorat qilish, chora-tadbirlarini tuzib chiqish. Bolalarning shaxsiy tibbiy	6	N-2 A-4	4

	xizmatini tashkil etish.	kartalarini yuritilishini tekshirish (tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi).			
3	**Bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari.**	Bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanish va uning asosiy qonunlari, ko‘rsatkichlari. Bolalar va o‘smirlar organizmi jismoniy rivojlanishiga ta’sir etuvchi salbiy holatlarni oldini olish. Sog‘lomlashtiruvchi gigiyenik tadbirlar. Jismoniy rivojlanish belgilari va ularni aniqlash. Bolalar va o‘smirlarni jismoniy rivojlanishni tekshirish usullari (antropometriya,fiziometriya,samotoskopiya), ularga gigiyenik baho berish. Bolalar va o‘smirlarning biologik rivojlanish darajasi, morfofunksional holatini o‘rganish usullari.	8	N-4 A-4	4
4	**Bolalar va o‘smirlar kun tartibining to‘g‘ri tuzish va uning ahamiyati**	Bolalar va o‘smirlar kun tartibini to‘g‘ri tashkil etishning ahamiyati. Kun tartibi va uning gigiyenik va fiziologik asoslari. Charchash va toliqish to‘g‘risida tushuncha. Darslarning davomiyligi, dars jadvali. Bolalar va o‘smirlar muassasalaridan birida kun tartibini o‘rganib baholash. Maktabgacha ta’lim muassasalarida kun tartibini tahlil qilish. Maktablarda o‘quv darslarning davomiyligi. Tanaffuslarning gigiyenik ahamiyati. Dam olish va ta’til kunlaridagi kun tartibi. O‘quvchi kun tartibining anketa so‘rovi. O‘quvchilarning haftalik kun tartibining asoslarini gigiyenik jihatdan baholash.	12	N-4 A-8	4
5	**Bolalar va o‘smirlarni jismoniy tarbiyalash.**	Bolalar va o‘smirlarni sog‘lom bo‘lib yetishishida jismoniy tarbiyaning ahamiyati. Jismoniy tarbiyaning bola salomatligiga va jismoniy rivojlanishiga ta’siri. Bolalar muassasalarida jismoniy tarbiyaning tashkil etilishi hamda uning ustidan nazorat o‘rnatish. Jismoniy tarbiya va sport inshootlarining tuzilishi va ularga qo‘yilgan sanitar-gigiyenik talablar. Bolalar va o‘smirlarning chiniqtirishning gigiyenik asoslari. Bolalar va o‘smirlar muassasalarida jismoniy tarbiya soatini tashkil qilish bilan tanishish va tahlil qilish. Sport vagimnastika zallariga qo‘yiladigan sanitar-gigiyenik talablar. Jismoniy rivojlanish darajasiga qarab bolalar va o‘smirlarni tibbiy guruhlarga bo‘lish.	10	N-2 A-8	4
6	**Bolalar va o‘smirlarning ovqatlanishiga qo‘yiladigan gigiyenik talablar.**	Bolalar va o‘smirlar ovqatlanishining fiziologik asoslari. Oziq-ovqatlarga bo‘lgan ehtiyoji. Ovqatlanishning gigiyenik ahamiyati. To‘g‘ri ovqatlanish tartibi. Bolalar ovqatlarini vitaminlar bilan boyitish. Bolalar va o‘smirlar muassasalarida ovqatlanish rejimi. Oshxona xonalariga, jihozlariga hamda xodimlariga qo‘yiladigan sanitariya va gigiyenik talablar. Bolalar va o‘smirlar muassasalaridagi ovqatlanish blokini sanitariya jihatidan tekshirish va dalolatnoma tuzish, tahlil qilish. Bakteriologik tekshirish uchun tayyor ovqatdan asboblar, jihozlar va idishlardan surtmalar va namunalar olib laboratoriyaga yuborish, yo‘llanma varaqalarini to‘ldirish. Brokiraj daftariga asosan menyu-raskladka (taqsimoti) asosida bolalar ovqatini baholash. Bir haftalik taomnoma bilan tanishib chiqib baho berish.	12	N-4 A-8	4
7	**Bolalar va**	Bolalar va o‘smirlar muassasalarida yuqumli va parazitar	8	N-4	4

	o‘smirlar muassasalarida yuqumli va parazitar kasalliklarni oldini olish choralari.	kasalliklarini tarqalish yo‘llari. Bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanishiga va salomatligiga o‘tkir yuqumli kasalliklar va parazitar invaziyalarning ta’siri. Yuqumli va parazitar kasalliklarning oldini olish va butunlay yo‘qotish chora-tadbirlari. Bolalar va o‘smirlarni sog‘lom hayot uchun gigiyenik tarbiyalash. Bolalar muassasalariga bolalarni qabul qilish tartibi bilan tanishish va nazorat qilish, sanitar-epidemiologik rejimni tekshirish va dalolatnomani tuzish, muassasalarda ishlaydigan xodimlarning tibbiy hujjatlarini ko‘rib chiqib, gigiyenik baho berish.		A-4	
8	**Bolalar muassasalarini qurilishiga qo‘yiladigan sanitar-gigiyenik talablar.**	Bolalar va o‘smirlar muassasalarinig joylashishi, yer maydonlariga bo‘lgan gigiyenik talablar. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim va maktab yoshdagi bo‘lgan bolalar muassasalarni qurilishi va jihozlanishiga qo‘yiladigan sanitariya va gigiyenik me’yorlari. Umumta’lim maktab va bolalar muassasalarini sanitariya va gigiyenik jihatdan tekshirish va baholash. Joriy sanitariya nazoratini o‘rnatish, mikroiqlimi va yoritilishini tekshirish, dalolatnoma tuzish hamda tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish. Bolalar va muassasalarning sanitariya rejimi.	6	N-2 A-4	4
9	**Bolalar va o‘smirlar muassasalarini jihozlashga qo‘yiladigan gigiyenik talablar.**	Maktabgacha ta’lim va maktab yoshdagi bolalar muassasalari jihozlariga qo‘yiladigan gigiyenik talablar, uning ahamiyati. Bolalar va o‘smirlar muassasalarida mehnat ta’limi, ustaxonalarni gigiyenik baholash, zararli omillarni organizmga ta’siri, oldini olish chora-tadbirlari. O‘smirlar uchun yuk ko‘tarishning ruhsat etilgan sanitariya me’yori. Maktabgacha ta’lim bolalar muassasalarida bolalar o‘yinchoqlariga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Maktabgacha ta’lim va maktab yoshdagi bolalar muassasalari mebellarini gigiyenik baholash. Maktab ustaxonasining jihozlari xolatini tekshirish, kompyuter sinfxonalari va o‘quvchilar kompyuterda ishlash rejimini nazorat qilib, tahlil qilish.	10	N-2 A-8	4
10	**Bolalar kiyim-boshlari, oyoq kiyimlariga qo‘yiladigan gigiyenik talablar.**	Bolalar kiyimlari tayyorlanadigan gazlamalarga, kiyim – boshlariga, oyoq kiyimlariga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Bolalar va o‘smirlar muassasalarida bolalarni gigiyenik tarbiyalashning asosiy vazifalari va usullari. Bolalar kiyimlarini tekshirish, gigiyenik baholash va tahlil qilish, me’yoriy hujjatlarni to‘ldirish.	6	N-2 A-4	4
11	**Sog‘lomlashti rish inshoatlariga qo‘yiladigan gigiyenik talablar.**	Bolalar va o‘smirlar yozgi sog‘lomlashtiruvchi muassasalari uchun yer maydonini tanlash, joylashtirish, sanitariya-gigiyenik me’yorlari va talablari. Yozgi sog‘lomlashtiruvchi muassasalarning kunlik rejimi. Bolalar va o‘smirlar yozgi sog‘lomlashtiruvchi muassasalarining loyihalarini o‘qish. Yozgi muassasalarda bolalar uchun kunlik reja tuzish. O‘qituvchi bilan birga dam olish maskanlariga borib sanitar-gigiyenik tekshirishlar o‘tkazish, hujjat shakllarini to’ldirish.	6	N-2 A-4	4
12	**Bolalar va o‘smirlar**	Sog‘lom turmush tarzi va bolalar salomatligi, sog‘lom turmush tarzi asoslari va talablari. Sog‘lom turmush tarzini bolalar va	6	N-2 A-4	6

	o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish.	o‘smirlar o‘rtasida targ‘ibot qilish. Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish.			
	Jami:		**96**	**N-32 A-64**	**48**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash.

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonilan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol – javob, test, joriy va yakuniy nazorat hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

4.Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Prezident asarlari:

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” Toshkent – “O‘zbekiston” 2020 y.
2. Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.Toshkent – “O’zbekiston” 2019 y
3. Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y
4. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y

Asosiy adabiyotlar:

1. S.S.Esonturdiyev, M.E.Qarshiboyeva “Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi” “Ilm-ziyo” nashriyoti, 2007 yil
2. S.S.Esonturdiyev, M.E.Qarshiboyeva “Gigiyena va sanitariya tekshirishlar texnikasi” “Ilm-ziyo” nashriyoti, 2007 yil
3. S.S.Esonturdiyev, M.E.Qarshiboyeva “Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi” “Cho‘lpon” nashriyoti Toshkent, 2002 yil
4. M.J.«Kudayarova Gigiyena detey i podrostkov» Bishkek 2017 yil
5. M.A.Azizov “Umumiy gigiyena va ekologiya” Toshkent “Cho‘lpon” nashriyoti 2014 yil
6. V.R. Kuchma «Gigiyena detey i podrostkov» «Geotarmediya» 2013 g Rossiya
7. I.V Prixodko, Ye.L. Cherpisheva, V.A. Lebed, N.V. Barыkina «Gigiyena detey i podrostkov» «Feniks» 2010 g Rossiya
8. V.R. Kuchma, N.L.Yamshekova, N.K.Barsukova i dr. «Gigiyena detey i podrostkovpo prakticheskim zanyatiyam» «Geotarmediya» 2010 g Rossiya
9. N.I. Obreimova «Osnovы anatomii, fiziologii i gigiyena detey i podrostkov» Moskva 2007 yil
10.A.Nikbayev “Jamiyat sog‘liqni saqlash va tibbiyot statistikasi” Toshkent “Ilm -Ziyo” nashriyoti 2005 yil.
11. M.A.Azizov, S.S.Solixo‘jayev, Sh.Q. Qambarova “Gigiyena “ Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti 2003 y
12. F.Yormatov va boshqalar “Mehnatni muhofaza qilish” Toshkent, 2002 yil

Internet manbalari:

1. www.ziyonet.uz, 2. www.lex.uz., 3. www.google.uz, 4. www.med.uz.,

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

OVQATLANISH GIGIYENASI NUTRISIOLOGIYA ASOSLARI

O‘QUV DASTUR

Kvalifikasiya nomi: **Tibbiy profilaktika ishi feldsheri**

O‘quv rejadagi tartib raqami: **2.10**

Ajratilgan soat: **144**

Toshkent – 2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi:

D.A.Jabborova 2 – Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi “Gigiyena va laboratoriya” kafedrasi mudiri

Taqrizchilar:

Z.Z. Kadirov Yunusobod tumani Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi qo’mitasi bo’limi boshlig’i

F.I. Salomova TTA “Atrof-muhit gigiyenasi” kafedrasi mudiri

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Ovqatlanish gigiyenasi nutrisiologiya asoslari**
Ajratilgan soat	144
Mavzular soni	10
Dasturning maqsadi	Odam organizmi tashqi muhitdan mudom energiya kelib turishiga muhtoj bo‘ladi. Buning uchun oziq-ovqat mahsulotlarini oziqlik va biologik ahamiyati katta. Aholi iste’mol qiladigan tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini va oziq-ovqat xom ashyolarini kimyoviy tarkibi, oziqali qiymati, fiziologik me’yorlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari ta’sirida kelib chiqadigan kasalliklar va ovqatdan zaharlanishlarni sabablari o‘rganish, ularni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	- ovqatlanish gigiyenasi sohasida tibbiy profilaktika ishi feldsherining vazifa va maqsadlari shakllanadi; - zamon talablariga javob bera oladigan sanitariya-epidemiologiya xizmatida kadrlarni tayyorlashga zamin yaratiladi; - oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga baho berish takomillashtiriladi; - ovqat tarkibidagi surrogatlar va falsifikatlar me’yorini bilishga imkon beradi; - oziq – ovqat mahsulotlari ustidan joriy sanitariya nazorati to‘g‘risida ma’lumotlarni egallaydi; - ovqatlanish gigiyenasi sohasida Davlat sanitariya nazoratining vazifasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar shakllanadi; - fanga oid bilimlarni umumlashtirish orqali oziq- ovqat mahsulotlaridan kelib chiqadigan kasalliklarni profilaktikasi takomillashtiriladi; - oziq-ovqat korxonalari va omborxonalar ustidan sanitariya- gigiyenik nazorati o‘rganiladi; - ovqatdan kelib chiqadigan zaharlanishlarga qarshi chora- tadbirlarni ishlab chiqarish o‘rganiladi; - iste’molga yaroqsiz oziq-ovqat maxsulotlarini savdoga chiqarmaslik, aholini salomatligini saqlash yo‘lida mezonlar ishlab chiqiladi; - aholi o‘rtasida sanitariya –targ’ibot ishlarini olib borish bilimlari shakllanadi.
Bilim	- asosiy obyektlarni nazorat qilish, ovqatlanish gigiyenasi bo‘limining ishlash usuli va shakli; - ovqatlanish gigiyenasi sohasida ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazorati to‘g‘risidagi tushuncha; - ovqatlanish gigiyenasi sohasida tibbiy profilaktika ishi feldsheri huquqi va burchlari; - ovqatlanish gigiyenasi sohasi bo‘yicha Davlat sanitariya nazoratining vazifasi; - oqsil, yog’, uglevod, mineral moddalar, mikroelementlar va vitaminlarning organizmdagi ahamiyati; - giper-, gipo-, avitaminozlar; - organizmning ish faoliyatiga va yoshiga ko‘ra ovqat moddalariga bo‘lgan fiziologik talab; - davolovchi - profilaktik parhyez ovqatlanishning alohida hususiyatlari; - ovqat rasioniga va ovqatlanish rejimiga bo‘lgan gigiyenik talablar; - ovqat mahsulotining sifatini o‘zgarishiga sabab va sharoitlar;

	- ovqat mahsulotining sifatini saqlovchi usullari; - turli usulda konservalashning qulayligi va kamchiligi; - gigiyenik ekspertizaning vazifasi va o‘tkazish usullari; - ovqat mahsulotini organoleptik xususiyati, buzilish belgilari va sabablari, tekshirish sharoiti va hajmi; - yaroqsiz ovqat mahsulotlarini yo‘q qilish tartibi; - gigiyenik ekspertiza o‘tkazilganligi to‘g‘risida ovqat mahsulotlarining oziqlik va biologik qiymati; - ovqat mahsulotlarini fizik-kimyoviy tekshirishlarning gigiyenik ahamiyati; - shartli-yaroqli go‘sht va go’sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlaridan foydalanish sharoiti, yaroqsiz mahsulotini yo‘q qilish yo‘llari, me’yoriy hujjatlar bilan ishlash; - oziq-ovqat korxonalarining tuzilishiga bo‘lgan gigiyenik talablar; - go‘sht va go’sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, bolalarning sutli ovqati, un-non, konserva mahsulotlari, alkogolsiz ichinliklarni ishlab chiqarishning sanitar-gigiyenik me’yor va qoidalari; - teri, qo‘l, tana, og‘iz bo‘shlig‘i, sanitariya kiyimining holati va unga bo‘lgan gigiyenik talab; - tibbiy ko‘rik tekshiruvidan o‘tish tartibi va muddati; - oziq-ovqat korxonalarida ovqat mahsulotlarini saqlash va tashishga bo‘lgan sanitariya-gigiyena me’yor va qoidalari; - umumiy ovqatlanish korxonalarining qurilishi va tuzilishining sanitar-gigiyenik me’yori va qoidasi; - umumiy ovqatlanish korxonasida ovqat mahsulotlarining saqlanishi, tayyorlanishi, tarqatilishi, sanitariya-gigiyena me’yori va qoidasi; - kasalxonada ovqatni tayyorlash, taomlarni tarqatilishini uyushtirish; - oziq-ovqat do‘koni, mayda-chakana savdo do‘koni, dehqon bozorining qurilishi va tuzilishining sanitariya- gigiyena me’yori va qoidasi; - ovqatdan zaharlanishni tekshirish tartibi; - mikroblar bilan bog‘liq bo‘lgan ovqatdan zaharlanishning oldini olish va yuqumli kasalliklarni profilaktikasi.
Ko‘nikma	- sanitariya - epidemiologiya xizmatining ovqatlanish gigiyenasi bo‘limi ish uslubi, hujjatlari va ish rejalarini tuzish va rasmiylashtirish; - ovqat ratsionining fiziologik me’yori, ovqatlanish tartibi, ovqat mahsulotining turli – tumanligiga baho berish; - davolovchi-profilaktik parxez taomlar, ovqat ratsioniga baho berish bo‘yicha menyu-taomnoma tuzish; - ovqat mahsulotini organoleptik tekshirish sharoiti va hajmi; - gigiyenik ekspertiza o‘tkazilganligi to‘g‘risida hujjat to‘ldirish; - oziq-ovqat korxonalarida ovqat mahsulotlarini saqlash va tashishga bo‘lgan sanitariya-gigiyena me’yor va qoidalarini nazorat qilish; - oziq-ovqat mahsulotlaridan namuna olish va laboratoriyaga tekshirishga olinganligi to‘g‘risida bayonnoma to‘ldirish; - ovqat mahsulotlarining organoleptik, fizik-kimyoviy xususiyatlarini tekshirish usullarini o‘rganish, baho berish, me’yoriy hujjatlardan foydalanish; - oziq-ovqat korxonalarini sanitariya-gigiyenik jihatdan tekshirish, hujjat shakllarini to’ldirish; - sog‘lomlashtirish tadbirlarini olib borishda majmua (kompleks) reja tuzish uchun material yig‘ish;

	- shaxsiy gigiyena qoidasiga rioya qilmaslik hollarini aniqlash, o‘z vaqtida tibbiy ko‘rikdan o‘tganligini nazorat qilish, sanitariya qoidalarga rioya qilmagan shaxslarga chora ko‘rish; - ovqat mahsulotlarini, yarim fabrikat, konditer mahsulotlari, xom mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, taomlarni tarqatishning sanitariya-gigiyena me’yori va qoidalariga rioya qilinayotganligiga baho berish; - umumiy ovqatlanish korxonasida epidemik xavf tug‘diruvchi omillarni aniqlash; - yuvilgan idishlarning sifatini, idish yuvadigan vannalar sonini, idish yuvadigan vannalardagi suvning haroratini, dezinfeksiyalovchi eritmalar va sodaning konsentrasiyasini, qoldiq xlor miqdorini, muzlatgich harorati, tarqatilayotgan tayyor taomning haroratini asboblar yordamida oddiy usul bilan nazorat qilish; - oshxona, kasalxonadagi oshxona, konditer sexlarini sanitariya-gigiyenik jihatdan tekshirib, dalolatnoma tuzish; - umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlovchi xodimlarga sanitariya-gigiyena qoidalarini o‘rgatish va nazorat qilish; - do‘kon, mayda chakana savdo do‘konlari, dehqon bozorlarini tekshirish usulini o‘rganish; - ovqat mahsulotlarining saqlanishi, tarqatilishi va tashilishining sanitariya-gigiyena me’yor va qoidalariga rioya qilinayotganligiga baho berish; - dehqon bozoridagi veterinariya-sanitariya tekshirish laboratoriyasining ishini nazorat qilish; - sog‘lomlashtirish tadbirlarini olib borish; - ovqatdan zaharlanish sodir bo‘lganda oziq-ovqat korxonasini tekshirib, sababini aniqlash, sxemasini tuzish; - ovqatdan zaharlanish xodisasi sodir bo‘lganda oziq- ovqat mahsulotidan namuna va surtmalar olish.
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fan nomi	Umumiy gigiyena va ekologiya Anatomiya, fiziologiya va patologiya asoslari Mikrobiologiya Teri tanosil kasalliklari Yuqumli kasalliklar Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi Epidemiologiya asoslari Tibbiy parazitologiya Dezinfeksiya ishi
O‘qitishni tashkiliy shakli	N – nazariy ta’lim; A – amaliy ta’lim; NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar; MX – maxsus xonalarda mashg‘ulot
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol – javob, munozara, test, amaliy topshiriq. Joriy va yakuniy nazorat

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	jami	O‘ qitishning tashkiliy	Mustaqil
1	**Ovqatlanish gigiyenasi fani va uning vazifalari, maqsadi, rivojlanish tarixi. Ovqatlanish gigiyenasi bo‘limining ish faoliyati.**	Ovqatlanish gigiyenasi fanining vazifasi, rivojlanish tarixi. Ovqatlanish gigiyenasi sohasida Davlat sanitariya nazorati, uning vazifalari va bosqichlari. Sanitariya qonunchiligi. Ovqatlanish gigiyenasi bo‘limining ishlash usuli va shakllari. Me’yoriy-texnik hujjatlar Jamoat sanitariya faollari, ularning vazifasi. SEO va JSQ ning «Ovqatlanish gigiyenasi» bo‘limining ishi va me’yoriy hujjatlari bilan tanishish va tuzish. Gigiyenik laboratoriyada ishlash qoidalari. Gigiyenik laboratoriyaning asbob – uskunalari, jihozlari bilan ishlashni o‘rganish. Jurnallarni yuritishni o‘rganish.	6	N-2 A-4	4
2	**Ovqatlanishning fiziologik– gigiyenik asoslari. Ratsional ovqatlanish. Ovqat kaloriyasini aniqlash. Taomnoma tuzish.**	Energiya balansi: ijobiy va manfiy energiya balansining organizmga ta’siri. Energiya almashinishining turlari. Mehnat faoliyati jarayonida energiya sarflanishi. Turli guruhlardagi aholining fiziologik ovqat me’yorlari. Oqsil, yog‘, uglevodning organizmni energiya bilan ta’minlashdagi ahamiyati. Oqsillarning oziqlik va biologik qiymati. Almashtirib bo‘ladigan va almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar. Oqsil yetishmovchiligidan kelib chiqadigan kasalliklari kelib chikishida oqsil yetishmovchiligining asosiy sabab ekanligi. Oqsil yetishmovchiligi muammosini xal qilish choralari. Yog‘lar. Ularning oziqlik va biologik qiymati. To‘yinmagan yog‘ kislotalari, ularning ahamiyati, manbai. Organizmni yog‘ bosishi. Uglevodlar. Uglevodlarning gigiyenik xarakteristikasi va manbai. Uglevodlarning almashinuvi, organizmda yog‘ga aylanishini osonlashtiruvchi omillar. Monosaxaridlar (glyukoza, fruktoza), disaxaridlar(saxaroza, laktoza), polisaxaridlar (kraxmal, kletchatka, pektin moddasi). Ortiqcha uglevod qabul qilish natijasida kelib chiqadigan kasalliklar. Mineral moddalar. Mineral moddalarning ishqoriy xarakteri (kalsiy, magniy, natriy, kaliy). Mineral moddalarning suyak hosil bo‘lishida, kislota – ishqoriylik muvozanatini saqlashda, tuz – suv almashinishida, qon tarkibida tuzni me’yorlashda, plastik jarayonda ishtirok etishi va hokazo. Biomikroelementlar (temir, marganes, kobalt, yod, ftor). Mineral moddalarning asosiy manbai. Vitaminlar. Vitaminlarning fiziologik ahamiyati, asosiy manbai. Suvda (S, V gurux, RR) va yog‘da (A, D, Ye, K) eruvchi vitaminlar. Vitaminsimon moddalar. Gipo, avitaminozlar, ovqat mahsulotlarini va tayyor taomlarni vitaminlashtirish.Suv. Modda almashinuvidagi ahamiyati. Suvga bo‘lgan ehtiyoj.Rasional ovqatlanish, unga gigiyenik talab. Energiya berish qiymati va sifat tarkibi, ovqat moddasining balansi, singishi va turli – tumanligi. Ovqatlanish rejimi. Ovqat iste’mol qilishda atrof–muhitning ta’siri.	1 2	N-8 A-4	8

		Oshxonaning shinamligi, dasturxonni bezash, qulay mikroiqlim va hokazo. Bolalar va o‘smirlar ovqatlanishida mineral tuz, vitamin, yog‘ va uglevodlarning ahamiyati. Bolalarning ovqatlanish rejimi, ortiqcha semizlik profilaktikasi. Parhyez ovqat. Unga bo‘lgan gigiyenik talab. Davolovchi–profilaktik ovqatning ahamiyati. Qishloq ho‘jaligi ishchilarining ovqatlanishi. Yil davomida sarflangan energiyaning alohida xususiyatlari. Ovqatlanish maromi. Rasional ovqatlanishni tashkil qilishda mutaxassisning vazifasi va nazorat qilib borishi. Aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib borish. Ovqat kaloriyasini aniqlash. Taomnoma tuzish.Sog‘lom kishining ovqat rasioniga va fiziologik ovqatlanish normasiga baho berish. Miqdor ko‘rsatkichlarini xisoblash: kaloriyasini, oqsil, yog‘, uglevodning nisbatini. Kaloriyaning taqsimlanishi va shaklga taqqoslash. Mahsulot va taomning turli-tuman bo‘lishi va unga baho berish. O‘qituvchi bilan hamkorlikda ovqat rasioniga, organizmning ovqatga fiziologik ehtiyoji, ovqatlanish maromiga xulosa chiqarish. Davolovchi-profilaktika va parxez ovqatlariga baho berish. Taomlarning turli-tumanligiga, taomlar iste’mol qilish oralig‘iga va vitaminlar bilan boyitilganligiga baho berish.			
3	**Oziq–ovqat mahsulotlarini konservalashning gigiyenik asoslari.**	Ovqat mahsulotining sifati haqida tushuncha. Ovqat mahsulotlarining buzilish turlari (chirishi, achishi, oksidlanishi, mog‘orlashi va hokazo). Ovqat mahsulotining sifatini pasayishiga sababchi bo‘lgan sharoitlar. Ovqat mahsulotining sifatini yaxshi saqlovchi sharoitlar. Konservalash usullari. Har bir usulning gigiyenik harakteristikasi. Yuqori va past temperaturaning ta’siri, suvsizlantirish usuli, yuqori osmotik bosim ta’siri, vodorod ion konsentrasiyasini o‘zgartirish. Kimyoviy moddalar, antibiotiklar, radioktiv usullar bilan konservalash.	6	N-6	4
4	**Oziq–ovqat mahsulotlarining gigiyenik ekspertizasini uyushtirish va o‘tkazish.** **Oziq – ovqat mahsulotlaridan namuna olish va tekshirish usullari.** **Ekspertiza natijalarini rasmiylashtirish.**	Oziq-ovqat mahsulotlarining gigiyenik ekspertizasi. Gigiyenik ekspertizaning vazifasi. Oziq-ovqat mahsulotining sifatini belgilashda Davlat nazorat tizimi. Oziq-ovqat mahsulotining sifatiga ko‘ra tasnifi. Rejali va rejadan tashqari gigiyenik ekspertiza. Gigiyenik ekspertiza o‘tkazishning bosqichlari. Oziq-ovqat mahsulotlarining gigiyenik ekspertizasini o‘tkazishda tibbiy profilaktika ishlari feldsherining vazifasi. Oziq-ovqat mahsulotlarini organoleptik va laboratoriya usuli bilan tekshirish. Yaroqsiz mahsulotlarni utilizasiya qilish. Ovqat mahsulotlarining sifatini nazorat qilish. Ekspertiza natijalarini rasmiylashtirish. Oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirish uchun namuna olish qoidasi bilan tanishish. Olingan mahsulot namunasini laboratoriyaga jo‘natishdan oldin ko‘riladigan tayyorgarlik ishlari: muxrlash, o‘ralgan namunani plombalash, olingan namuna to‘g‘risida dalolatnoma to‘ldirish.	12	N-4 A-8	4
5	**Oziq–ovqat mahsulotlarining oziqlik va biologik**	Go‘sht. Parranda go‘shti. Oziqlik va biologik qiymati. Go‘sht- sifatli oqsil va faol ekstraktiv moddalarning manbaidir. Hayvon yog‘ining singishi. Go‘shtning sifatini belgilovchi gigiyenik ko‘rsatkichlari. Kasal hayvon go‘shtlarining ishlatilishi, go‘sht orqali tarqalishi	38	N-16 A-22	14

	qiymati, ularni gigiyenik ekspertizasi.	mumkin bo‘lgan kasalliklar. Kolbasa. Oziqlik qiymati. Kolbasa qiymasiga qo‘shiladigan moddalar. Kolbasa mahsulotining sifatini belgilovchi gigiyenik ko‘rsatkichlar. Botulizmning kelib chiqishida kolbasaning ahamiyati. Tuxum va tuxum mahsulotlari. Oziqlik va biologik qiymati. Tuxumga sanitariya jihatidan baho berish. Epidemiologik ahamiyati. Tuxum poroshogi va melanjining olinishi, ularning saqlanishi. Baliq va baliq mahsuloti. Oziqlik va biologik qiymati. Sifatini belgilovchi gigiyenik ko‘rsatkichlar. Baliqning epidemiologik ahamiyati, baliq-gijja tashuvchi. Difilliobotrioz va opistorxozga qarshi profilaktik choralar. Sut va sut mahsulotlari. Oziqlik va biologik qiymati. Sifatini belgilovchi gigiyenik ko‘rsatkichlar. Epidemiologik ahamiyati. Sutni ivitib, achitib tayyorlanadigan mahsulotlarning ovqatlanishdagi ahamiyati. Kasal hayvondan olingan sutlarni zararlantirish usuli. Donning tuzilishi va kimyoviy tarkibi. Donning sifati pasayishiga sabab bo‘luvchi omillar. (Un, yorma, non). Unning chiqimiga qarab biologik va oziqlik qiymati o‘zgarishi. Unning sifatini belgilovchi gigiyenik ko‘rsatkichlar. Nonning sifatini belgilovchi gigiyenik ko‘rsatkichlar. Nonda mikrob tufayli yuzaga keladigan o‘zgarishlar, nonda kartoshka kasalligi. Sabzavot, meva, qo‘ziqorinlar. Oziqlik va biologik qiymati, ularning sifatiga gigiyenik talab. Sabzavot tarkibidagi nitrat va nitritlar. Sabzavot, meva va qayta ishlangan mahsulotni saqlashga bo‘lgan gigiyenik talab. Zaxarli qo‘ziqorinlar-kurbaka salla, muxomor, strochka, yolg‘on opyatalardan zaxarlanishni oldini olish. Ovqat konsentratlari. Konsetratlardan foydalanish. Bolalar uchun parxez ovqat konsentratlari. Ularni saqlashga bo‘lgan gigiyenik talab. Bankali konservalarning gigiyenik ko‘rsatkichlari. Idishga bo‘lgan gigiyenik talab. Ovqatdan zaharlanish. Bankali konservadan zaharlanishning oldini olish choralari. Ovqatga ishlatiladigan yog‘lar. Ovqat yog‘larining tasnifi. Yog‘larni ishlab chiqarishda saqlash va qizdirish jarayonidagi o‘zgarishlar. Alkogolsiz ichimliklar. Ichimlikning kimyoviy tarkibi. Sifatini belgilovchi kimyoviy ko‘rsatkichlar. Ichimlikni saqlash sharoiti va muddati. Konditer mahsuloti. Oziqlik qiymati. Kremli konditer mahsulotining epidemiologik ahamiyati. Saqlash sharoiti va muddati. Oziq-ovqatga qo‘shiladigan xushbo‘y moddalar va bo‘yoqlar. Ularni ovqatga ishlatilishiga qo‘yiladigan gigiyenik talab. Surrogatlar va falsifikatlar tug‘risida tushuncha. Go‘shtni tekshirish. Namuna olish. Organoleptik hususiyati. Sinash uchun qaynatib ko‘rish. Ammiak va vodorod sulfidga reaksiyasi. Kolbasani tekshirish. Namuna olish. Organoleptik xususiyati. Kolbasadagi namlik miqdorini, osh tuzini, nitrat miqdorini aniqlash. Nitritni aniklash. Kolbasadagi kraxmalni aniklash. Sut va sut mahsulotini tekshirish. Namuna olish. Organoleptik xususiyati. Sutning zichligini, mexanik ifloslanganligini aniqlash. Sut va sut mahsulotining kislotaliligi va yog‘ini aniqlash.			

		Pasterlangan sutning sifati (fosfataza) ni aniqlash. Unni tekshirish. Namuna olish. Organoleptik xususiyati. Unning ombor zararkunanda va metall aralashma bilan ifloslanganligini aniqlash. Non. Namuna olish. Organoleptik xususiyati. Kislotaliligi va g‘ovakligini aniqlash. Nonda kartoshka kasalligini aniqlash. Sabzavotlarni tekshirish. Namuna olish. Nitratni aniklash. Bankali konservani tekshirish. Bankaning tashqi ko‘rinishiga baho berish. Bosib tushirilgan harf va raqamlar bilan tanishish. Bombajni aniqlash. Germetikligini tekshirish. Bankali konservalar ichidagi mahsulotga baho berish. Ovqat yog‘larini tekshirish. Organoleptik baho berish. Oksidlanish darajasini aniqlash. Alkogolsiz ichimliklarni tekshirish. Namuna olish. Organoleptik baho berish. Kislotaliligi va zichligini aniqlash. Ovqat mahsuloti tarkibidagi radionuklid borligini tekshirish. Tayyor taomni tekshirish. Namuna olish. Organoleptik baho berish, kaloriyasini xisoblash. Tayyor ovqat mahsulotidan namuna olish. Gigiyenik ekspertiza o‘tkazilganligi to‘g‘risida hujjat to‘ldirish.			
6	**Umumiy ovqatlanish korxonalari gigiyenasi.**	Umumiy ovqatlanish korxonalarining turlari, tuzilishi va jihozlanishi. Asbob-uskunalar, jihozlariga bo‘lgan gigiyenik talab. Oshxona idish-tovoqlarini yuvish qoidasi. SanQvaM bo‘yicha o‘rganish. Xonalar maydoniga bo‘lgan gigiyenik talab. Birlamchi sovuq ishlov berish, taomlarni pishirish, sotilish va tarqatilishiga bo‘lgan gigiyenik talab. Tayyorlovchi sexlar, do‘kon, qandolat, parxez va tayyorlovchi oshxonalarning turlari. Davolovchi profilaktik muassasalarda ovqatlanishni tashkil qilishga bo‘lgan gigiyenik talab. Kremli mahsulot ishlab chiqaruvchi konditer sexiga bo‘lgan gigiyenik talab. Xonalar, jihozlari, kremli mahsulotning sotilishiga bo‘lgan gigiyenik talab. Oziq-ovqat shirkatlari tomonidan ishlab chiqarilgan ovqat mahsulotlarini sanitariya tomonidan nazorat qilish. Umumiy ovqatlanish korxonalarida laboratoriya nazoratini tashkil qilish. Xodimlarning shaxsiy gigiyenasi va ular orasida sanitariya oqartuv ishlarini olib borilishi. Umumiy ovqatlanish korxonalarini sanitariya jihatidan tekshirish usuli. Tayyor taomlardan namuna olish qoidasi. Oshxona, tayyorlovchi oshxona, kasalxonadagi oshxona, tarqatuvchi bufetlar, kremli mahsulot ishlab chiqaruvchi konditer sexlarini sanitariya jihatdan tekshirib, sanitariya-epidemiologik jihatdan xavf tug‘diruvchi omillarni aniqlash. SanQvaM bo‘yicha o‘rganish. Idishlarni yog‘sizlantirib yuvilganining sifatini aniqlash. Sodali suvning konsentrasiyasini, idishdagi qoldiq xlorning borligini aniqlash. Vannadagi suvning, tarqatiladigan tayyor taomning, sovutgichining haroratini aniqlash. Tayyor taomdan namuna olib, baho berish. Tibbiy va yo‘llanma hujjatini tekshirish. Laboratoriya tekshiruvi uchun tayyor taomdan, kulinariya va konditer mahsulotlaridan namuna olish.	1 2	N-4 A-8	8

		Oshxonani sanitariya jihatdan tekshirib, taklif va xulosa bilan dalolatnoma tuzish. Obyektlarni tekshirish vaqtida sanitariya-epidemiya jihatdan xavf tug‘diruvchi omillarni dalolatnomada to‘liq tasvirlash. Obyektlarni tekshirish xulosasiga qarab rahbar bilan shartnoma tuzish. Sanitariya-gigiyena va sanitariya-epidemiyaga qarshi kurash qoidasi buzilganligi to‘g‘risida bayonnoma tuzish. Jarima to‘lash to‘g‘risida qaror to‘ldirish. Shakllarni to‘ldirish.			
7	**Oziq–ovqat bilan savdo qilish gigiyenasi. Oziq – ovqat bilan savdo qilish shahobchalari gigiyenasi. Dehqon bozori gigiyenasi. Mayda chakana savdo gigiyenasi.**	Savdo korxonalarining turlari. Asbob-uskuna, jihozlar,oziq-ovqat mahsulotini qabul qilishga bo‘lgan gigiyenik talab. Omborxona tarmoqlariga, xaridorlarga mahsulotlarni sotishga bo‘lgan gigiyenik talab. Mayda chakana savdo gigiyenasi, uning jihozlanishi, oziq-ovqat mahsulotini sotish sharoiti. Dehqon bozorlari, uning tuzilishiga bo‘lgan gigiyenik talab, bozordagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyasi va uning vazifasi. Savdo korxonasini tibbiy profilaktika ishlari feldsheri tomonidan tekshirish. Savdo xodimlarini gigiyenik o‘qitish va jamoatchi sanitariya inspektorini tayyorlash. Oziq-ovqat do‘konlari, supermarket, minimarketlar, mayda chakana savdo tarmoqlari va dehqon bozorini tekshirish. Bozordagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyasi bilan tanishish. Dalolatnoma tuzib muhokama qilish. Joriy sanitariya nazorat xaritasini to‘ldirish. Sog‘lomlashtirish tadbirlarini olib borish uchun reja topshiriqlarini tuzish.	16	N-8 A-8	6
8	**Oziq-ovqat korxonalarining sanitariya nazorati. Oziq-ovqat korxonalarini sanitariya jihatidan tekshirish.**	Go‘shtni qayta ishlovchi korxonalarga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Molni so‘yishdan oldin qayta ishlanishi, so‘yish jarayoni, qonsizlantirish, mol ichagini qayta ishlash. Kolbasa ishlab chiqarish korxonasiga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Kolbasa kiymasini tayyorlash jarayoni. Nitrit tuzlaridan foydalanish hamda uni saqlash qoidasi. Sexning mikroiqlimi. Kolbasaga termik ishlov berishni nazorat qilish. Go‘sht va go‘sht mahsulotlarini qayta ishlash va zararsizlantirish. Sutni qayta ishlaydigan korxona gigiyenasi. Sut-chorvachilik kompleksiga, fermaga bo‘lgan gigiyenik talab. Sog‘uvchi qurilma va sut idishlariga sanitariya talab. Sutning birinchi qayta ishlanishi va saqlanishi. Laboratoriyada nazoratning tashkil qilinishi. Kasal hayvon sutlarini qayta ishlash. Sut zavodiga qo‘yiladigan gigiyenik talab. Sutni qabul qilish. Kasal hayvon sutlarini qabul qilish, uni qayta ishlash va mashinalarni yuvish. Sutni qayta ishlash, pasterlash rejimini kuzatib borish. Sutning saqlanishi. Idishlarni, asbob-uskunalarni yuvish qoidasi.Sutni ivitish xonalariga bo‘lgan sanitariya talab. Sutni ivitish uchun ishlatiladigan asbob-uskuna, idishlar saqlanishiga gigiyenik talab. Tomizg‘ini saqlash sharoiti va saqlash muddati. Sutni kayta ishlash korxonalari xodimlarining tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi nazorati.Bolalarning sutli oshxonasi va uning tuzilishi. Oqim sistemasiga amal qilinishi. Idishlarni qabul qilish va ularni yuvish. Xo‘jalikdan sutlarni qabul qilish tartibi. Idishlarni berkitish uchun ishlatiladigan qopqoqni sterilizasiya qilish sharoiti. Bolalar sut mahsulotining transportirovkasi. Tayyor mahsulotni	20	N-8 A-12	10

		quyish, qadoqlash va uni tarqatish. Non yopish korxonasining gigiyenasi. Non zavodi binolarining tarkibi. Unning saqlanishi. Unni aralashmalardan tozalash. Tuzli eritma hosil qilish. Nonga qo‘shiladigan moddalarni qayta ishlash. Jihozlarga, asbob-uskunalarga sanitariya ishlov berish. Non zavodi xamir korish uskunalari ustidan sanitariya nazorati o‘rnatish.Konserva ishlab chiqarish korxonasining gigiyenasi. Xom ashyoga birinchi ishlov berish. Bankani germetik berkitish. Sterilizasiyaga bo‘lgan talab. Sterilizasiya rejimini nazorat qilish. Oziq-ovqat korxonalarida ishlovchi xodimlarning shaxsiy gigiyenasi to‘g‘risida tushuncha. Maxsus kiyimlarni ishlatishga va saqlashga bo‘lgan gigiyenik talab. Tana, qo‘l, og‘iz bo‘shlig‘ining xolati. Oziq-ovqat korxonasiga ishga kirishda va ishga kirgandan keyin tibbiy ko‘rikdan o‘tish tartibi. Oziq-ovqat korxonasini tekshirish usuli. Go‘sht kombinati, kolbasa sexi, sut fermasi, sut zavodi, bolalarning sutli oshxonasi,non zavodi, konserva ishlab chiqarish korxonasini sanitariya jihatidan tekshirish. Gigiyena ekspertizasi uchun xom ashyo va tayyor mahsulotlardan namuna olish va surtma olish nuqtasini aniqlash. Dalolatnoma tuzish va muhokama qilish. Sog‘lomlashtirish tadbirlarni olib borish uchun majmua ish rejalari bilan tanishish. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning texnologik jarayoni bilan tanishish. Oziq-ovqat korxonalarini sanitariya-gigiyenik jihatdan tekshirish usulini o‘rganish, tekshirish natijasiga gigiyenik baho berish. Xodimlarning tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi to‘g‘risidagi hujjatlar bilan tanishish.			
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan chiqariladigan buyruq va qarorlar asosida ishlash; - Respublikamizda muammoga aylanib borayotgan ko‘plab yuqumli kasalliklarni tarqalishini oldini olish chora - tadbirlarini ishlab chiqiladi; - har tomonlama mukammal bilimga ega bo‘lgan holda, sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish shakllanadi; - bemorlarni davolash va parvarishlash asoslarini amalga oshiriladi; - laborator taxlillarini o‘qiy oladi va tibbiy hujjatlarni rasmiylashtiradi; - kasallik o‘chog‘ida epidemiyaga qarshi ishlarni amalga oshiradi; - sog‘lom turmush tarzini va infeksion nazorat qoidalarini targ‘ibot qilish shakllanadi.
Bilim	- yuqumli kasalliklar fani vazifalari, rivojlanish tarixi; - yuqumli kasalliklarni kelib chiqish sabablari va aholi o‘rtasida tarqalishini oldini olish chora-tadbirlari; - infeksion jarayon haqida tushuncha, yuqumli kasalliklar tasnifi va belgilari; - ich terlama, paratif A va B kasalliklarini etiologiyasi va epidemiologiyasi; - yuqumli kasallik bilan og‘rigan bemorlarni ko‘zdan kechirish; - kasalliklarni boshqa davlatlardan kelishini oldini olish uchun Sanitariya Nazorat Punktining (SNP) ishi; - OITS qo‘zg‘atuvchisi haqida zamonaviy ma’lumotlar, kasallikni yuqish yo‘llari, epidemiologik jarayoni; - OITS oqibatlari va profilaktik choralari; - tibbiyot xodimlarining kasbiy zararlanishini oldini olish; - qonni immunologik tekshiruvga olishni va laboratoriyaga yuborish; - tibbiy uskunalarni sterilizasiyadan oldingi ishlovi va sterilizasiya o‘tkazish; - parenteral muolaja o‘tkazishda shaxsiy himoya choralarini qo‘llash; - aholi o‘rtasida sanitar - maorif ishlarini olib borish; - o‘lat kasalligi infeksiyasini tarqalishida burgalar va kemiruvchilarning roli; - brusellyoz kasalligining tarqalish sabablari va epidemik jarayoni; - sodda jonivorlarni etiologiyasi va epidemiologiyasi; - amyobioz, lyamblioz, toksoplazmoz kasalligining oldini olish choralari; - gelmintlarni morfologiyasi bilan tanishish va bir-biridan farqlash; - kasalliklarni yuqish faktorlari va yo‘llarini aniqlash; - kasalliklarning klinik belgilari va tashxisi; - davolash usullari va vositalari; - kasallik o‘chog‘ida o‘tkaziladigan chora – tadbirlarni amalga oshirish;

Ko‘nikma	- bemorni birinchi sanitariya nazoratidan o‘tkazish; - joriy va profilaktik dezinfeksiya o‘tkazish; - shoshilinch xabarnoma to‘ldirish; - yuqumli kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarni shifoxonaga qabul qilish; - bemorning kiyimlari va tagliklarini almashtirish va parvarishlash; - parxez stollarini qo‘llash, bemorlarni turli usullarda ovqatlantirish; - tibbiy hujjatlarni to‘ldirish; - bemorlardan laboratoriya tekshiruvi uchun material olish; - emlash kalendar sxemasi, maxsus profilaktika ishlarini o‘rganish; - emlash uchun ishlatilgan preparatlarning yaroqligini tekshirish, qo‘llash, rejali emlashni tashkil etish va o‘tkazish qoidalari; - ich terlama, paratif A va B kasalliklarini etiologiyasi va epidemiologiyasi; - bemordan klinik va epidemiologik anamnez yig‘ish; - laborator tekshirish uchun material yig‘ish va yo‘llanma to‘ldirish; - laborator tekshirish usullari; - infeksiya o‘chog‘ida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar, joriy va yakuniy zararsizlantirishni o‘tkazish; - og‘iz suvsizlangan bemorlarga suv, suyuq dori preparatlarini yuborish; - bemorni ovqatlantirish va parvarishlash; - vena ichiga dori moddalarini tomchi usulida yuborish; - botulizmga qarshi zardob yuborish; - o‘tkir diareya bilan og‘rigan bemorlardan vabo kasalligiga laborator tekshirish uchun analiz material yig‘ish; - himoya kiyimlarini kiyish va yechish; - bemorlarning teri qoplamlari, shilliq qavatlari va ko‘z sklerasini, tomoq – shilliq pardasini ko‘zdan kechirish; - jigar va taloqni paypaslash yo‘li bilan chegaralarini aniqlash; - sterilizatsiya o‘tkazishga asboblarni tayyorlash; - tomoq – shilliq pardasi gipertermiyasida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish; - bo‘g‘maga qarshi maxsus AKDS vaksinasini yuborish; - quloq osti, so‘lak bezi, limfa tugunlarini paypaslab ko‘rish; - talvasa hollarida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish; - isitmalayotgan bemordan qon olish, qalin qon tomchisi va surtmasini tayyorlash; - tibbiy uskunalarni sterilizatsiyadan oldingi ishlovini va sterilizatsiyani o‘tkazish; - parenteral muolaja o‘tkazishda shaxsiy himoya choralarini qo‘llash; - aholi o‘rtasida sanitariya – maorif ishlarini olib borish; - hayvon tishlagan odamlarning jarohat yaralarini birlamchi jarrohlik tozalovidan o‘tkazish; - epidemik anamnez yig‘ish.
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fan nomi	“Anatomiya, fiziologiya va patologiya” “Umumiy gigiyena va ekologiya” “Mikrobiologiya” “Tibbiy parazitologiya va epidemiologiya asoslari” “Dezinfeksiya ishi” “Teri va tanosil kasalliklari”
O‘qitishni tashkiliy shakli	N – nazariy ta’lim; A – amaliy ta’lim;

	NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar; MX – maxsus xonalarda mashg‘ulot
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol – javob, munozara, test, amaliy topshiriq. Joriy va yakuniy nazorat

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	jami	O‘ qitishning tashkiliy	Mustaqil ta’ lim
1	**Yuqumli kasalliklar fani haqida tushuncha va fanning rivojlanish tarixi.**	Yuqumli kasalliklar fanining rivojlanish tarixi, maqsad va vazifalari. Yuqumli kasalliklarning o‘ziga xos xususiyatlari, bosqichlari. Yuqumli kasalliklarning tasnifi.Yuqumli kasalliklarni kelib chiqish sabablari. Infeksion jarayonning rivojlanishi. Aholi o‘rtasida yuqumli kasalliklarni oldiniolishchora-tadbirlari. “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni.	2	N-2	2
2	**Yuqumli kasalliklar shifoxonasining tuzilishi va uningish tartibi. Yuqumlikasallikl arning maxsus profilaktikasi.**	Yuqumli kasalliklar shifoxonasi tuzilishi bilan tanishish Shifoxonaning ish tartibi. “Shoshilinch xabarnoma” to‘ldirish Yuqumli kasalliklar xonasida bemorlarni qabul qilish va tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish. Bemorlarni sanitariya tozaligidan o‘tkazish. Bemorlarni bo‘limlarga transportirovka qilish. Bemorning kiyimlari va tagliklarini almashtirish va parvarishlash usullari. Emlash xonalarining tuzilishi. Emlash uchun ishlatiladigan preparatlarning yaroqligini aniqlash, ularni qo‘llash, “brokeraj” qilish. Emlash kalendar sxemasi, maxsus profilaktika ishlarini rejalashtirish va o‘tkazish qoidalari. Tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish va to‘ldirish.Parxez stollarining turlari.	4	A-4	2
3	**Ichak infeksiyalari. Ichterlama. Paratif A va B kasalliklari. Dizenteriya.**	Ichak infeksiyasi haqida tushuncha. Epidemiologik anamnez yig‘ish. Yuqish mexanizmi. Klinik xususiyatlari, asoratlari. Salmonella va shigellalar keltirib chiqaradigan kasalliklarning (ich terlama va paratif A va V, dizenteriya) kasalliklarin farqlash. Ichak infeksiyasini oldini olish, infeksiya o‘chog‘ida o‘tkaziladigan tadbirlarni rejalashtirish, nazorat qilish. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining amaldagi buyruqlari.Klinik va epidemiologik anamnez yig‘ish. Bemorlardan bakteriologik va serologik tekshirishlar uchun material yig‘ish. Ich terlama o‘chog‘ida kasallikka qarshi tadbirlar rejasin	10	N-2 A-8	6

		tuzish. Aholi o‘rtasida sanitariya – maorif ishlarini tashki qilish.			
4	**Botulizm, Salmonellyoz. Ovqat toksikoinfeksiyasi.**	Ichak infeksiyasi kasalliklarining qo‘zg‘atuvchilari, rivojlanish mexanizmi. Yuqish yo‘li. Asosiy klinik ko‘rinishi, asoratlari. Toksikoz va eksikoz haqida tushuncha. Bemorlarni ko‘zdan kechirish. Parxez ovqatlantirish. Kasallikni oldini olish. Profilaktik chora-tadbirlar o‘tkazish. Kasalliklarni oldini olishda sanitariya-maorif ishlarining ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi hududida salmonellyoz va o‘tkir ichak infeksiya kasalliklarini oldini olish to‘g‘risida amaldagi buyruqlari. Epidemiologik anamnez yig‘ish. Kasallikning asosiy klinik belgilarini o‘rganish. Bemor holatiga baho berish. Bemorni ko‘zdan kechirish. Bakteriologik tekshirish va umumiy taxlil uchun najas olish. Qonni serologik tekshirishga olish. Olingan materiallarni laboratoriyaga jo‘natish, yo‘llanma varaqasini to‘ldirish. Natijalarnitaxlil qilish.	4	A-4	2
5	**Vabo kasalligi.**	Vaboning epidemiya va pandemiya xolati. Etiologiyasi, epidemiologik jarayoni. Vaboning klinik ko‘rinishlari. Sog‘ayganlarni shifoxonadan chiqarish. Kasallikni oldini olish. Sanitariya-maorif ishlari. Chet davlatlardan infeksiya kirishini oldini olish. Himoya kiyimlarini qo‘llash tartibi. Bemorlardan epidemiologik anamnez yig‘ish. Bemorlarni ko‘zdan kechirish. Venaga tomchi usulida dori vositalarini yuborish. Laboratoriya tekshiruviga analiz materiallarini olish. Himoya kiyimlarini kiyish va yechish qoidalari. Kasallik o‘chog‘ida joriy va yakuniy dezinfeksiya ishlarini o‘tkazish. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining amaldagi buyruklari	4	A-4	2
6	**Nafas yo‘llar infeksiyalari. Qizamiq. Suvchechak. Skarlatina.**	Qizamiq, suv chechak, skarlatina kasalliklarini etiologiyasi, epidemiologiyasi, rivojlanish mexanizmi. Kasallikning klinik manzarasi. Asoratlari, davosi. Maxsus profilaktikasi. Epidemiyada joriy zararsizlantirish ishlarini olib borish. Sanitariya–maorif ishlarini olib borish. Qizamiq, suv chechak, skarlatina bilan og‘rigan bemorlarni ko‘zdan kechirish. Bemorlarni parvarish qilish. Tashxisoti, epidemik va klinik anamnez yigish, laboratoriya usullari, Tibbiy xodimlarning ishlash qoidalari. Kasallikni oldini olish-oqliklarni toza saqlash, xonalarni shamollatish, palatalarni kvars lampalari bilan zararsizlantirish, dezinfeksiya kilish.	10	N-2 A-8	6
7	**Gripp. O‘RVI. Koranovirus infeksiyasi.**	Gripp, O‘RVI, koranovirus infeksiyalari haqida tushuncha. Kasalliklarning etiologiyasi, epidemiologiyasi, epidemiologik jarayon, patogenez va klinikasi. Tibbiy xodimlarning ishlash qoidalari. Kasallikni oldini olish chora-tadbirlari.Dezinfeksiya kilish xonalarni shamollatish, palatalarni kvars lampalar bilan zararsizlantirish,. Grippga qarshi emlash. “O‘zbekiston Respublikasi hududida Gripp, kasalligini oldini olish to‘g‘risi”da amaldagi buyruqlar. Koranovirus infeksyasini bartaraf qilish yo‘lidagi olib borilayotgan ishlar.	2	N-2	2
8	**Difteriya**	Difteriya, ko‘kyo‘tal kasalliklari, etiologiyasi, epidemiologiyasi,	6	N-2	2

	(bo‘g‘ma) Ko‘kyo‘tal.	patogenezi, klinikasi. Maxsus profilaktika sxemasi, oldini olish choralari. Epidemiyaga qarshi ishlari, aholi o‘rtasida sanitariya – maorif ishlarini olib borish . O‘zbekiston Respublikasi hududida kasallikni oldini olish to‘g‘risida amaldagi buyruqlar.Bemor tomog‘idan surtma olish, laboratoriyaga yo‘llanma yozish va yuborish koidasi. Bemorlarni ko‘zdan kechirish, davolash va parvarish qilish. Bo‘g‘maga qarshi antitoksik zardob yuborish. Kasallikka karshi maxsus profilaktikasi (AKDS vaksinasi).		A-4	
9	**Meningokokkli infeksiya. Tepk (epidemik parotit).**	Meningokokkli infeksiya, tepkikasalliklarining qo‘zg‘atuvchisi, etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi. Bemorlarni davolash, maxsus profilaktika sxemasi. Kasallik o‘chog‘ida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni o‘tkazish. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining tepki va meningokokk infeksiyasini oldini olish bo‘yicha amaldagi buyruqlari. Epid.parotit bilan og‘rigan bemorlarni ko‘zdan kechirish. Bemorlarni parvarish qilish. Epid. parotitda issiq quruq bog‘lam qo‘yish. Xonalarni va bemor ishlatgan idishlarni zararsizlantirish chora – tadbirlari.Meningokokkinfeksiyalaridan laborator tekshiruvga material olish. Talvasaga qarshi dori preparatlari. Infeksiyani oldini olish, infeksiya o‘chog‘ida o‘tkaziladagan chora-tadbirlar.	6	N-2 A-4	2
10	**Qon orqal o‘tadigan infeksiyalar. Toshmali terlama, Bril kasalligi. Bezgak. Gemorragik isitmalar.**	Toshmali terlama, Brill kasalligi, bezgak,gemorragikisitmalarning kelib chiqish sabablari, etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi, davolash va oldini olish uchun chora-tadbirlari. Bezgak turlari.Bezgak differensial tashxisoti. Bemorlardan qon olish. Laborator tekshiruvlarga yo‘llanmalar yozish va yuborish. Serologik, morfologik tekshiruv o‘tkazish. Davolash, oldini olish. Bezgak xurujida bemorga yordam ko‘rsatish. Gipertermiyada shoshilinch yordam ko‘rsatish. Infeksiyaga qarshi chora-tadbirlar o‘tkazish.	6	N-2 A-4	2
11	**Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) va gepatit viruslari.**	Orttirilgan immunitet tanqisligisindromi etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenezi, klinikasi, profilaktikasi. OITS bilan zararlanganlarni dispanserizasiya qilish. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining amaldag buyruklari. OITS bilan zararlanishning oldini olish. Tibbiyot xodimlarining kasbiy zararlanishi. Virusli gepatitning turlari haqida tushuncha. Virusli gepatit etiologiyasi, epidemiologiyasi.Bemorning shikoyatlari, epidemiologik va klinik anamnezi. Laborator tekshirishlarning ahamiyati. Bemorlarni parvarishlash, davolash. Parxez stollari. Tibbiy asboblarni sterilizasiyaga tayyorlash. Habarnoma to‘ldirish qoidalari. Observasiya varag‘ini to‘ldirish.	2	N-2	2
12	**Tashqi qoplamlar**	Quydirgi, qutirish, qoqshol kasalliklarining etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik belgilari. Tekshirish usullari. Davolash	6	N-2 A-4	2

	infeksiyalari. Kuydirgi. Qutirish . Qoqshol .	Maxsus profilaktikasi. O‘zbekiston Respublikasi hududida kuydirgi, kutirish va qoqshol kasalligini oldini olish bo‘yicha amaldag buyruklari.Bemorlarni ko‘zdan kechirish, epidemiologik anamnez yig‘ish, kasallikning asosiy belgilarin o‘rganish.Jarrohlik tozalov ishlovini o‘tkazish.Antirabik vaksina va gammaglobulin yuborish. Shoshilinch habarnoma to‘ldirish. Kuydirgida bemordan analiz uchun material olish, ehtiyot choralarini ko‘rib, laboratoriyaga yuborish.Kasallikdan o‘lgan uy hayvonlarni “utilizasiya” qilish.Talvasa paytida bemorga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.Profilaktika chora– tadbirlar.			
13	**Turli yo‘llar bilan yuqadigan infeksiyalar. Toun (o‘lat), Brusellyoz kasalliklari**	O‘lat, brusellyoz kasalligining qo‘zg‘atuvchisi haqida ma’lumotlar. O‘latning tarqalishi sabablari va mexanizmi. O‘lat epidemiyalarining aholi o‘rtasida va hayvonlar o‘rtasida tarqalishining o‘zaro bog‘liqligi. O‘lat kasalligida epidemiologik jarayonning namoyon bo‘lishidagi omillarning o‘ziga xosligi. Brusellyoz kasalligining tarkalish sabablari va epidemik jarayoni. Kasalliklarni klinik belgilari va tashxis usullari. Davolash usullari va vositalari. Kasalliklarning o‘choqdagi profilaktika chora–tadbirlari, dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizasiya. O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘lat va brusellyoz kasalligini oldini olish to‘g‘risida amaldagi buyruklar. Bemordan laborator tekshiruv uchun material olish va tashxisot usullari. Tibbiyot xodimi o‘zini himoya qilish choralari. Bemorga zardob yuborish. Bemorlarni parvarish qilish. O‘lat o‘chog‘ida o‘tkaziladigan chora – tadbirlar. Laborator tekshirish usullari. Byurne sinamasi. Davolash prinsiplari. Kasalliklarning o‘choqdagi profilaktika chora–tadbirlari. Himoya kiyimini qo‘llash qoidasi.	6	N-2 A-4	2
14	**Parazitar kasalliklar. Protozoy kasalligi, amyobiaz, lyamblioz, toksoplazmoz. Gelmintozlar.**	Sodda jonivorlar, gelmintoz, protozoy kasalliklari haqida ma’lumotlar. Ularning tarqalishi sabablari va mexanizmi. Kasalliklarning etiologiyasi, tarqalish yo‘llari. Klinik belgilari. Aholi o‘rtasida sanitariya-maorif ishlarini olib borish. Bemordan laborator tekshirish uchun material olish. Hujjatlarn to‘ldirish. Kasallik o‘chog‘ida o‘tkaziladigan chora-tadbirlar.O‘zbekiston Respublikasi sog‘likni saqlash vazirligining O‘zbekiston Respublikasi xududida gelmintozlarni oldini olish to‘g‘risida amaldagi buyruqlar.	4	A-4	2
	Jami:		**72**	**N-20 A-52**	**36**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash.

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonilan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, ogʻzaki, savol – javob, test, joriy va yakuniy nazorat hamda amaliy topshiriqlardan iborat boʻlib, ular oʻquv elementini oʻzlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshriqlar qoʻyilgan maqsadga muvofiq boʻlishi lozim

4.Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Prezident asarlari:

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari" Toshkent – "Oʻzbekiston" 2020 y.
2. Shavkat Mirziyoyev "Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir".Toshkent – "O'zbekiston" 2019 y
3. Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir" Toshkent – "Oʻzbekiston" 2018 y
4. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz" Toshkent – "Oʻzbekiston" 2018 y

Asosiy adabiyotlar:

1. R.E.Giyasova, S.A. Mirzayeva." Sestrinskiy uxod za pasiyentami s

infeksionnыmi zabolevaniyami" "ILMZIYO" Tashkent. 2015 yil

2. Ye.I.Musaboyev, A.Q.Bayjanov. "Yuqumli kasalliklar, epidemiologiya va

parazitologiya". Toshkent, "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 yil

3.A.G.Raxmanova, V.K. Prigojina. "Infeksionnыye bolezni". PITER. Sank-Peterburg. Moskva-Xarkov- Minsk-2001 yil

4. Vafokulov. S. X.Xodiyev. X.X. Boyjonov. A.K. Yermuxamedova M.K.

"Yuqumli kasalliklar" fanidan amaliy mashgʻulotlar boʻyicha uslubiy qoʻllanma.

Samarkand 2001 yil.

1. Oʻzbekiston medisina ensiklopediyasi. 1-jild.

Internet manbalari:

1. www.ziyonet.uz,
2. www.lex.uz.,
3. www.google.uz,
4. www.med.uz.,
5. www.referat.uz.,
6. www.tma.uz.,
7. www.gigiyena.uz.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

KASB KASALLIKLARI
fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikasiya nomi: **Tibbiy profilaktika ishi feldsheri**

O‘quv rejadagi tartib raqami: **2.14**

Ajratilgan soat: **48**

Toshkent – 2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi:

D.A.Jabborova — 2 – Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi “Gigiyena va laboratoriya” kafedrasi mudiri

Taqrizchilar:

Z.Z.Kadirov — Yunusobod tumani Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi qo’mitasi bo’limi boshlig’i

G.K Mannonova — 2- son Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi uslubchisi

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Kasb kasalliklari**
Ajratilgan soat	48
Mavzular soni	13
Dasturning maqsadi	Kasb kasalliklari fanini o‘qitishdan maqsad – o‘quvchilardan kasb kasalliklari fani bo‘yicha mutaxassislik amaliyotida kerak bo‘ladigan bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va kasb kasalliklarini oldini olish bo‘yicha profilaktik usullarni egallagan yuqori malakali – tibbiy profilaktika ishi feldsheri mutaxassisini tayyorlashdan iborat.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	Ish joyida xavfli va zararli omillarning ta’sirida ishlovchilar orasida yuzaga keladigan kasb kasalliklarini aniqlash, oldini olish usullarini, sog‘liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalari tuman va tarmoq Sanitariya- epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi qo’mitasida, shlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish obyektlarini sanitariya holatini o‘rganish, gigiyenik baholash va profilaktik tavsiyalar ishlab chiqish faoliyatini olib borish kabi bilim va ko’nikmalari shakllanadi.
Bilim	- kasb kasallklarining nazariy etio-patogenetik asoslar kasb kasalliklarining barvaqt ko‘rinishlarini aniqlash usullari va dagnostikasi; - ko‘p uchraydigan kasb kasalliklarining tasnifi asosiy ko‘rinishlari; - kasb kasalliklarida etiotrop, antidot va boshqa davolash usullari; - kasb kasalliklarida bemorlarning mehnat layoqati ekspertizasi; - kasb kasalliklarini oldini olishga qaratilgan texnologik, sanitar-gigiyenik va tibbiy profilaktik chora-tadbirlar; - bemorning kerakli hujjatlar to‘plami, davolash rejasini belgilash va mehnat layoqatini to‘g‘ri ekspertiza qilish, olingan ma’lumotlarni sanitar vrach bilan birgalikda taxlil qilish.
Ko‘nikma	- kasb kasalliklarining umumiy diagnostik usullari; -kasb kasalliklarini oldini olishda profilaktik tibbiy ko‘riklar, me’yoriy hujjatlarni to‘ldirish; - kasbiy kasallik varaqasini to‘ldirilish qoidalari; - nogironlik guruhlarini aniqlash; - kasb kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni sog‘aytirish chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish; - pnevmokonioz, bronxitlar, bronxial astma, ishlab chiqarish changi, tayanch harakat apparati, vibrasiya (tebranish), koxlear nevrit, terining kasbiy kasaliklari, simob, qo‘rg‘oshin va uning birikmalaridan, organik eritmalaridan, pestisidlardan o‘tkir va surunkali zaharlanish ta’sirida yuzaga keladigan kasalliklar shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish, tashxisi, mehnat ekspertizasi; - kasb kasalliklarini oldini olish chora-tadbirlarni ishlab chiqish; - dastlabki va davriy profilaktik tibbiy ko‘riklarni tashkil qilish va nazoratini o‘tkazish.
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fan nomi	Mehnat gigiyenasi Kommunal gigiyena Ovqatlanish gigiyenasi Radiatsion gigiyenasi

	Umumiy gigiyena va ekologiya Anatomiya, fiziologiya va patologiya asoslari Mikrobiologiya Teri tanosil kasalliklari Yuqumli kasalliklar Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi Epidemiologiya asoslari Tibbiy parazitologiya Dezinfeksiya ishi
O‘qitishni tashkiliy shakli	N – nazariy ta’lim; A – amaliy ta’lim; NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar; MX – maxsus xonalarda mashg‘ulot
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol – javob, munozara, test, amaliy topshiriq. Joriy va yakuniy nazorat

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	jami	O‘ qitishning tashkiliy	Mustaqil
1	**Kasb kasalliklarining etiologik omillari, tasnifi, diagnostikasi va oldini olish chora-tadbirlari**	Ishlab chiqarishdagi zararli omillarining turlari. Kasb kasalliklarining tasnifi. Kasb kasalliklarining umumiy diagnostik usullari. Kasb kasalliklarini davolash va profilaktik chora-tadbirlari. Kasb kasalliklarini oldini olishda profilaktik tibbiy ko‘riklarning ahamiyati. Kasb kasalliklarida me’yoriy hujjatlar.	**2**	**N-2**	**2**
2	**Kasb kasalliklarida mehnat ekspertizasi.**	Kasb kasalliklarida mehnat ekspertizasining o‘ziga xos xususiyatlari, ahamiyati. Kasbiy kasallik varaqasi. Nogironlik guruhlari. Kasb kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni sog‘aytirish chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.	4	A-4	-
3	**Ishlab chiqrish ta’siridan rivojlangan kasb kasalliklari. Pnevmokonioz.**	Ishlab chiqarish changi haqida tushuncha. Pnevmokoniozlar. Pnevmokoniozlarning tasnifi. Silikoz, etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinik ko‘rinishi, asoratlari. Rentgenologik diagnostikasi. Kasalliklar tashxisi. (tuberkulyoz va boshqa o‘pka kasalliklari). Mehnat ekspertizasi. Havodagi chang miqdorni FPP -15 filtri bilan aniqlash.	2	N-2	**2**
4	**Kasbiy bronxitlar va bronxial astma.**	Kasbiy bronxitlar va bronxial astma. Etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinik kechish xususiyatlari. Diagnostikasi. Kasalliklar tashxisi. Mehnat ekspertizasi. Ishlab chiqarish changi ta’sirida	4	A-4	**2**

		rivojlangan kasb kasalliklarining profilaktikasi.			
5	**Ishlab chiqarishning fizik omillari ta’siridan rivojlangan kasb kasalliklari.**	Ishlab chiqarishning fizik omillarining turlari va ular ta’sirida rivojlanadigan kasb kasalliklari. Yuqori va past atmosfera bosimi ta’sirida yuzaga keladigan kasb kasalliklari (Kesson, tog’ kasalligi). Fizik omillarning inson organizmiga salbiy ta’sirini oldini olish chora-tadbirlari. Ishlab chiqarish mikroiqlimini o‘lchash usullari.	4	A-4	**2**
6	**Shovqin va vibratsiyaning organizmga ta’siri. Vibrasiya va koxlear nevrit kasalligi.**	Shovqin, vibratsiya va ultratovushning organizmga ta’siri, kasbiy koxlear nevrit. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi. Ishlab chiqarishda shovqin darajasini o‘lchash.Umumiy va mahalliy vibrasiya ta’siridan rivojlangan vibrasiya kasalligining tasnifi, bosqichlari, asosiy klinik sindromlari. Kasalliklar tashxisi, davolash asoslari, mehnat ekspertizasi va profilaktikasi.	6	N-2 A-4	**2**
7	**Ishlab chqarishda shikastlanishlar.**	Ishlab chqarishda shikastlanishlar (travmatizm). Shikastlanishlar etiologiyasi, turlari, patogenezi. Texnika xavfsizligi bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar. Tibbiy mehnat ekspertizasi va profilaktikasi.	6	N-2 A-4	**2**
8	**Tayanch harakat apparatining kasbiy kasalliklari.**	Tayanch harakat apparatining kasbiy kasalliklarining etiologiyasi va patogenezi. Shu guruhdagi kasalliklarning klinik xususiyatlari. Diagnostikasi va mehnat ekspertizasi.	6	N-2 A-4	**2**
9	**Kimyoviy omillar ta’siridan rivojlangan kasb kasalliklar – kasbiy o‘tkir va organik eritmalardan zaharlanishlar.**	Kimyoviy omillar ta’siridan rivojlangan kasb kasalliklar, zaharlanishlar. Simob, qo‘rg‘oshin va uning birikmalaridan zaharlanish. Etiologiyasi va patogenezi. Klinikasi va diagnostikasi. Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish va davolash asoslari, antidotlarni qo‘llash. Mehnat ekspertizasi va profilaktikasi. Organik eritmalarning tasnifi. Benzol va uning gamologlaridan zaharlanish. Etiologiyasi va patogenezi. O‘tkir va surunkali zaharlanishlar – klinika va tashxisi. Mehnat ekspertizasi va profilaktikasi. Havodagi uglerod oksid SO gazini ekspress usulida aniqlash.	4	A-4	**2**
10.	**Pestisidlar va ulardan zaharlanishlar.**	Pestisidlar tasnifi. Fosfororganik va xlororganik pestisidlardan o‘tkir va surunkali zaharlanishlar – klinikasi va tashxisi. Mehnat ekspertizasi va profilaktikasi.	2	N-2	**2**
11.	**Terining kasbiy kasalliklari.**	Terining kasbiy kasaliklarining etiologiyasi, klinik belgilari, tashxisot, davolash asoslari. Mehnat ekspertizasi va profilaktikasi.	2	N-2	**2**
12.	**Nurlanish ta’sirida yuzaga keladigan kasb kasallklar**	Nurlanish ta’sirida yuzaga keladigan kasb kasalliklar, ularning turlari. Etiologiyasi, patogenezi. Mehnat ekspertizasi va radioaktiv moddalar bilan ishlashda profilaktik chora-tadbirlar.	2	N-2	**2**
13.	**Ishlab chiqarish korxonalarida**	Ishlab chiqarish korxonalarida kasallanish. Umumiy va kasbiy kasallanish natijalarini taxlil qilish. Kasbiy	4	A-4	**2**

	kasallanish.	zararli va nohush omillar ta’sirida ishlovchilarning dastlabki va davriy profilaktik tibbiy ko‘riklarni tashkil qilish va nazoratini o‘tkazish. Tibbiy sanitariya qismlarining ishlari bilan tanishish.			
	Jami		**48**	**N-16 A-32**	**24**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash.

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonilan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol – javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

4.Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Prezident asarlari:

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” Toshkent – “O‘zbekiston” 2020 y.
2. Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.Toshkent – “O’zbekiston” 2019 y
3. Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y
4. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y

Asosiy adabiyotlar:

1. Sh.K.Mahmudova “Kasb kasalliklari”. Darslik. Toshkent “Yangi asr avlodi” nashriyoti 2011 yil.
2. Sh.K.Mahmudova “Kasb kasalliklari”. Darslik. Toshkent “Yangi asr avlodi” nashriyoti 2008 yil.
3. V.G.Artamonova, N.A.Muxin “Professionalnqye bolezni” uchebnik. Moskva. “Medisina” 2004 g.
4. G.S.Agzamova, M.K.Tashmuxamedova “Kasb kasalliklarining zamonaviy holati va uning profilaktik chora-tadbirlari” metodik qo‘llanma. Toshkent “Asr-matbuot” 2017 yil

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz,
2. www.lex.uz ,
3. www.google.uz,
4. www.med.uz.,
5. www.tma.uz.,
6. www.gigiyena.uz.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

HAMShIRALIK IShI TEXNIKASI
fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikasiya nomi: **Tibbiy profilaktika ishi feldsheri**
O‘quv rejadagi tartib raqami: **2.15**

Ajratilgan soat: **96**

Toshkent – 2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan.
TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi:

R.A Ozodova	2 – son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi” Hamshiralik ishi” bosh o’qituvchisi

Taqrizchilar:

D.M. Sharafidinxodjayeva	2- son Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi IChT bo’yicha director o’rinbosari
R. Xaydarova	Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazi bosh hamshirasi

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Hamshiralik ishi texnikasi**
Ajratilgan soat	96
Mavzular soni	12
Dasturning maqsadi	Hamshiralik ishi bo‘yicha barcha nazariy va amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish. Parvarishlash usullarini, turli laborator va instrumental tekshiruvlarga kerakli jihozlarni va bemorlarni tayyorlash ularda malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	- hamshiralik ishi faninig rivojlanish tarixi o‘rganiladi; - davolash profilaktika muassasalari va ularda yuritiladigan tabbiy hujjatlarni rasmiylashtirish xaqida ma’lumotlar beriladi; - shifoxona ichi infeksiyasi, hamshira va bemorning infeksion xavfsizligini ta’minlash xaqida; - hamshiralikda parvarish qilish usullari; - bemorlarning funksional holatini baholash usullari; - bemorlarda o‘tkaziladigan turli tibbiy muolajalar texnikasi; - kechiktirib bo‘lmaydigan xolatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish ; -O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Sog‘liqni saqlash vazirligining buyruq va uslubiy tavsiyalari o‘rganiladi.
Bilim	- hamshiralik ishini ta’rifi va rivojlanish tarixi haqida tushuncha. - hamshiralik ishining ahloqiy asoslari. Etika va deontologiya haqida tushuncha. -davolash profilaktika muassasalarining turlari va vazifalarini; -hamshiralik ishi texnikasida barcha muolajalarni bajarish bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.
Ko‘nikma	-tibbiy hujjatlarni to‘ldirish; -qo‘lni yuvish va steril qo‘lqop kiyish va yechish; - infeksiya va infeksion jarayon haqida tushuncha. - bemorlarning shaxsiy gigiyenasi. - bemorlarni ovqatlantirish. - bemorlarni funksional holatin baholash. - me’da-ichak yo‘li muammolari va ularning sabablarini bilish; - soddalashtirilgan fizioterapevtik muolajalarning organizmga ta’sir kilish mexanizmi. -laborator va asbob uskunali tekshiruvlarining asosiy usullari va ularning ahamiyati. -dori moddalarini yuborish usullari.
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fan nomi	“Anatomiya, fiziologiya va patologiya” “Tibbiyotbiologiyasiva odam genetikasi” “Valeologiya” “Klinik patalogiyavabirinchitibbiyyordam” “Favqulotda holatlar tibbiyoti” “Yuqumli kasalliklar ” “Dezinfeksiya ishi”
O‘qitishni tashkiliy shakli	N – nazariy ta’lim; A – amaliy ta’lim; NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar;

	MX – maxsus xonalarda mashg‘ulot
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol – javob, munozara, test, amaliy topshiriq. Joriy va yakuniy nazorat

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	jami	O‘ qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’ lim
1	**Hamshiralik ishi faniga kirish**	Hamshiralik ishini ta’rifi. Hamshiralik ishining rivojlanish tarixi. Hamshiralik ishining rivojlanishiga F.Naytingeyl va V.Xenderson qo‘shgan xissasi. XX asrdan boshlab hamshiralik ishi. O‘zbekistonda hamshiralik ishining rivojlanishi. Hamshiralik ta’limi. Xalqaro hamshiralar assosiasiyasi va turli davlatlarda o‘xshash assosiasiyalarning tashkil qilinishi.	2	N-2	1
2	**Hamshiralik ishining ahloqiy asoslari va deontologiyasi. Hamshiralik ishida muloqat**	Hamshiralik ishining ahloqiy asoslari. Etika va deontologiya haqida tushuncha. Etika va qonun. Etika tamoyillari. Hamshiralik kasbi va etika. Hamshira faoliyatida bajarilishi shart bo‘lgan harakatlar. Hamshiralik ishida muloqat. Muloqat haqida tushuncha, uning bosqichlari va turlari, vazifalari. Muloqatga olib keluvchi va halaqit beruvchi omillar. Muloqat samaradorligini belgilovchi ko‘rsatkichlar. Tibbiyot hamshirasining muloqat mohirligi (vaqtni hisobga olgan holda to‘g‘ri tuzilgan gap).	2	N-2	1
3	**DPM ning asosiy turlari, yo‘nalishlari va tibbiy hujjatlarni yuritish**	Davolash profilaktika muassasalarining yo‘nalishlariga ko‘ra turlari va vazifalari. Oilaviy poliklinikalarda patronaj ishlarini olib borish. DPM da yuritiladigan tibbiy hujjatlar. Shifoxonada va poliklinikada yuritiladigan tibbiy hujjatlarning tuzilishi, vazifasi, shakllari.Tibbiy statistika haqida tushuncha. Aholi salomatligi ko‘rsatgichlari, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatgichlari. Bemorni shifoxonaga qabul qilish, qayd etish kitobi va kasallik tarixining titul varaqasini to‘ldirish. Yuqumli kasallik haqida shoshilinch habarnoma to‘ldirish. Davolash bo‘limlarida yuritiladigan tibbiy hujjatlarni to‘ldirish. Tibbiy statistikada yuritiladigan tibbiy hujjatlarni to‘ldirish.	6	N-2 A-4	3
4	**Infeksiya nazorati, infeksion xavfsizlik**	Infeksiya va infeksion jarayon haqida tushuncha. Shifoxona ichidagi infeksiya (ShII) haqida tushuncha. ShII qo‘zg‘atuvchilari. ShII aniqlanadigan joylar. ShII chaqiruvchi kasalliklar va ularning yuqish yo‘llari. ShII oldini olishda xavfsizlik va nazorat chora-tadbirlari. Hamshira ish joyida umumiy xavfsizlik chora-tadbirlari. Dezinfeksiya va uning turlari. Dezinfeksiya vositalarini	12	N-4 A-8	6

		qo‘llashda havsizlik texnikasi qoidalari. Sterilizasiya va uning turlari. Sog‘liqni saqlash vazirligining infeksiyani oldini olishga qaratilgan so‘ngi buyruqlarining mazmuni. Davolash muassalarida gepatit va OIV infeksiyasining yuqish yo‘llari, oldini olish choralari. Muolajadan oldin va keyin qo‘lini yuvish. Steril qo‘lqop kiyish va yechish. Dezinfeksiyalovchi vositalarning kimyoviy va fizikaviy xossalari bilan tanishish va havfsizlik texnikasiga rioya qilgan holda zamonaviy dezinfeksiya eritmalarni tayyorlash. DPM steril zonalarida: operasiya xonasi, reanimasiya,hamshira postlarini va intensiv davolash bo‘limlari, muolaja, laboratoriya, dorixonava stomatologik xonalarini sanitariya qoidalariga rioya qilib, ishdan avval, joriy, yakuniy va batamom tozalash. Infeksion xavfsizlikni ta’minlash. Avariya xolati haqida tushuncha, avariya xolatida hamshiraning xatti-xarakatlari.			
5	**Bemorning shaxsiy gigiyenasi**	Bemorning to‘shakdagi holati, faollik tartibi. Funksional krovatni qo‘llash qoidalari. To‘shakni tayyorlash, taglik, pamperslarni qo‘llash. Bemor tanasi gigiyenasiga qo‘yiladigan asosiy talablar. Terini parvarishlash. Yotoq yaralar: hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan joylar, xavfli omillari. Yotoq yaralarni parvarishlash va oldini olish**.** Ko‘z, quloq, burun, og‘iz bo‘shlig‘i, jinsiy a’zolarni parvarishlash. Soch va tirnoqlarni parvarish qilishning ahamiyati. Funksional krovat, yordamchi moslamalar yordamida bemorga qulay sharoitni yaratish. Og‘ir bemorlarga gigiyenik muolajalarni o‘tkazishda yordam berish: ko‘zni yuvish, burun va og‘iz bo‘shlig‘ini parvarishlash, tashqi eshituv yo‘llarini tozalash. Ichki kiyim va oqliklarni almashtirish usullari. Og‘ir bemorlarni yuvintirish, artish, bosh va oyoqlarini yuvish. Yotoq yaralarda terini parvarishlash.	8	N-4 A-4	4
6	**Bemorni ovqatlantirish**	Ovqatning tarkibiy qismlari, energetik qiymati ko‘rsatkichlari, kalloriyasi. Oqsillar. Yog‘lar. Uglevodlar, suv, mineral moddalar, vitaminlarning ovqatlanishdagi ahamiyati. Diyetoterapiyaning asosiy xususiyatlari. Parxez stollari tasnifi. Tabiiy va sun’iy ovqatlanish usullari, ularni qo‘llashga ko‘rsatmalar. Asosiy oziqli eritmalar. Shifoxonada ovqatlanishni tashkil etish. Bemorni qoshiq va maxsus choynaksimon idish yordamida ovqatlantirish. Bemorlarda ovqatlanish bilan bog‘liq muammolar uchraganda zaruriy yordamni rejalashtirish. Ovqatlanish vaqtida yordam ko‘rsatish. Bemorni sun’iy ovqatlantirish. Og‘ir bemorga gastrostoma orqali oziqli eritmalarni yuborish. Og‘ir yotgan bemorlarga me’da zondi orqali oziqli eritmalarni yuborish. Bemorlarni parenteral usulda ovqatlantirish.	8	N-4 A-4	3
7	**Bemorlarning funksional holatini baholash**	Termoregulyasiya jarayonini boshqarishda ichki sekresiya bezlari faoliyatining ahamiyati,termoregulyasiya mexanizmini buzilishi, haroratni o‘lchash. Tomir urishini tekshirishning ahamiyati. Normal puls me’yorlari. Arterial bosimning(AB) ta’rifi. AB ko‘rsatkichlariga baxo berish.Nafas olish mexanizmi,	12	N-4 A-8	6

		tiplari va patologik turlari. Suv muvozanati haqida tushuncha. Bemorlarda termometriya o‘tkazish. Ko‘rsatkichlarni gemodinamika varaqasigaqayd etish. Termometrlarni tozalash, zararsizlantirish. Istma davrlarida bemor parvarishi. Istmani bolalarda o‘ziga xos o‘tishi. Sog‘lom odam va bemorlardagi pulsni turli nuqtalarda aniqlash (radial, braxial, femoral, pedal va apikal). Puls soni, maromi, tarangligi va to‘laligini ta’riflash, natijani gemodinamika varaqasiga qayd etish. Arterial qon bosimini o‘lchash. Gipertoniya va gipotoniyada bemorga yordam berish. Bemorlarda nafas olish maromi, nafas turini aniqlash.Kundalik suv balansini aniqlash.			
8	**Qusayotgan va fiziologik bo‘shalishi buzilgan bemorlarga yordam berish**	Me’da-ichak yo‘li muammolari (qusish, jig‘ildon qaynashi, meteorizm, ich ketishi, qabziyat). Ularning keltirib chiqaradigan sabablar. Me’dadan qon ketish belgilari. Me’dadan qon ketganda birinchi yordam.Huqna turlarini: tozalovchi, sifonli,moyli, dorili, oziqali. Yeurli xildagi huqna o‘tkazishga va gaz chiqarish naychasini qo‘llashda uchraydigan asoratlar va mone’liklar. Bemorlarda me’da – ichak yo‘llarida muammo paydo bo‘lganda yordam ko‘rsatish. Hushsiz holatda qusayotgan bemorga yordam ko‘rsatish. Aspirasiyani oldini olish. Huqna turlari, ularni o‘tkazishga ko‘rsatma va mone’liklar. Meteorizmda yordam berish. Gaz chiqarish naychasini qo‘llash. Bemorlarda siydik chiqarish tizimi muammolari paydo bo‘lganda yordam ko‘rsatish. Siydik tutilishida yordam ko‘rsatish. Yumshoq kateter bilan siydik qopini kateterlash uchun jihozlar yigish va asoratlarni oldini olish. Bemorga tuvak va siydikdon tutish va ularni zararsizlantirish.	12	N-4 A-8	6
9	**Soddalashtirilgan fizioterapevtik muolajalarni o‘tkazish**	Soddalashtirilgan fizioterapevtik muolajalarning organizmga ta’sir kilish mexanizmi. Soddalashtirilgan fizioterapiya muolajalarini o‘tkazganda texnika xavfsizligiga rioya qilish.Soddalashtirilgan fizioterapevtik muolajalarni qo‘llashda ko‘rsatmalar va mo‘neliklarni.Kompresslar, isitgich va muzli xalta qo‘yish. Davolash vannalarini tayyorlash. Muolaja vaqtida bemorni kuzatish va parvarishlash.Dush turlari va ularni o‘tkazish qoidalari.	4	A-4	2

10	**Dori moddalarini qo‘llash**	Eng muhim terapevtik tadbirlardan biri hisoblangan dori vositalar bilan davolashning ahamiyati. Kasalxonada kasallik tarixidan shifokor buyurtmalarini yozib olish. Dori moddalari (narkotik, psixotrop, kuchli ta’sir etuvchi, spirt va prekursorlar)ni saqlash. Til ostiga qo‘yiladigan dorilarning qo‘llanishi. Dorilar bilan og‘iz bo‘shlig‘ini chayqash va shimdirish. To‘g‘ri ichakka va unga kiritiladigan dori moddalarni qo‘llash usullari.Teri osti, teriorasiva muskul orasiga inyeksiyaqilishtexnikasi. Inyeksiyakilingandankeyinkuzatiladiganasoratlar, ularningoldiniolishvadavolash. Kasalxonada kasallik tarixidan shifokor buyurtmalarini yozib olish. Dori moddalari (A va B guruh preparatlari hamda spirt) uchun talabnoma tuzish. Dori moddalarini tashqi (tomchilarni ko‘zga, burunga, quloqqa tomizish, teri ustiga malham, kukunli va suyuq dori vositalarini) qo‘llash. Ingalyatordan foydalanish. Dori moddalarini enteral (og‘iz orqali, til ostiga va rektal yo‘l orqali) qo‘llash. Antibiotiklarni eritishni va kerakli miqdorda tortib olish. Buyurilgan insulin dozasini shprisga tortib olish. Teri orasiga, teri ostiga va mushaklar orasiga qilinadigan inyeksiyalarni bajarish. Vena ichiga inyeksiya qilish. Vena ichiga tomchilab dori yuborish. Dori moddalarini parenteral usulda yuborganda uchraydigan asoratlarni oldini olish. Bir martalik sistema, shpris va ignalarni dezinfeksiya va utilizasiya qilish.	20	N-4 A-16	10
11	**Bemorlarni laborator-instrumental tekshiruvlarga tayyorlash**	Laborator va asbob-uskunali tekshiruvlarining asosiy usullari va ularning ahamiyati. Bemorlarni turli hildagi tashxislash tekshiruvlariga tayyorlash xususiyatlari. Tashxislash tekshiruvlarida tibbiyot hodimlarining bajaradigan vazifalari (majburiyatlari). Bemorga tekshiruv ahamiyati va unga tayyorlanish qoidalarini tushuntirish. Bemorni rentgenologik, endoskopik va ultratovushli tekshiruvlarga tayyorlash jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish. Bemorga tekshiruv ahamiyati va unga tayyorlanish qoidalarini tushuntirish. Bemor balg‘amini yig‘ish qoidalarini tushuntirish. Bemor siydigini turli xil tekshiruvlarga yig‘ish qoidalarini tushuntirish. Bemor najasini turli xil tekshiruvlarga yig‘ish va tayyorlash qoidasini tushuntirish. Biologik materiallarni laboratoriyaga yuborish. Laboratoriyaga yo‘llanma yozish.	8	N-4 A-4	4
12	**Kechiktirib bo‘lmaydigan xolatlarda shoshilinch yordam berish.**	Kechiktirib bo‘lmaydigan xolatlarda shoshilinch yordam berish xususiyatlari. Hushdan ketgan+da birinchi yordam ko‘rsatish. Anafilaktik shokda birinchi yordam ko‘rsatish. Nafas yo‘llari obstruksiyasini va yurak to‘xtab qolganini aniqlash. Nafas yo‘llari obstruksiyasida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish. O‘pka-yurak reanimasiyasini o‘tkazish. O‘YuRni o‘tkazishda samarali belgilarni aniqlash.	4	A-4	2
	Jami: 144		**96**	**32\64**	**48**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash.

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonilan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol – javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

4.Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Prezident asarlari:

1. Shavkat Mirziyoyev «Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” Toshkent – “O‘zbekiston” 2020 y.
2. Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.Toshkent – “O’zbekiston” 2019 y
3. Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y
4. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018 y

Asosiy adabiyotlar:

1. Zokirova K. U , To‘xtamatova D.U “Xamshiralik ishi asoslari” Toshkent , “ Ilm Ziyo ” 2012 yil.
2. Tolkacheva O.V., Zinkovskaya I.V. «Osnovы sestrinskogo dela» Tashkent, Voris, 2012 god.
3. Fozilbekova M.A “Xamshiralik ishi nazariy asoslari” Toshkent , “O‘qituvchi” 2011.
4. Inomov Q.S “Xamshiralik ishi asoslari” Toshkent , «O‘zME», 2009 yil.
5. Obuxoves T.P. «Osnovы sestrinskogo dela»: Praktikum, Rostov na Donu, Feniks, 2006 yil.
6. Umarova T.Yu , Qayumova I.A, Ibragimova M.K “Xamshiralik ishi” Toshkent , “Zar qalam”, 2005 yil.
8.Bairova S.B . Anduraupova G.M “ Bemorlar bilan ishlash asoslari” Toshkent “Fan va texnologiya”, 2012 yil
9.Nazirov F.G‘ “Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish” Toshkent, “Abu Ali ibn Sino”, 2005 yil.
10.“Shaxslararo muloqot” o‘quv qo‘llanmasi. Toshkent, 2006 yil.
11.“Hammabop tibbiyot qo‘llanmasi” Toshkent, “G‘ofur G‘ulom”2006 yil.

Internet manbalari:

1. www.ziyonet.uz,
2. www.lex.uz.,
3. www.google.uz,

4. www.med.uz.,

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI

40910302-“Tibbiy profilaktika ishi” mutaxassisligi

KLINIK PATOLOGIYA VA BIRINChI TIBBIY YORDAM fanidan O‘QUV DASTURI

Kvalifikasiya nomi: **Tibbiy profilaktika ishi feldsheri**

O‘quv rejadagi tartib raqami: **2.16**

Ajratilgan soat: **72**

Toshkent – 2023

1.Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv-metodik Birlashmani 2023-yil 3-avgustdagi 7 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan. TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

Tuzuvchi:
N.D.Djalilova — 2 – son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o’q’tuvchisi

Taqrizchilar :
G.Mannonova — 2 – son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o’qituvchisi

D.T.Ismatullayeva — EMY University Anatomiya va tabiiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Klinik patologiya va birinchi tibbiy yordam**
Ajratilgan soat	72
Mavzular soni	18
